Ta’rixini yozgin: ”Bobo Husayn kusht” (o‘ldirdi).

“Andijonga Uzun Hasanning kuyovi Nosirbekni qo‘ygan edilar. Agar uni ikkinchi Uzun Hasan deb bo‘lmasa-da, uchunchisi desa bo‘lardi”. “Sulton Shihobiddinni “Tabaqoti Nosiriy” kitobida va ba’zi Hind tarixida Muiziddin (dinni e’zozlovchi) deb yozganlar”.

“Avliyo Qutb bizga yetkazdiki, senga “Hizabrulloh” (Allohning sheri) laqab bo‘ldi. Sen o‘zbakni yengasan”. “…Yana, Binoyi edi. Hirotlikdir. Otasi Ustod Muhammad Sabz binokor banno bo‘lgani uchun shunday taxallus olgan.

“Boburnoma”da leksikologiyaga, jumladan, ko‘p ma’nolilikka oid bir qator leksik birliklarni ham ko‘plab uchratamiz. Masalan, metaforaning o‘ziga bir qator misollar keltirishimiz mumkin: “… U hujradan quyiroqda, ushbu tog‘ning tumshug‘ida to‘qqiz yuz ikkinchi yili (1497) men bir ayvonli hujra soldirdim”. “Baroko‘h tog‘ining etagida – shahar bilan tog‘ orasida “Masjidi Javzo” nomli bir masjid qad ko‘targan”.

“Dilni yaralama, ohidan cho‘chi,

Bu yara biror kun sirtga tepadi.
Birorta ko‘ngilga bermagil ozor,
Jahonni o‘rtashga bir oh yetadi”.

“Bir necha kundan so‘ng buzuq hayol bilan Axsiga qarab yo‘l oldik”. “She’rga ishtiyoqi bor edi. Devon tartib bergan, biroq she’ri juda bo‘sh va bemaza edi”. “Qori Kobuldagidek tushmasa ham, qishi qattiq sovuqdir”. “Movarounnahrda Buxoro maylaridan o‘tkirroq sharob bo‘lmas”. “Ketar-turar yerimizdan, qilar-qilmas ishimizdan so‘roqlab va surishtirib, qattiq ta’sirlanib, bizning holimizga achinib, fotiha o‘qib ketdi”. “Bu xunuk harakatdan so‘ng Xisravshoh Boysunqur mirzoni podshoh qilib, Hisorga jo‘natdi. “Shu oqshom Lotkand qishlog‘iga qo‘ndik”. “Barcha jangchilar qurollangan holda xandaq yoqasiga chiqib o‘rnashdilar”. “Mening onam Qutlug‘ Nigorxonim og‘rib qoldi, ancha yomon og‘ridi. Qattiq xatarlarni o‘tkazdi”. “… bunday yaxshi imkoniyat eshigi uzoq yillar ham topilmas”. “Pamg‘on kentining uylari batamom yiqildi”.

“Yaxshi er uyida yaramas xotin,
Shu dunyoda erning do‘zaxi tayin”.

“Sharobni ko‘p ichar ekan, sharabxo‘r ekan. Qattiq zarbli mushti bor ekan”.

Metonimiyaga oid til birliklar: “Ko‘pincha “Shohnoma” o‘qir edi”. “… Shohruxiyani firib bilan olib, ancha vaqt foydalanib turdi”. “Sulton Mahmud mirzo hayotligida katta o‘g‘li Sulton Ma’sud mirzoga Hisorni, Boysunqur mirzoga Buxoroni bergan edi”. “Barchasi Sulton Ahmad Tanbal borgani zahoti ochiq va oshkora yomonlik tomonida bo‘ldilar. Samarqandni olish umidida necha yil jadal Lashkar tortgan bo‘lsak, Sulton Mahmudxondan biror ishonchli madad va ko‘mak bo‘lmasa-da, lekin u Samarqand olingandan so‘ng Andijonni olishni istar edi”. “U kelsinlar, shaharni beramiz, degan xabar keltirildi”. “Bular yaqin yetib, otdan o‘zlarini tashlab, yiroqdan ta’zim qilib, ikki bukilib, mening oyog‘imga yiqildilar”. “Malik Busa’id Kamariy butun Afg‘onistonni yaxshi bilardi. Bu yurishda yo‘lboshchi u edi”. “Darayi Xush og‘zida – Jangalakda hujumni boshladik. Oz-moz hazora talandi”. “Hisor qo‘rg‘onini Boqi Chag‘oniyoniy, Mahmud barlos va Qo‘chbekning otasi Sulton Ahmad berkitdilar”.

Sinekdoxa: “O‘ratepaning ustida ekanida kishimizning ozligiga va yaroqsizligiga qaramay, yov eshik oldiga kelganda imkonni qo‘ldan chiqarmaslik uchun Maschodagi xonadonni qo‘yib, Obburdon dovonidan oshib Dahkat kentiga keldik”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vahob Rahmonov va Karomat Mullaxo‘jayeva “Boburnoma” asarining hozirgi o‘zbek tiliga qilingan tabdili asosida yozildi, Toshkent – 2017

INSON HUQUQLARINI TA’MINLASH – BOSH MAQSADIMIZ

Bekzod Ablakimov
Qo‘qon davlat pedogogika instituti Tarix fakulteti
milliy g‘oya ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi 102-guruh 1-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6899668

Annotatsiya: Mustaqil demokratik yo‘ldan dadil odimlayotgan O‘zbekistonning eng ulug‘ maqsadi, avvalo, xalqimiz manfaatlari ko‘zlangan islohotlarni amalga oshirishga qaratilgani bilan e’tiborlidir. Inson huquq va erkinliklariga amal qilinishini ta’minlash, har bir shaxsning qadr-qimmatini e’zozlash biz barpo etayotgan ochiq, erkin va adolatli jamiyatning ajralmas xususiyatidir”, deya ta’kidlagan muxtaram Prezidentimiz.

Kalit so‘zlar: Inson huquqlari, vijdon erkinligi, demokratik islohotlar, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, inson huquqlarining qonunlar bilan uyg‘unligi.

Kirish: Inson huquqlari - insonning davlat bilan munosabatidagi huquqiy maqomini, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalardagi imkoniyatlari hamda da’volarini tavsiflovchi tushuncha. Inson huquqlarini erkin va samarali tarzda amalga oshirish fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biridir. Inson huquqlarini mutlaq va nisbiy Inson huquqlariga o‘lish qabul qilingan. Yashash huquqi, qiynoqlarga, zo‘ravonlikka, inson sha’nini yerga uradigan boshqa xil muomalaga yoki jazoga duchor etilmaslik huquqi, shaxsiy hayotning daxlsizligi huquqi, shaxsiy va oilaviy sir saqlash huquqi, o‘z sha’ni hamda yaxshi nomini himoya etish huquqi, vijdon erkinligi va dinga e’tiqod qilish huquqi, shuningdek, sud tomonidan himoya qilinish va odil sudlov huquqi hamda shular bilan bog‘liq eng muhim protsessual huquqlar mutlaq Inson huquqlari sirasiga kiradi. Qolgan hamma Inson huquqlari nisbiy bo‘lib, favqulodda yoki harbiy holat tartibi joriy qilingan vaziyatda cheklab yoki to‘xtatib qo‘yilishi mumkin. Demokratik davlatda mutlaq Inson huquqlarini har qanday vaziyatda ham cheklashga yoki vaqtincha to‘xtatishga (bekor qilishga) yo‘l qo‘yilmaydi. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda Inson huquqlari va erkinliklarining ustunligidan kelib chiqadigan, xalqaro miqyosda qabul qilingan yangi yuridik tamoyil va talablarga asoslangan keng hukuqiy muhit vujudga keltirildi. Totalitar tuzumning tazyiq va zo‘ravonligidan huquqiy me’yorlar sari keskin burilish yasaldi. Respublika qonunlarini Inson huquqlari sohasidagi xalqaro me’yorlar va andozalarga muvofiqlashtirish, mazkur sohada Milliy harakat dasturini ishlab chiqish, Inson huquqlarini himoya qiladigan muassasalarning yaxlit tizimini barpo etish, Inson huquqlariga oid xalqaro shartnomalar va hujjatlarga qo‘shilishda

davom etib, bu hujjatlar bo‘yicha majburiyatlarni bajarishning, barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar shu hujjatlar talablariga so‘zsiz rioya qilishining mexanizmi yaratildi. Yurtimizda inson huquq va erkinligini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarga hamohang tarzda faoliyat yuritayotgan Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi ham shu kabi ezgu ishlarni amalga oshirishga kamarbastalik qilmoqda. O‘tgan davr mobaynida mazkur Markaz o‘z oldidagi o‘ta dolzarb sanalgan milliy harakat rejasini tuzish, Konstitutsiyamiz, qonunlar va inson huquqlari sohasidagi umume’tirof etilgan xalqaro huquq me’yorlari qoidalarini amalga oshirish strategiyasini ishlab chiqish, inson huquqlari sohasida O‘zbekiston Respublikasining xalqaro va milliy tashkilotlar bilan hamkorligini rivojlantirish, mamlakatimizda inson huquqlariga rioya etilishi va bu huquqlarning muhofaza qilinishi yuzasidan milliy ma’ruzalar tayyorlash, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga, shuningdek, inson huquqlari bo‘yicha jamoat birlashmalariga maslahatlar berish, inson huquqlarini rag‘batlantirish va muhofaza qilishning turli jihatlari yuzasidan tadqiqotlar o‘tkazish kabi vazifalarni muvaffaqiyatli ado etib kelmoqda.

Asosiy qism: O‘zbekistonda qisqa tarixiy muddat ichida milliy davlatchilikni shakllantirishning huquqiy asoslari yaratildi. Mamlakatimiz barcha rivojlangan huquqiy davlatlardagi kabi uch hokimiyatga, ya’ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga taqsimlandi. Xalq farovonligi yo‘lida kuchli huquqiy davlatdan fuqarolik jamiyati sari ildam qadam qo‘yish maqsadida erkin bozor munosabatlariga asoslangan kuchli iqtisodiyot barpo etildi. Shu tariqa, yurtimiz xalqaro huquqning to‘laqonli va teng huquqli sub’ektiga aylandi. Albatta, bularning barchasiga Prezidentimiz Islom Karimovning jonkuyarligi, tashabbuskorligi va rahnamoligi evaziga erishildi.Inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishning ta’sirli vositasini barpo etish, xalqaro tashkilotlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikni kengaytirish, davlat muassasalari xodimlari va aholining inson huquqlari bo‘yicha madaniyatini oshirish maqsadida BMTning Inson huquqlari va boshqaruv tizimini demokratiyalashni qo‘llab-quvvatlash dasturiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 31 oktyabrdagi Farmoni bilan Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi tuzildi. Farmonda Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markazning maqsad va asosiy vazifalari aniq belgilab qo‘yildi.

1996 yil 13 noyabrdagi “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining qarori Milliy markaz faoliyatining tashkiliy-huquqiy asosi hisoblanadi. Ushbu qaror orqali Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi to‘g‘risidagi Nizom va Milliy markaz tuzilmasi tasdiqlangan.Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi davlatga qarashli

idoralararo tahlil, tushuntirish va muvofiqlashtirish organi hisoblanadi. Ya’ni, mazkur organ inson huquqlari sohasida davlat boshqaruv organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi, inson huquqlari sohasidagi ishlar milliy rejasini ishlab chiqadi, O‘zbekistonning inson huquqlari bo‘yicha milliy ma’ruzalarini tayyorlaydi, davlat xizmatchilari uchun esa inson huquqlari muhofazasi sohasida axborot bazasini yaratadi, ularni o‘qitadi, maslahatlar beradi, tashviqot ishlarini olib boradi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Markazning asosiy maqsadi bu ustuvor vazifalarni har tomonlama hal etish yo‘li bilan Inson huquqlari sohasidagi Milliy faoliyat dasturini, huquq va erkinliklarni himoya etishning ko‘p jihatli tizimini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etishdan iborat.Hozirda Markazning Axborot-huquq bo‘limi huzurida Markaziy Osiyoda yagona ixtisoslashtirilgan Inson huquqlari bo‘yicha ommaviy kutubxona faoliyat yuritadi. Mazkur kutubxona o‘zbek va xorijiy tillarda nashr etilgan kitoblar, jurnallar va boshqa adabiyotlardan iborat bo‘lib, 5 mingdan ziyod nomdagi inson huquqlariga doir kitob fondiga ega. Markaz tomonidan inson huquqlari bo‘yicha 150 dan ziyod to‘plamlar, kitoblar va boshqa adabiyotlar davlat tilida ko‘p ming adadda chop etildi.

O‘zbekistonda Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlarning shakllanishi mamlakatni isloh qilish va modernizatsiyalash jarayonlari doirasida davlat va jamiyatning barcha sohalarida demokratik islohotlar o‘tkazish amalga oshirildi. Jumladan, davlatimiz rahbarining 2008 yil 1 maydagi “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yilligiga bag‘ishlangan tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni O‘zbekistonda Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlarning huquqiy maqomini mustahkamlash yo‘lida yana bir muhim qadam bo‘ldi, deyish mumkin. Prezidentimiz Farmonida inson huquqlarini himoya qilish tizimini tashkiliy-huquqiy jihatdan yanada takomillashtirish, shuningdek, inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, moddiy-texnikaviy bazani mustahkamlash, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi va boshqa milliy institutlar bo‘linmalarining samarali ishlashi uchun zarur bo‘lgan sharoitlarni yaratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni qabul qilish ko‘zda tutilgan.Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida qabul qilingan me’yoriy hujjatlar, xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadlarida milliy institutlarning qonunchilik asoslarini takomillashtirish O‘zbekistonning demokratik o‘zgarishlarga sodiqligini yana bir karra namoyish qilmoqda.Ayni paytda mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlardan Oliy Majlis Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman), O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonunchilik monitoringi instituti hamda Milliy markazimiz zimmasidagi vazifalarni to‘laqonli bajarish yo‘lida xizmat qilib kelmoqda. Bu tashkilotlarning harakati, izlanishlari o‘laroq, yurtimizda inson huquqlari muhofazasi yo‘lida mustahkam

qonunchilik tizimi barpo etildi. Istiqlol yillarida insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta’minlashga doir konstitutsiyaviy qonunlar, kodekslar va boshqa qonunlar qabul qilinib, hayotga tatbiq etilmoqda.“Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Xayriya to‘g‘risida”gi va boshqa qonunlarning qabul qilinishi inson huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirishga zamin bo‘lmoqda.Ayni paytda mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarining huquqiy asoslari yaratilishi va uning amalda qo‘llanishi hamda kafolatlanishini kuzatuvchi mexanizmlardan yuqorida tilga olib o‘tilgan institutlar bilan bir qatorda Oliy sud huzuridagi Sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha tadqiqot markazi va Adliya vazirligi, Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligida inson huquqlari bo‘yicha bo‘linmalar va boshqarmalar samarali faoliyat yuritmoqda.

O‘zbekistonda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan printsip va normalari ustunligi konstitutsiyaviy asosda e’tirof etiladi. Bugungi kunda mamlakatimiz inson huquqlari bo‘yicha 70 dan ziyod xalqaro hujjatlar, xususan, BMT tomonidan inson huquqlari bo‘yicha qabul qilingan 10 ta majburiy xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilib, o‘zining xalqaro majburiyatlarini muntazam ravishda bajarib kelmoqda. Shavkat Mirziyoyev BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 46-sessiyasida nutq so‘zladi.O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 46-sessiyasida ishtirok etib, nutq so‘zladi. Ta’kidlash joiz, O‘zbekiston ilk bor Inson huquqlari bo‘yicha kengashi a’zosi sifatida qatnashdi

Prezident mamlakatda demokratik yangilanishlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo‘nalishlari hamda Inson huquqlari bo‘yicha kengash doirasidagi ishlarning asosiy vazifalariga to‘xtalib o‘tdi.Insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta’minlash O‘zbekistondagi islohotlarda eng muhim o‘rinda turadi.

«2030 yilgacha mo‘ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari mamlakatimizda har bir insonning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlashni ko‘zda tutadigan „hech kimni e’tibordan chetda qoldirmaslik“ tamoyili asosida amalga oshiriladi. Bu o‘rinda so‘z Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissar boshqarmasi ekspertlarining faol ishtirokida ishlab chiqilgan Inson huquqlari bo‘yicha milliy strategiyani amalga oshirish to‘g‘risida bormoqda», — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Xulosa: Bir so‘z bilan aytganda, O‘zbekistonning demokratik o‘zgarishlarga sodiqligini namoyish qilish, yurtimizda kechayotgan ulkan o‘zgarishlar va yangilanishlar davrida avvalo inson huquqlarini himoya qilish va rag‘batlantirish birlamchi vazifalardan sanaladi. Bunda jamiyatimizda mavjud milliy institutlar ichida

Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazining o‘rni beqiyosdir.

Prezidentimizning biz yoshlarga berilayotgan huquq va erkinliklardan to‘g‘ri va oqilona foydalanishimiz lozimdir.Bu imkoniyatlardan unumli foydalanib mustaqil taraqqiyotimiz rivojiga o‘z hissamizni qo‘shsak davlatimiz rahbarini ishonchini oqlagan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davlat va huquq nazariyasi, Konstitutsiyaviy huquq, O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 46-sessiyasida Prezident nutqi.

LABOR MARKET AND ENSURING THE BALANCE OF LABOR RESOURCES AS AN IMPORTANT FACTOR OF ECONOMIC DEVELOPMENT

Makhliyo Kholmirzaeva
Student of the Faculty of Economics, NUUZ
https://doi.org/10.5281/zenodo.6899687

Abstract: The labor force is the main subject of the labor market. The gross domestic product created in the society is directly dependent not only on the material factors of production, but also on the factor of human capital, labor force. The state of labor resources in the labor market is related to socio-economic processes, and it is important to ensure the balance of resources.

Key words: labor force, labor resources, productivity of the labor force, human potential, active part of the labor force, reserve part of the labor force.

Аннотация: Рабочая сила является основным субъектом рынка труда. Создаваемый в обществе валовой внутренний продукт находится в прямой зависимости не только от материальных факторов производства, но и от фактора человеческого капитала, рабочей силы. Состояние трудовых ресурсов на рынке труда связано с социально-экономическими процессами, и важно обеспечить баланс ресурсов.

Ключевые слова: рабочая сила, трудовые ресурсы, производительность труда, человеческий потенциал, активная часть рабочей силы, резервная часть рабочей силы.

The main goal of the economic reforms carried out in the Republic of Uzbekistan is to ensure economic stability, develop competitiveness in sectors and industries, and increase the level of social and economic well-being of the population.

It is worth noting that the level of economic well-being of the population is explained by several factors, such as the lifestyle of the country's population, the employment rate, the source of income, and the category of the labor force in the labor market is also important in the economy when such indicators are high.

Labor force resources are the part of the country's population that is able to work. These are: women aged 16 to 55 and men aged 16 to 60. In accordance with Article 77 of the Labor Code of the Republic of Uzbekistan, the age of employment is allowed from sixteen years. Children who have reached the age of fifteen are admitted to work with the written consent of one of their parents.

Two types of labor resources are distinguished:

The active part of the labor force is the persons engaged in social production.

The potential part of the labor force is those who are separated from production and are employed in temporary households.

How much wealth is created in society directly depends on the quantitative (number of people of working age) and quality (qualifications, skills, knowledge and experience) of the workforce.

The main elements of the structure of the labor market are the demand for labor force, the supply of labor force, the value and price of labor force, competition in hiring labor force. In the conditions of the market economy, it is important to ensure any economic balance, and the employment of the population in the labor market is considered as a specific economic balance. Ensuring balance in the labor market is necessarily explained by the balancing of labor demand and labor supply.

The high level of labor supply in the labor market is associated with the following socio-economic processes occurring in the country:

- natural population growth
- change of the economically inactive population (pupils, students, women, mothers with many children) who did not work and did not look for work to the economically active population;
- the emergence of employed people in the labor market as a result of the need for high-income jobs in the desire for additional income, and the addition of employed people to the unemployed population as a result of the loss of their jobs;
- manifestation of young people of working age as a labor force in the labor market;
- migratory movement of labor force, change of place of work or residence, etc.

The high level of labor demand in the labor market is directly related to the results and effectiveness of the economic and social reforms implemented by the state. There is an opportunity to increase the quality and quantity of economic benefits created by the state's support of entrepreneurs, the creation of privileges in the field of entrepreneurship, the strength of their legal guarantees, and the encouragement of entrepreneurs, as well as at the same time, such reforms in the field of entrepreneurship are also important in the creation of vacancies in the labor market.

It should be noted that during the reform of the economy of Uzbekistan, it became known that there are a number of problems in the labor market. One of these problems is the issue of distribution and redistribution of labor force. Providing employment to the population and its reformation is important for achieving economic stability. In accordance with the structural changes taking place in the country's economy, the directions of production also change. In this process, the management of the state is required in the distribution and redistribution of labor force.

In such cases, there is a need to use the means of distribution and redistribution of the idle or freed labor force as effectively as possible. On the contrary, there is a high probability that the labor force, which is not provided with a job according to its specialty, will go abroad in search of work and become labor migrants.

As it was mentioned above, the entrepreneurship sector, which is supported and encouraged in the country, is of great importance in the increase of the labor force demand in the country. Deepening of economic reforms, development of small business and private entrepreneurship is one of the main directions of economic reforms carried out in our republic. This requires the development of economic competition, the filling of the consumer market with goods and services, as well as the creation of a wide range of private entrepreneurs. Taking these into account, the following issues should be resolved in the Republic today:

- bringing broad sections of the population into market activities, eliminating the psychology of consumerism in them, arousing the desire of the population to actively engage in private entrepreneurship, small business activities;
- fundamental renewal of economic relations in agriculture;
- to further develop the activities of farmers and farms and increase their number as much as possible, to provide temporary unemployed people with additional jobs by establishing small enterprises in the regions;
- to accelerate the development of market relations and infrastructure in the regions, to create conditions for strengthening active economic competition.

Today a number of reliefs have been created regarding the issues of registration of business entities in Uzbekistan. In particular, with the help of digitized technologies, entities are being registered through electronic government tools, my.gov.uz networks, without excessive waiting. A number of reforms to reform and improve the business sector are being implemented in our republic. In particular, the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures to fundamentally improve the quality and scope of state control in the field of business" aims to further improve the business environment by fundamentally improving state control, and the following are the priority directions for reforming state control in the field:

- optimization of functions related to control of activities that do not harm the rights and legal interests of citizens, health, public and state security, and introduction of mechanisms to prevent the implementation of ineffective control functions;
- introduction of the "smart control" model with extensive use of information technologies, digitization of all information and processes related to the field, implementation of state control using the "risk analysis" system as a priority in the "electronic inspector" method;

- introduction of the standard of prevention of violations, establishment of mechanisms for encouraging compliance with the mandatory requirements provided for in regulatory and legal documents;

- ensuring the openness and publicity of information related to the implementation of state control, prevention of corruption, conflict of interests, as well as cases of selective application of norms of regulatory and legal documents;

- setting special requirements for officials to have sufficient knowledge, skills and abilities to ensure legality in the implementation of state control.

References:

1. B. Aliev, "Specific features of labor market formation"/Economic literature of Uzbekistan/-2010, No. 5.

2. F.T. Egamberdiev, D. Abduazizov, "Priority directions of the state policy on ensuring economic security" Problems of modernization and ensuring economic balance in achieving economic stability. A collection of materials of the republic-wide scientific and practical conference - Tashkent. 2016, - 288 pages.

3. D. Rahimova, O. Abdurakhmanov "Interrelationship in the management of the labor market and education system in Uzbekistan"/educational management/-2010 issue 6(16)

4. Экономика труда. Учебное пособие. / Под общ. ред. К.Х.Абдурахмонова, Ю.Т.Одегова. – Т.: ТФ РЭУ, 2011. – С. 279.

5. Ширина И.В. Конкурентоспособность молодых специалистов по оценки руководителей. // «Со- циальная политика и социология», 2011, №2. –С. 174–177.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA DIDAKTIK O’YINLARDAN FOYDALANISH

Diyora Tuxtarova Abduxamitovna
Toshkent viloyati Chirchiq shahar
24-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6899697

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang’ich ta’limga kompetentsiyaviy yondashuv imkoniyatlari yoritilgan.
Kalit so’zlar: Boshlang’ich ta’lim, kompetentsiya, pedagogik mahorat.

Didaktik o’yinlar asosan ta’lim jarayonini o’quvchilarning yosh xususiyatlari va tayyorgarliklariga qarab samarali tashkil qilishga, ularga bilim va ma'lumot berishni yengillashtirishga, ta’limda ko’rgazmalilikni ta’minlashga qaratilgan bo’lib, o’quvchilarni o’quv materiallari bilan ortiqcha band qilib qo'ymaslik imkoniyatini yaratadi. Dastur materiallarini o’zlashtirishda bir qator qulayliklar tug’diradi.

Didaktik o’yinlar o’quvchilarning his-tuyg’ularini shakllantirishga, ayniqsa ularning sezgi a’zolari (sezish, ko’rish, tinglash va boshqalar) faoliyatini faollashtirishga yordam beradi. Bola miyasini “mashq” qilishga, tafakkurini teranlashtirishga o’rgatadi. Uning idroki, zehni, fahm-farosati, xotirasi, irodasi, bilim olish ishtiyoqi va ehtiyoji mustahkamlanadi. Ziyrakligi, ixtiyoriy diqqati, topqirligi, tashabbuskorligi oshib boradi. O’quvchining iste’dodi, ijodiy qobiliyati namoyon bo’la boshlaydi va olgan bilimlarini o’z faoliyatida, mehnat va o’yinda sinab ko’rish imkoniyati tug’iladi. O’quvchilarda kompetentsiyalarni samarali shakllantirish uchun o’yinlardan keng foydalanish lozim.

Didaktik o’yinlarni darsda qo’llash ta’lim-tarbiya jarayoniga noan’anaviy usulda yondoshuvni ifodalab, an’anaviy usullardan bir qator sifatlari bilan farqlanadi. Ya’ni, o’quv jarayonini bevosita qiziqarli o’yinlar asosida tashkillashtirish, o’quvchilarning birgalikdagi harakatini ta’minlash, masalaga guruh bo’lib yondoshish natijasida o’quvchilarni faol harakati va mantiqiy tafakkuri rivojlanishiga sharoit yaratiladi. Lekin bu harakatlar texnologik jihatdan ta’minlangan bo’lishi kerak. Buni amalga oshirish uchun shunday didaktik sharoit yaratish kerakki, o’yin mashg’ulotlarida qatnashuvchilar mavjud bilimlarini namoyon etishga odatlangan bo’lishlari kerak. Bu bilimlarni namoyon qilish uchun esa aynan o’yin texnologiyalari vositasida tashkillashtirilgan darslar alohida ahamiyatga ega. Biz quyida o'quvchilarda tayanch va fanga oid kompetentsiyalarni shakllantirishga xizmat qiladigan o’yinlarni taqdim etdik. Taklif etilayotgan didaktik o’yinlar ham ta’lim jarayonida o’quvchilar faolligini oshirishga xizmat qiladi. Bunga misol sifatida quyidagi o’yin turlarini ko’rsatib o’tish mumkin: “Sayohat” o'yini, “Qisqa muddatli yozma ish” o’yini,

“Erudit” o’yini, “Yumaloqlangan qor o’yini”, “Zakovatli zukko” o’yini, “Obrazga kir” o’yini va hakozo. Boshlang’ich ta’lim jarayonida didaktik o’yinlarga axborotlarni tashuvchi manba sifatida qaraladi. Dars jarayonida didaktik o’yinlarni tashkil etish o’quvchilar o'rtasida muloqotga kirishish, diqqatni jamlash va, o’z navbatida, hozirjavoblik kabi xislatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Boshlang’ich ta’lim jarayonida didaktik o’yinlardan muntazam ravishda foydalanish ta’limda tabiiy vaziyatni yaratadi. Bu esa o’quvchilarni dars davomida erkin faoliyat ko’rsatishlariga sharoit tug’diradi. O’yindan samarali va olib borilayotgan darsning mazmuniga mos holda foydalanish o’quvchiga dars davo mida berilayotgan ma’lumotlarni mustaqil o'zlashtirishi hamda ijodiy tafakkuri shakllanishini ta’minlaydi. O’yin o'quvchilarni yashirin imkoniyatlari va fanga bo’lgan qiziqishlarini ochib beradi.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarining matematik nutqini o’stirishda didaktik o'yinlardan foydalanish samarali natija beradi. O’quvchilarning matemaktik nutq boyligini oshirish, raqamlar va sonlarni to’g’ri talaffuz qilishda ham didaktik o’yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipov O’., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. -T.: Fan, 2005.

2. Farberman B.L. Peredovыe pedagogicheskie texnologii. -T.: Fan, 2000.

MAPLE MATEMATIK PAKETIDA FUNKSIYALARNI TEYLOR QATORIGA YOYISHGA OID MISOLLARNI YECHISH

Jumagul Vohobjon qizi Mirzaahmedova
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.6899733

Annotatsiya: Ushbu maqolada elementar funksiyalarni Teylor qatoriga yoyishni matematik teoremalar, formulalar orqali hisoblash va Maple matematik paketida misollarni yechish bosqichlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: funksiya, Teylor, qator, series, matematik paketlar, Maple, darajali qator.

f(x) funksiyani birorta darajali qatorning yig`indisi ko`rinishida ifodalashga berilgan ***funksiyani qatorga yoyish*** deb ataladi. Faraz qilaylik, $f(x)$ funksiya biror $(-r,r)$ da istalgan tartibdagi hosilalarga ega bo‘lsin [1].

1-teorema. Agar $\exists M>0,\ \forall x\in(-r,\ r),\ \forall n\geq 0$ da

$\left|f^{(n)}(x)\right|\leq M$

Bo‘lsa, $f(x)$ funksiya $(-r,r)$ da Teylor qatoriga yoyiladi:

$$f(x)=\sum_{n=0}^{\infty}\frac{f^{(n)}(0)}{n!}x^n=f(0)+\frac{f'(0)}{1!}x+\frac{f''(0)}{2!}x^2+\cdots+\frac{f^{(n)}(0)}{n!}x^n+\cdots \quad (1)$$

Ma’lumki, $f(x)$ funksiyaning Lagranj ko‘rinishidagi qoldiq hadli Teylor formulasi quyidagicha bo‘ladi:

$f(x)=f(0)+\frac{f'(0)}{1!}x+\frac{f''(0)}{2!}x^2+\cdots+\frac{f^{(n)}(0)}{n!}x^n+r_n(x),$

Bunda,

$$r_n(x)=\frac{f^{(n)}(\theta x)}{(n+1)!}x^{n+1}\ .\qquad (0<\theta<1).$$

Teoremaning shartidan foydalanib topamiz:

$$|r_n(x)|=\left|\frac{f^{(n)}(\theta x)}{(n+1)!}x^{n+1}\right|\leq M\cdot\frac{r^{n+1}}{(n+1)!}\ .\qquad (x\in(-r,\ r)).$$

Ravshanki,


$$\lim_{n\to\infty}\frac{r^{n+1}}{(n+1)!}=0\ .$$

Demak, $\forall x\in(-r,r)$ da

$$\lim_{n\to\infty} r_n(x)=0$$

Bo‘lib, undan qaralayotgan $f(x)$ funksiyaning Teylor qatoriga yoyilishi kelib chiqadi [2].


Matematik hisoblashlarni, sodda va murakkab amallarni bajarishga, kompyuter modelini tuzishga mo‘ljallangan dasturlash paketlari va muhitlari mavjud bo‘lib, ularni har birining imkoniyatlari alohida o‘rin tutadi. Matematik paketlar sarasiga kiruvchi Maple 12 dasturida funksiyalarni hisoblash jarayonini ko‘rib chiqamiz. Dastlab dasturni ishga tushiramiz, “File” menyusi⇒”Save as” bo‘limini tanlaymiz ⇒hosil bo‘lgan oynadan faylga nom berib saqlab olamiz [3].




1-rasm. Maple 12 matematik paketini ishchi oynasi.

1-misol. $\sqrt{x}$ sodda funksiyani Teylor qatoriga yoyish bosqichini amalga oshiramiz. Barcha matematik ifodalar ishchi oynaning o‘ng tomonidagi uskunalar paneli orqali kiritib olinadi. Maple dasturida $\sqrt{x}$ ushbu funksiyamiz $sqrt(x)$ ko‘rinishda yoziladi [5].

sqrt(x) yozilib Enter tugmasi bosiladi, keyingi qatorda $\sqrt{x}$ hosil bo‘ladi, ushbu funksiya ustiga sichqonchani olib borib o‘ng tomonini bir martta chertamiz, hosil bo‘lgan yordamchi oynadan Series ⇒ Series ⇒ x bo‘limini tanlaymiz [3].



2-rasm. Berilgan funsiyani qatorga bo‘lish bo‘limlari




3-rasm. Qator parametrlarini kiritish oynasi.

Series expansion point ⇒ qator kengayish nuqtasi=50

Series order ⇒ qator tartibi=5

Katachalarga kerakli qiymatlar kiritilib Ok tugmasi bosiladi.



4-rasm. $\sqrt{x}$ funsiyani qatorga bo‘lingan natijasi.

2-misol. Ushbu funksiyani Teylor qatoriga yoyishni ko‘rib chiqamiz.

$$f(x)=\ln\frac{1+x}{1-x}.$$

ma’lumki,

$$\ln\frac{1+x}{1-x}=\ln(1+x)-\ln(1-x)$$

bo‘ladi.

Biz yuqorida

$$\ln(1+x)=x-\frac{x^2}{2}+\frac{x^3}{3}-\ldots+(-1)^{n-1}\frac{x^n}{n}+\ldots$$

$$\ln(1-x)=-x-\frac{x^2}{2}-\frac{x^3}{3}-\ldots\frac{x^n}{n}-\ldots$$

Bo‘lishini ko‘rgan edik. Bu munosabatlardan foydalanib topamiz:


$$\ln(1+x)-\ln(1-x)=x-\frac{x^2}{2}+\frac{x^3}{3}-\ldots+(-1)^{n-1}\frac{x^n}{n}+\ldots$$

$$-\left(-x-\frac{x^2}{2}-\frac{x^3}{3}-\ldots-\frac{x^n}{n}-\ldots\right)=2x+\frac{2x^3}{3}+\frac{2x^5}{5}+\ldots+\frac{2x^{2n-1}}{2n-1}+\ldots$$

Demak,

$$\ln\frac{1+x}{1-x}=2\left(x+\frac{x^3}{3}+\frac{x^5}{5}+\ldots+\frac{x^{2n-1}}{2n-1}+\ldots\right). \quad (2)$$

(10) darajali qatorning yaqinlashish radiusi $r=1$ bo‘lib, yaqinlashish to‘plamsi $(-1,1)$ bo‘ladi.



5-rasm. Natija

3-misol. Ushbu

$$f(x)=\int_0^x\frac{\sin t}{t}dt$$

funksiya Teylor qatoriga yoyilsin.

ma’lumki,

$$\sin t = t - \frac{t^3}{3!} + \frac{t^5}{5!} - \ldots + (-1)^{n-1}\frac{t^{2n-1}}{(2n-1)!} + \ldots .$$

Unda


$$\frac{\sin t}{t} = 1 - \frac{t^2}{3!} + \frac{t^4}{5!} - \ldots + (-1)^{n-1}\frac{t^{2n-2}}{(2n-1)!} + \ldots$$

bo‘ladi. Bu darajali qatorni hadlab integrallab topamiz:

$$\int_0^x \frac{\sin t}{t}dt = \int_0^x \left(1 - \frac{t^2}{3!} + \frac{t^4}{5!} - \ldots + (-1)^{n-1}\frac{t^{2n-2}}{(2n-1)!} + \ldots\right)dt =$$

$$= x - \frac{x^3}{3!\cdot 3} + \frac{x^5}{5!\cdot 5} - \ldots + (-1)^{n-1}\frac{x^{2n-1}}{(2n-1)!\cdot(2n-1)} + \ldots$$

Keyingi darajali qatorning yaqinlashish radiusi $r = +\infty$ bo‘ladi.



6-rasm. Natija.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шабат Б.В. Введение в комплексный анализ. Т.1. М. Наука, 1985

2. Привалов И.И. Введение в теории функций комплексного переменного М., “Наука” 1977..

3. Садуллаев А., Худойберганов Г., Мансуров Х.., Ворисов А., Туйчиев Т. Математитк анализ курсидан мисол ва масалалар тўплами (комплекс анализ) 3 қисм. “Ўзбекистон” 2000 й.

4. Волковский Л.И., Лунц Г.А., Араманович И.Г. Сборник задач по теории функций комплексного переменного. М., “Наука” 1975.

5. Eshtemirov S., Aminov I.B., Nomozov F. Maple muhitida ishlash asoslari. Uslubiy qo‘llanma. –SamDU, Samarqand, 2009 y.

SABZAVOTLARNING INSON HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI VA RESPUBLIKAMIZDA AGRAR SOHADAGI ISLOHATLAR

Munavvar Abdusamad qizi Almasova
“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnalogiyalar instituti
“QXM”fakulteti 3-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6899740

Annotatsiya: meva-sabzavotchilik klasterlariga (kooperatsiyalarga) — xorijdan malakali agronom, laboratoriya mutaxassislarini jalb qilish xarajatlarining 50 foizi, biroq bir oyga 1 nafar mutaxassis uchun 1 ming AQSh dollari ekvivalentidan oshmagan qismi Qishloq xo‘jaligi vazirligining tuman bo‘limlari orqali kompensatsiya qilinadi. Bunda, meva-sabzavotchilik klasterlariga o‘ziga biriktirilgan mahsulot yetishtiruvchilar uchun bog‘ va tokzorlarni barpo etish, sabzavot, kartoshka, poliz, dukkakli va moyli ekinlarni yetishtirish bo‘yicha seminar-treninglar o‘tkazish tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: sabzavotlar, vitaminlar, iste’mol miqdori, ratsion, oziq-ovqat, darmondorilar, innovatsion texnalogiyalar

Bizga ma’lumki kunlik ratsionimizda sabzavotlar juda muhim o‘rinni egallaydi. Sabzavotlarning to‘yimliligi ular tarkibidagi uglevodlar, oqsillar, yog‘lar va boshqa moddalarning miqdori bilan aniqlanadi. Sabzavotlar tarkibi asosan suvdan (65-96%) iborat bo‘lib, quruq moddalar bodring, pomidor va tarvuzda – 4-7%, ildizmevalarda – 11-17%, faqat ko‘k no‘xatda – 20%, sarimsoq piyozda – 35% gacha bo‘ladi. Shuning uchun sabzavotlarning to‘yimlilik qiymati katta emas: bir kilogramm eng ko‘p iste’mol qilinadigan sabzavotlar 150-400 kkal yoki 600-1700 kJ quvvatga ega. Sabzavotlar oziq-ovqat sifatida organizmning energiyaga talablarini qondira olmaydi (insonning kundalik talabi 8-17 ming kJ yoki 2-4 ming kkal). Biroq ular qo‘shimcha karbon suvlari, oqsillar va moylar manbai bo‘lib xizmat qiladi. Shunga qaramasdan kishilarning hayotida sabzavotlarning ahamiyati juda kattadir. Ularning tarkibida ko‘plab miqdorda biologik aktiv moddalar: vitaminlar (darmondorilar), mineral tuzlar, fermentlar, organik kislotalar, efir moylar hamda xushbo‘y moddalar mavjud. Inson hayotida vitaminlarning roli katta, ular fiziologik zarur moddalar hisoblanadi. Uning nomi lotincha “vita” – bo‘lib, hayot degan ma’noni bildiradi. Kishining o‘rtacha faoliyati uchun 20 ga yaqin turli vitaminlar zarur hisoblanadi. Ular orasida ayniqsa, B1 (tiamin), B2 (riboflavin), C (askorbin kislota), A (retinol), shuningdek, E (tokoferol) vitaminlari eng zarurlaridir. Oziq-ovqat mahsulotlari orasida tarkibida vitaminlari ko‘pligi bo‘yicha sabzavotlar birinchi o‘rinni egallaydi va ularning asosiy manbai hisoblanadi. Sabzavotlar tarkibida 50 dan ortiq kimyoviy elementlar bor.

Ularda kul miqdori 0,1-2% ga etadi. Sabzavotlarda kishi organizmiga zarur va oson o‘zlashadigan tuzlar: natriy, kaliy, kaltsiy, fosfor, magniy, temir, marganets, xlor, yod, oltingugurtlar mavjud. Bu mineral moddalar ishqoriy xususiyatga ega bo‘lib, ovqat hazm bo‘lish jarayonida non, moy, go‘sht iste’molidan hosil bo‘ladigan va organizmga salbiy ta’sir qiladigan kislotali birikmalarni neytrallaydi hamda qonning ishqoriyligini doimiy bo‘lishini ta’minlaydi. Sabzavotlar tarkibidagi organik (ayniqsa olma, limon, vino, shovul) kislotalar, fermentlar, effir moylari va boshqa xushbo‘y moddalar kishi ishtahasini qo‘zg‘atib oqsillar, uglevodorodlar va moylarning so‘rilishini yaxshilaydi. Insonning ovqat hazm qilish a’zolari serhajm mahsulotlarga odatlangan. Ularni normal ishlashlari uchun ovqatlar tarkibida hazm bo‘lmaydigan chiqindi moddalar ham bo‘lishi lozim. Bunday moddalarni ham organizmga sabzavotlar yetkazadi.

Sabzavotlarning shifobaxsh xususiyati ham bizga qadimdan ma’lumdir. Ular asab qo‘zg‘alishini normallashtiradi va ruhiy holatlarni oldini olish imkonini beradi. Bir qator sabzavot o‘simliklari (piyoz, sarimsoqpiyoz, pomidor, qalampir, petrushka, turp) tarkibida bakteritsid (yemiruvchi) xususiyatiga ega bo‘lgan fitotsidlar mavjud. Ba’zi sabzavotlar (seldereylar va sarimsoqpiyozlar) quvvatni oshirish xususiyatiga ega. Bundan tashqari turli virusli kasalliklarni oldini olishda ham bu sabzavotlarning ahamiyati katta.Sog‘lom odamning oziq-ovqatida turli sabzavotlar miqdori sutkalik ratsionning 1/4 qismidan kam bo‘lmasligi lozim. Har kuni taxminan 300 g kartoshka va 400 g sabzavot iste’mol qilish zarur.

Ma’lumotlarga qaraganda aholi boshiga sabzavotlar iste’mol qilishning o‘rtacha yillik me’yori 146 kg, respublikalar va mintaqalararo 128 kg dan 164 kg gacha, jumladan: oqboshli karam – 32-50kg, gulkaram, bryussel va savoy karamlar – 3-5kg, pomidor – 25-32kg, poliz mahsulotlari – 20kg, qovoqcha va baqlajon – 2- 5kg, qalampir – 7-13kg, ko‘k no‘xot – 7-8kg, xushbo‘y sabzavotlar – 1-2kg, turli xil sabzavotlar 3-5 kg ni tashkil etishi kerak.Bundan ko‘rinadiki yildan-yilga aholi soni oshib borgani sari sabzavotlarga bo‘lgan ehtiyoj ham keskin ortib bormoqda. Bugungi kunda agrar sohani isloh qilish, qishloq xo‘jaligida bozor mexanizmlarini, zamonaviy innovatsion texnalogiyalarni joriy qilishning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish maqsadida jami **63 ta** hujjatlar, shundan **6 ta** O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **9 ta** Farmoni, **26 ta** qarori, Vazirlar Mahkamasining **42 ta** qarori qabul qilinib, islohotlarning huquqiy asoslari yanada takomillashtirildi. Qishloq xo‘jaligida yer munosabatlarini tartibga solish, oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish hamda sohani raqamlashtirish bo‘yicha qo‘shimcha vazifa, funksiya va vakolatlar vazirlikka o‘tkazildi.

Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, joriy yilda 22 mln tonnadan ortiq meva-sabzavotlar ishlab chiqarildi va o‘sish **106,1 foizni** (shu jumladan: dehqonchilikda 107,5%) tashkil etdi. Jumladan, 11,6 mln. t (111,4%) **sabzavotlar**, 3,3 mln t

(115,8%) **kartoshka**, 2,3 mln t (108,6%) **poliz**, 3 mln t (106,3%) **meva**, 1,8 mln. t(111,5%) **uzum**, shuningdek, 7,9 mln t (104,8%) **don va dukkakli** don ekinlari, qariyb 3,4 mln t (110%) paxta xomashyosi yetishtirildi.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tishim lozimki sabzavotlar inson organizmini yaxshi ishlashi,sog‘lomligini va organizmda moddalar almashinuvini bir me’yorda saqlashga xizmat qiladi.Insonlarning kundalik ratsionining asosiy qismi sabzavotlardir. Demak aholini sifatli oziq-ovqat bilan ta’minlash uchun uni yetishtirishda qo‘l mehnatini kamaytirib,yangi innovatsion texnalogiyalar orqali sabzavot yetishtirish ko‘rsatkichini bir necha barobarga oshirish lozim. Buning natijasida biz bozordagi tannarxni pasaytirib, har bir insonning o‘ziga kerakli mahsulotlarni sotib olishlari uchun imkoniyat yaratgan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://www.agro.uz/12-0000/(1-3-qatorlari)
2. “Sabzavotchilik va polizchilik” Zuev Vladimir Ilich, Qodirxo‘jaev Orif, Adilov Maxsud Mirvasitovich, Akramov Umidilla Ikramdjanovich Toshkent – 2010 (96-97-betlar)
3. ’’Meva –sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash,tarmoqda klaster va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi **“**Prezident qarori (PQ-52, 15.12.2021-y.)(3-bandning “b”kichik bandi)

INTERFAOL METODLAR DARSNING JON TOMIRI

Mohinur Saidovna Saidova
Xorazm viloyati Bog‘ot tumani
36-son maktabning o‘zbek tili fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6899772

Annotatsiya: Mazkur maqolada dars jarayonida interfaol metodlarning ahamiyati hamda o‘zbek tili darslarida qo‘llaniladigan ba’zi interfaol metodlar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, metod, so‘z, interfaol, zanjir metodi, tartibsiz so‘zlar metodi.

Dars – muqaddas. Buni har bir o‘qituvchi chuqur anglagan holda har bir darsiga alohida e’tibor va mas’uliyat bilan yondashmog‘i lozim. Shundagina o‘qituvchi o‘quvchilarga yangi bilim beribgina qolmasdan, ularning qalbida fanga bo‘lgan qiziqish uyg‘ota oladi. Buning uchun esa bugungi kunda mamlakatimizda barcha shart-sharoit va imkoniyatlar yetarli. O‘qituvchilardan esa yaratilgan imkoniyatlardan to‘laqonli foydalanishgina talab etiladi xolos.

Ma’lumki, bugungi kunda mamlakatimizda yosh avlodga, ularni har tomonlama komil insonlar qilib tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunda esa, albatta, ta’lim muassasalarining, ayniqsa, maktablarning roli va ahamiyati nihoyatda katta. Shuning uchun ham mamlakatimiz ta’lim tizimida tub islohotlar amalga oshirilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda.

Darhaqiqat, bugungi ta’lim jarayonini interfaol usullarsiz tasavvur etish qiyin. Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan interfaol usullar muayyan guruhlarda o‘qitiladigan o‘quv fanining bosh maqsadiga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Aks holda, qo‘llanilgan interfaol usul hech qanday ahamiyatga ega bo‘lmay qoladi. O‘qituvchi tanlagan usul dars davomida bolaning faolligini, kattalar va tengdoshlari bilan to‘g‘ri muloqot qila olishini ta’minlashi, tilda mavjud, biroq o‘quvchi uchun notanish bo‘lgan yangi so‘z va iboralarning mazmunini anglash, eslab qolishga, muloqot jarayonida qo‘llashga harakat qilish ko‘nikmalarini shakllantirishi zarur. Interfaol usullardan foydalanilgan holda o‘tilgan darslar o‘quvchilarni ijobiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrni erkin bayon qilishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga chorlaydi

O‘zbek tili ta’limi jarayonida bir qancha interfaol metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Quyida o‘bek tili darslarida qo‘llaniladigan ayrim interfaol metodlar haqida to‘xtalib o‘tamiz.

“Zanjir” metodi. Guruh to‘rtga bo‘linib, har bir guruhdan 1 o‘quvchi doska oldiga chiqariladi. 1 o‘quvchi fanga tegishli atamani aytadi. Keyingi o‘quvchi oldingi o‘quvchi aytganini va o‘zinikini qo‘shib aytadi. Undan keyingisi oldingi 2 o‘quvchi aytgan atamalarga yana o‘zi yangisini qo‘shib aytadi. O‘yin shu tariqa davom etadi, adashgan o‘quvchi o‘yindan chiqadi, eng oxiri o‘yindan chiqib ketmay qolgan o‘quvchi rag‘batlantiriladi. O‘yin xotirani mustahkamlashga juda qo‘l keladi.

Namuna:

1-o‘quvchi: ot.

2-o‘quvchi: ot, sifat.

1-o‘quvchi: ot, sifat, son.

2-o‘quvchi: ot, sifat, son, olmosh.

O‘yin shu tartibda davom qildiriladi.

“Tartibsiz so‘zlar” metodi. Ushbu metoddan o‘zbek tili darslarida bemalol foydalanish mumkin. Ushbu metodda o‘quvchilarga doska yoki plakatga yozilgan holda tarkibidagi harflarning o‘rni noto‘g‘ri joylashtirilgan so‘zlar taqdim qilinadi. Bu so‘zlar ona tili va adabiyot darslarida ishlatiladigan terminlardan iborat bo‘lishi mumkin. O‘quvchilar so‘zlardagi harflarning o‘rnini to‘gri qo‘yib, terminni topishlari kerak bo‘ladi. Bu metod o‘quvchilarni zukkolikka va topqirlikka undaydi. Shuningdek, ulardan fan terminlarni ham yaxshi bilishni talab qiladi.

Namuna: age – ega, liekishk – kelishik**,** g‘ibo‘n – bo‘g‘in**,** linu – unli.

“Zinama-zina”metodi faqat alohida darslar uchungina ahamiyatli emas. Undan istalgan darsda yoki istagan fanni o‘qitishda foydalanish mumkin. O‘yin o‘quvchilarni hozirjavoblikka, tezkorlikka, ziyraklikka, mushohada yuritishga, ijodkorlikka o‘rgatadi. Bu metodni quyidagicha amalga oshirish mumkin.

Sinfdagi o‘quvchilar 3 guruhga bo‘linadi. Har bir guruhning oxirida o‘tirgan o‘quvchilarga A, B, C, D, E harflari yozilgan javob varaqlari beriladi. O‘qituvchi test savollari va javoblarni A, B, C, D, E variantlarida o‘qiydi. Oxirgi o‘rindagi o‘quvchilar berilgan testning to‘g‘ri javobini quyidagi shartli belgilar asosida ko‘rsatadi. Masalan, quyidagi test savolini keltiraylik. Tushum kelishigi qo‘shimchasi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

Javob: A) -ni

B) -ning

C) -ga

D) -da

E) -dan

Ushbu test savoli o‘qilishi bilan o‘quvchilar A harfining tasviri tushirilgan varaqni ko‘rsatadi.

O‘quvchilarning qaysi biri tezlik bilan to‘g‘ri javobni ko‘rsata olsa, yonidagi sherigiga javob varaqalarini beradi. To‘g‘ri javobni ko‘rsata olmagan o‘quvchi yonidagi sherigiga javob varaqalarini bermaydi.

To‘g‘ri javobni ko‘rsatgan guruh bir zina yuqoriga ko‘tariladi. O‘qituvchi keyingi savolni o‘qiydi. Yana yuqoridagi holat qaytariladi. Savolning to‘g‘ri javobini ko‘rsatgandagina, javob varaqalarini yonidagi sherigiga uzatadi.

O‘quvchilardagi faollik, tezkorlik guruhiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Agar o‘quvchilar to‘g‘ri javobni ko‘rsata olmasa, guruh zinaning quyi pog‘onalarida qoladi. Javob varaqalari o‘quvchilar qo‘lidan bir-biriga o‘tib, oldingi qatordagi o‘quvchilarga yetib keladi va o‘sha guruh g‘olib bo‘ladi.

Test savoliga zudlik bilan javob ko‘rsata olmagan o‘quvchiga past baho qo‘yiladi. Buni o‘quvchining o‘zi ham bilib turadi. Eng asosiysi, o‘quvchi har bir javobni ko‘rsatishi orqali o‘z bilimiga baho qo‘yib boradi.

“Zinama-zina” metodi o‘quvchilarning bilimi, topqirligini oshiradi, xotirasini mustahkamlaydi. O‘yinga bo‘lgan qiziqish natijasida o‘quvchilarda diqqat-e’tibor, idrok ortadi.

“Chigil yozdi” metodi. Dars boshlanishida bu usul darsga o‘quvchilarni ruhiy tayyorlash va dars davomida o‘quvchilar diqqatini mashg‘ulotning keyingi bosqichiga tayyorlash uchun qo‘llaniladi. O‘qituvchi she’rlardan parcha aytishi, hazil savollar berishi, fonetik mashqlar bajarishi, ko‘pincha qiziqarli o‘yin tashkil etishi mumkin.

Xullas o‘zbek tili darslarida bir qator interfaol usullardan samarali foydalanish mumkin. Bunda asosiy e‘tibor o‘quvchilarning tafakkurini o‘stirish, ularning mustaqil ishlash mahoratini oshirishga qaratilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Yo‘ldoshev, R.Xusainova, U.Bobojonova. Ta’limning interfaol metodlari(metodik qo‘llanma). Urganch-2011.

2. Sobirova M.R. O‘zbek tili darslarida interfaol usullardan foydalanish Молодой ученый. – 2020. - № 14 (304).

3. www.ziyo.uz.

AMARANTH LOCAL CLIMATE SUPERVISION AUTHORITY UZBEKISTAN CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT AND DEVELOPMENT OF PHENOLOGICAL RESEARCH

A.S. Fatuxullaev, candidate of technical sciences; **Sh.A.Ishniyazova** candidate of Chemical Sciences; **S.U.Khalilova** TSAU 1-course base doctoral student;
Z.A.Jabborova, TSAU 2 Course Graduate
https://doi.org/10.5281/zenodo.6899788

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ayni davrda insoniyat tarixidagi eng ko‘p yoshlar qatlami bilan yashayotganimizni inobatga olgan holda BMT minbarida “Yoshlar huquqlari to‘g‘risida” gi BMT konvensiyasini qabul qilish taklifi ilgari surilgani ham xalqaro hamjamiyat tomonidan iliq qarshilandi. O‘zbekiston rahbari bunga asos qilib, bugun dunyo miqyosida yoshlarning soni ikki milliarddan ortib ketgani, xalqaro terrorizm va ekstremizm shiddat bilan o‘sib borayotgan bir paytda yoshlarga himoya zarurligini muhim omillar sifatida asoslab berdi.

Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati – 2016-yil 14-sentabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonun ekanida ham ramziy mazmun-mohiyat mujassam. Binobarin, aholisining yarmidan ko‘prog‘i yoshlardan iborat bo‘lgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, o‘z qat’iy pozitsiyasiga ega, yurtda amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo‘lmagan, yurtning ertangi munosib kelajagi

uchun daxldorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, serg‘ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash O‘zbekistonni dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan o‘rin olishining muhim omili ekanini mamlakat rahbari va hukumat yaxshi anglaydi va buning eng yaxshi va samarali yo‘li ma’rifat, bilim orqali amalga oshirilishi eng samarali usul sifatida qabul qilindi.

Yurtimizda kitobxonlik masalasiga yondoshuv turli davrlarda turlicha bo‘lgan. Har bir davrning o‘z ehtiyojidan kelib chiqib, kitobxonlik darajasi belgilangan. Binobarin, har qanday davlatning kuch-qudrati o‘z fuqarolarining ongliligi bilan belgilanar ekan, bunda albatta kitobxonlik masalasiga alohida e'tibor berilgan. Bugungi kunda “Mutolaa madaniyati”, “Kitobxonlik madaniyati” kabi atamalar xalqimizga tanish va odat tusiga kirgan.

2017-yil 13-sentabrda qabul qilingan PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida” gi Preziden Qarorining qabul qilinishi ham yurtimizda kitobga bo‘lgan e’tibor, kitobxonlik madaniyatiniung qay darajada shakllanganligiga yaqqol misol bo‘la oladi. Bundan tashqari Prezidentimiz tashabbusi bilan ishlab chiqilgan “Beshta muhim tashabbus” ning to‘rtinchisi “Kitobxonlik madaniyatini oshirish” yo‘nalishi ham talabalarda kitobga bo‘lgan hurmat, qiziqishning oshishiga sabab bo‘lmoqda.

Bu qaror doirasida ko‘plab ishlar amalga oshirildi: “Yoshlarning ma’naviy olamini shakllantirishda kutubxonalar o‘rni”, “O‘zbek milliy-madaniy merosini targ‘ib etishda kutubxonalarning o‘rni” mavzularida ilmiy-amaliy anjumanlar, “Kitob bayrami”, “Bolalar kitobi” respublika festivali, “Yoshlarning eng sevimli kitobi”, “Yilning eng yaxshi kitobi” respublika ko‘rik-tanlovlarini o‘tkazish hamda Zulfiya nomidagi davlat mukofotining adabiyot yo‘nalishi bo‘yicha sovrindorlarining ijod namunalarini targ‘ib qilish, “Yosh kitobxon” Respublika tanlovi, bundan tashqari “Kitobxon o‘qituvchi”, “Kitobxon Oliy o‘quv yurti” singari ko‘plab tanlovlar orqali nafaqat talaba, balki o‘qituvchi, murabbiy jamiki aholining kitobga bo‘lgan mehrini oshirishga erishilmoqda. Bundan tashqari

Professor E.I.Yo‘ldoshev «O‘qish madaniyati» tushunchasiga shunday ta’rif beradi: «O‘qish madaniyati - juda keng qamrovli tushuncha bo‘lib, kitobga qiziqish va uni sevish, adabiyot bilan kengroq tanishishni, kitob va u bilan ishlash haqidagi maxsus bilimlarga ega bo‘lishni, shuningdek, kitobdan to‘la ravishda foydalanishga yordam beruvchi ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishni taqozo etadi» [Yoshlarning axloq madaniyati.-T: O‘qituvchi, 1988]

Oliy o‘quv yurtida talabalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda quyidagi asosiy jihatlarga e’tibor qaratish lozim:

- axborot olish madaniyati badiiy adabiyotni to‘g‘ri tushunish, undan estetik zavq olish;

- ilmiy adabiyotlar, barcha turdagi resurslar bilan ishlash, ma'lumot-bibliografiya va barcha turdagi axborot materiallaridan o‘zini qiziqtirgan ma’lumotlarni qidirib topish, cheksiz axborot oqimlari orasidan kerakli, muhim bo‘lgan ma’lumotlarni ola bilish ko‘nikmasini shakllantirish;
- axborot-kutubxona muassasasidan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatish;
- O‘qishga, axborot olishga mayl, havas, ishtiyoqni shakllantirish;
- O‘qilgan kitob orqali fikrlash yo‘llarini o‘rgatish;
- Kutubxonalarga, yozuvchi-shoirlar uy-muzeylariga sayohatlar uyishtirish;
- Turli xil tanlovlar va tadbirlar o‘tkazish;
- Badiiy asar asosida sahnalashtirilgan spektakllar va filmlarni tomosha qilish;
- Kitobning faqat qog‘oz variantidan emas, audio kitob shaklidan ham foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Kitobxonlik madaniyati haqida Safo Matchon: «Kitobxonlik - o‘qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki u tushunib o‘qish, ya’ni maqsadli o‘qishdir. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, kitobxonning yozuvchi aytmoqchi bo‘lgan fikrini nechog‘li uqishini, ya’ni asar «tili»ga tushunishi kitobxonlik madaniyati, talanti darajasi ko‘rsatadi. Shu tufayli adabiyotimiz talantli yozuvchilar bilan birga talantli kitobxonlarga ham hamisha ehtiyoj sezadi»,-deya ta’rif beradi. Uning fikricha kitobxonlik talanti tug‘ma emas, balki tarbiya vositasida kamol topadi. Shunday ekan, ta’limda o‘qitish, o‘qish, rivojlanish mujassam amalga oshiriladigan jarayondir.

Ta'lim jarayonining mazmunini tashkil qiluvchi bilim, ko‘nikma va malakalar faqatgina sinfda o‘qitiladigan darslarda shakllanib qolmasdan, balki sinfdan tashqari, aniqrog‘i axborot-kutubxona muassasalarida mustaqil tarzda shug‘ullanish orqali egallanadi.

Axborot olish, u bilan ishlashning asosiy usullari haqida ma’lumot berish axborot-kutubxonachilik darslarining asosini tashkil etadi. Ushbu darslarda axborot bilan ishlash, kitob bilan tanishish, kitobni bevosita o‘qish, eng muhimi, uni uqish, o‘rganish malakalari singdirib borilishi lozim. Shuningdek, elektron kutubxonadan foydalanish, elektron kataloglar, ma’lumotlar bazalari haqida axborotga ega bo‘lish, ulardan foydalanishni o‘rganish kabilar kiradi. Axborot-kutubxonachilik darslarini qay tarzda tashkil etish mumkin, degan savolga ham javob berib o‘tish lozim. Axborot-kutubxonachilik darslarini o‘tkazish uchun sinfdan tashqari darslar va tarbiyaviy soatlardan alohida soatlar ajratib olish mumkin. Dars jadvali tuzishda asosan sinflar soni, nazariy va amaliy dars soatlari, o‘qituvchi va kutubxonachi o‘tkazadigan soatlar, darsni o‘tkazish joyini, ya'ni sinfda yoki axborot-kutubxona muassasasida o‘tkazilishini aniqab olish zarur.

Ayni paytda bir necha tashkiliy masalalarni ham hal etish zarur. Bizningcha, hozirgi kun talablaridan kelib chiqqan holda talabalarda axborot olish madaniyatini tarbiyalashning o‘ta muhimligini hisobga olib axborot-kutubxonachilik darslarini

ommalashtirish, yo‘lga qo‘yish zarur. Avvalo, buning uchun masalaning tashkiliy jihatini hal etish, ya’ni axborot-kutubxonachilik darslarini yo‘lga qo‘yish yuzasidan Oliy o‘quv yurtining buyrug‘ini qabul qilish, shu buyruqqa asosan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari va axborot-kutubxona muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish, axborot-kutubxonachilik darslarini tashkil etish va o‘tkazishning aniq shakllarini ishlab chiqish zarur.

Ta’lim muassasasida talabalarning axborot olish madaniyatini tarbiyalash masalasini hal qilish faqat ta’lim-tarbiya jarayoniga aloqador bo‘lmasdan, balki jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi, ma’naviy yuksalishi bilan bog‘liq, davlatning strategik maqsadlariga xizmat qiluvchi faoliyatiga ham daxldordir. Oliy o‘quv yurtida axborot olish madaniyatini tarbiyalash masalasi borasida quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

- Talabalarning axborot olish madaniyatini tarbiyalash masalasi ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy, umummilliy muammo hisoblanadi. Bu ma'lum davr bilan chegaralanadigan hodisa bo‘lmasdan, inson umr bo‘yi o‘rganadigan ma'naviy ehtiyojdir.

- Axborot olish madaniyatini tarbiyalaydigan asosiy joy - axborot-kutubxonalardir. Axborot-kutubxona muassasalari o‘z imkoniyatlari bilan nafaqat Oliy o‘quv yurti dasturlarining, Davlat ta'lim standartlarining bajarilishida, balki mustaqil ta'lim olish sari yo‘llaydi.

- Axborot olish madaniyatini tarbiyalashda Oliy o‘quv yurti-oila-kutubxona hamkorligini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyatga ega.

- Kitobxonnning oilaviy sharoiti, oilada axborot-kutubxona muassasasining bor-yo‘qligi, bolaning yosh xususiyatlari va psixologik tayyorgarlik darajasini o‘rganish;

O‘smirlar ma'naviyati rivojlanib boruvchi faol jarayon. Shu sababli ota-ona kitobdan foydalanishda quyidagi omillarga e'tibor berishlari lozim:

1. Bolalarda kitob o‘qish ishtiyoqini shakllantirish. Bu jarayon murakkab bo‘lib bugungi kunda axborot texnologiyalari, internet rivojlangan davrda yoshlarning kitobxonlik darajasi qoniqarli emas. Bu ijtimoiy muammodan chiqib ketishning yagona yo‘li ota-onaning yordamga kelishidir. Oliy o‘quv yurtida o‘qituvchi, uyda ota-ona bolada kitob o‘qish ko‘nikmasini hosil qilishi kerak.

2. Kitob tanlashda o‘smirning ma'naviy darajasini hisobga olish lozim. Ota-onaning o‘smirda kitob o‘qish ko‘nikmasini hosil qilishdagi ilk vazifasi kitob tanlashda yordam berishdir. Ularning saviyasiga mos bo‘lgan adabiyotlarni keng targ‘ib qilish o‘smirlarni jamiyatning munosib fuqarosi, mustaqil davlatimizning yetuk, barkamol insonlari bo‘lib etishishi uchun va ma'naviyatining yuksakligi bilan oilasiga va jamiyatga foyda keltirishga olib keladi. Buning uchun oilada kitobxonlik ruhi bo‘lishi kerak.

3. Kitob o‘qishni kuzatib, nazorat qilib borish. Bugun ota-onalar tarbiya jarayonining natijasi bo‘lgan kitobxonlik bilan ko‘proq qiziqishi kerak. Shu ma'noda o‘smirlar kitobxonligini monitoring kilib borish maqsadga etishning samarali jihatlaridan biridir.

Bundan tashqari yurtimiz yoshlarining bilimli, ma’rifatli bo‘lishi uchun kitob o‘qish va kitobxonlik madaniyatini shakllantirish borasida ham qator ishlar qilinmoqda. Jumladan, “Yosh kitobxon”, “Kitobxon oila”, “Navoiy g‘azallari bilimdoni” kabi qator tanlovlar tashkil qilingan bo‘lib, aholining bilimli, ma’rifatli bo‘lishiga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekistonni bilimli, ma’rifatli yoshlar bilan qurishda kitobxonlikning o‘rni va roli nihoyatda katta. Zero, xalqimizning kitobni e'zozlab ardoqlagani, ehtiyotlab tokchalarda asragani, bo‘sh vaqtlarini kitob mutolaasi bilan o‘tkazganlari kitobga naqadar mehr-muhabbat qo‘yganlarning isbotidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yoshlarning axloq madaniyati.-T: O‘qituvchi, 1988.
2. “Turkiy guliston yoxud axloq” asari A. Avloniy. www.ziyonet.uz.
3. www.ziyonet.uz.

АЛЛЕРГИК КАСАЛЛИКЛАРНИНГ ТАРҚАЛГАНЛИГИ ТУРЛАРИ ВА ОЛДИНИ ОЛИШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ

Гулзода Адхамовна Мухидинова
Махфуза Анваровна Балтаева
Олмазор тумани 261-сонли мактаб ўқитувчилари
https://doi.org/10.5281/zenodo.6908542

Аннотация: Ушбу мақолада аллергик касалликларнинг келиб чиқиши, турлари ва олдини олиш чора-тадбирлари ёритилган.
Калит сўзлар: Аллергия, ринит, касалланиш, экзоаллергенлар, эндоаллергенлар, олдини олиш чоралари.

Аллергия - юнонча "аллос" бегона ва "эрго" - таъсир сўзларидан келиб чиққан бўлиб, у организмнинг бегона, ёт моддаларга ўзгача таъсир қилиш қобилиятини англатади [2,4,7].

Дунёда аллергик касалликлар шаклланиши ва тарқалишига ташқи муҳит омилларининг таъсири, янгидан-янги аллергенларнинг пайдо бўлиши, микроэкологиянинг (ичаклар, тери, шиллиқ қаватлар флорасининг) бузилиши, стресс сабаб бўлмоқда. Энг кўп тарқалган этиологик муҳим аллергенлар ичида ўсимликлар чанги алоҳида аҳамиятга эга бўлиб, ҳозирги кунда уларнинг 700 дан ортиқ тури аниқланган [1,3]. Аллергик касалликлар гетерогенлиги, ирсий омилларнинг ҳамда ташқи муҳит омилларининг ўзаро таъсири оқибатида аллергенлар спектри кенгайиб бормоқда.

Аллергик ринит дунё бўйича кенг тарқалган бўлиб, ҳозирги ушбу касалликдан аҳолининг 30% - 50% азият чекмоқда. Ушбу патологиянинг ривожланишида тиббий-биологик ва санитар-гигиеник омилларнинг таъсири билан бир қаторда атроф муҳит омилларининг таъсири ҳам муҳим ўрин тутади. Атмосфера ҳавосининг ифлосланиши аллергик ринитнинг келиб ривожланишига ва қайталанишига сабаб бўлиши олимларнинг тадқиқот ишлари натижалари бўйича тасдиқланмоқда [3,5].

ЖССТ нинг маълумотларига кўра аллергик касалликлар ер юзи аҳолисининг 30 фоизини ташкил қилиши ва турли мамлакатларда касалланиш даражаси бир-биридан анча фарқ қилиши аниқланган. Аллергик касалликлар ўсма касаллигига нисбатан 30 марта, ревматизмга нисбатан 2000 марта кўп тарқалган [2,4].

Нафас йўлларининг аллергик касалликлари тарқалишига иқлимнинг ўзига хос хусусияти ва географик шароитлар таъсир кўрсатади. Масалан, Шимолий Америка эскимослари орасида бронхиал астма жуда кам ҳолларда бирта-иккита

аниқланган бўлса, бир вақтнинг ўзида АҚШ да катта ёшдаги аҳолининг 5 фоизи бу касалик билан азобланадилар. Болтиқ бўйи аҳолиси орасида бронхиал астма билан касалланиш кўрсаткичи ҳар 1000 кишига 8 та тўғри келса, Шимолиий Кавказ тоғларида эса бу касаллик умуман қайд этилмаган.

Америка Қўшма Штатларида 20 млн киши поллиноз билан, 9 млн киши бронхиал астма билан ва яна шунча киши қаварчиқлар ва Квинке шиши билан касалланганлар. Финландияда 20 фоиз аҳолида, Швейцарияда 8,4 фоиз аҳолида аллергия аниқланган. Қишлоқ ва шаҳар аҳолиси орасида касаллик тарқалиш кўрсаткичи бир хил эмас. Масалан, Санкт-Петербургнинг шаҳар чеккасида яшайдиган аҳолиси орасида респиратор аллергик касалликлари шаҳар марказига қараганда 1,5 марта кам учрайди [4,5].

Республика ва вилоят даволаш муассасаларига мурожаат қилган беморлар орасида шаҳар аҳолиси қишлоқ аҳолисига нисбатан 10 марта кўп. Бу ерда экология ҳам катта аҳамият касб этади. Бир республиканинг турли қисмларида аллергик касалликлар тарқалиши бир текис эмас. қозоғистоннинг жанубий минтақаларида поллиноз 10-15 фоиз аҳолида кузатилган бўлса, шимолида эса аҳолининг фақат I фоизида қайд этилган.

Атмосфера ҳавоси юқори даражади ифлосланган минтақаларда (масалан, металлни қайта ишлаш, цемент чиқариш корхоналари, иссиқлик электор станциялари яқинида жойлашган районларда) аллергик касалликлар билан даволаш муассасаларига мурожаат қилган беморлар сони тоза ҳаволи ҳудудларга қараганда 8-10 марта кўпроқ. Шундай ҳолатни ҳатто бир шаҳарнинг ўзида ҳам кўриш мумкин. Грузиянинг айрим районларида аллергик касалликлар билан касалланган беморлар сони 1000 кишига 11,4 кишини ташкил қилади, Краснодар ўлкаларида эса 233,8 та, яъни 20 марта кўпроқ. Албатта, бу ерда географик иқлим ва экологик омилларнинг ҳам таъсири бўлади [4].

Ҳозирги вақтда аллерген бўлиши мумкин бўлган мингдан ортиқ турли моддалар аниқланган. Улар иккита катта гуруҳга бўлинади: экзоаллергенлар ва эндоаллергенлар.

I. Экзоаллергенлар - инсонни ўраб турган муҳитда яшайди ва ўз навбатида улар ҳам қатор кичик гуруҳларни ташкил қилади:

1. Озиқ-овқат аллергенлари 2 гуруҳга бўлинади: Биринчиси — шартсиз (облигат) аллергенлар: цитрус мевалар, шоколад, кофе, асал, мевалар, ёнғоқлар, тухум, балиқлар, сут, товуқ гўшти; иккинчи — шартли (факультатив) гуруҳ бўлган: олма, сабзи, картошка, ун ва бошқалар.

2. Уй-рўзғордаги аллергенлар. Биринчи навбатда бу уй чанги, у мураккаб антиген таркибга эга. Унинг энг асосий аллергенни майда уй каначалари дерматофагоидес тури ҳисобланади. ўрта Осиёда уй чанги фаунасида 28 дан

ортиқ кана турлари аниқланган. Аллергия билан касалланган бемор бор хонадонлардаги уй чангида соғлом одам яшайдиган хонадонга нисбатан каналар 3 марта кўпроқ учрайди. Каналарнинг кўпайиши учун қулай омиллардан бири бу ўрин-кўрпада намликнинг ортишидир. Уларнинг энг фаоллашган даври эрта тонгда қайд этилади. Уй чанги каналарининг 41 та антигенлари аллерген хусусиятига эга бўлиб чиқди. Уй чанги ҳайвон, ўсимлик ва микроблардан келиб чиққан моддаларни ўз ичига олади. Булар: жун, шойи, замбуруғлар. Балиқлар учун қуруқ емиш ҳисобланган дафния ҳам юқори аллерген фаолликка эга. Уй-рўзғор аллергенларига кутубхона чанги, ёстиқларга солинган парранда патлари ҳам киради.

3. Эпидермал аллергенлар (турли ҳайвонларнинг жуни, от қайзғоғи). Эпидермал аллергенларга нисбатан сезувчанлик кўпинча тез содир бўладиган реакциялар типида ва одатда озиқ-овқат ва уй-рўзғор аллергиялари билан биргаликда кечади.

Болаларда бу касаллик 20 фойиз ҳолатларда респиратор аллергоз типида ўтади.

4. Бактериал аллергенлар (кўпроқ шартли патоген микроблар - стрептококклар ва бошқалар). Сезувчанлик одатда тишларда, бодомча безларда, ичакларда, жигарда, бронх-ўпка йўлларида сурункали инфекция ўчоғи бўлган ҳолларда ривожланади. Бунда касалликнинг инфекцион-аллергик тури аниқланади: астма, ринит, қаварчиқ ва Квинке шиши.

5. Замбуруғли аллергенлар (моғор замбуруғларининг ва ачитқи замбуруғларининг споралари). Асосан патоген бўлмаган замбуруғлар тури.

6. Вирусли аллергенлар (ҳужайра протоплазмаси билан олдиндан бириккан вирус).

7. Дори модда аллергенлари (антибиотиклар, витаминларнинг В гуруҳи, сульфаниламидлар ва бошқалар). Дори модда аллергенлари тўла қимматли антигенлар, (АКТГ, инсулин) ёки гаптенлар бўлиб, улар қон оқсили билан бирикканидан сўнг махсус антитело ишлаб чиқара бошлайди. Турли хил дориларнинг антиген-детерминантлари умуий бўлиши мумкин, яъни ҳар хил дори молекулаларнинг айрим қисмларига нисбатан организмда бир хил антитело ҳосил бўлади. Шунинг учун бир дори моддасига сезувчанлик бошқа дорига ҳам кесишган аллергик реакцияларни келтириб чиқариши мумкин. Бунга мисол қилиб новокаин билан сульфаниламидларни олиш мумкин.

8. Гельминтли аллергенлар (гижжалар ва уларнинг заҳарлари).

9. Инсект аллергенлар (асалари заҳри, чивинлар, ҳашаротлар устки қобиғи қолдиқлари).

10. Саноат ва касбга оид аллергенлар. Кўпинча улар гаптенлар ҳисобланиб, фақатгина қон оқсиллари билан бириккандан кейингина тўла

қимматли аллергенларга айланади. Уларга оғир металларнинг тузлари (никель, хром, молибден, платина), эпоксид қатрон бўёқлар, дубил моддалар, аминобензол, гидрохинон ҳосилалари, уй-рўзғордаги кир ювиш кукунлари киради.

11. Ўсимлик гули чанглари аллергенлари (хас-хашаклар, бошоқли ғалла ўсимликлари ва айрим бутасимон ўсимликлар гули чанглари). Бир қатор аллергенлар (тимофеевка чангчаси) 30 тагача антигенни ўзида сақлайди, аммо улардан 12 тасигина антигенлик хусусиятига эга. Уларни тайёрлашда муқим суюқлик сифатида Твин-80 суюқлигидан фойдаланилади.

II Эндоаллергенлар. Улар соғлом инсон организмида доимо жойлашган, лекин қалин қобиққа ўралган бўлади, умумий қон оқимига тушмайди. Шунинг учун фақат уларни бошқа тўқималардан ажратиб турувчи тўсиқлар бузилгандагина ўз таъсирини намоён қилади. Улардан энг асосийлари: қалқонсимон безнинг тиреоглобулини, мускул толаларидаги миелин, кўз гавҳари оқсили, нерв ўтказувчи толалар оқсили, сперма (уруғ суюқлиги).

Аллергенларнинг бошқа таснифлари ҳам мавжуд. А.Д.Адо ва А.А.Польнер (1963) аллергенларни 2 та катта гуруҳга бўладилар:

а) ноинфекцион экзоаллергенлар: (уй-рўзғор аллергенлари, ўсимлик чанглари, дори моддалар).

б) инфекцион экзоаллергенлар (бактериялар, замбуруғлар, вирусли аллерген-лар).

Аллергик касалликларда олдини олиш чора - тадбирларининг ахамияти катта эканлигини ҳисобга олиб, бутун дунё соғлиқни сақлаш ташкилоти махсус соғломлаштириш-тикланиш комплексини ишлаб чиқишга алохида эътибор қаратди.

Нафас йўллари аллергик касалликларини олдини олиш усулларига касаллик олди даврида ишлаб чиқаришдаги зарарли омилларга қарши курашиш, профилактик кўриклар ўтказиш, касаллик хуружини олдини олиш ва даволашлар киради. Аллергик касалликларни олдини олиш чора-тадбирлари ҳар томонлама бўлиши керак, улар бирламчи ва иккиламчи тадбирларга бўлинади. Бирламчи чора-тадбирларга, асосан атроф-муҳитни яхшилашга қаратилган ижтимоий умум- давлат чора-тадбирларини ишлаб-чиқариш, яшаш шароити ва меҳнат шароитини қулайлаштириш, ишлаб чиқаришдаги касбга оид зарарли омилларга қарши курашиш киради. Бунга яна тиббий (диспансер кўриги) ва алоҳида хусусий тадбирлар (чекишни ташлаш) ҳам киради. Иккиламчи чора-тадбирларга булар беморларни шифохоналарда, поликлиникаларда, тиббий санитар қисмларида, санаторияларда даволаш ва соғлиғини тиклаш, аллергологик кузатиш усулларини ташкил қилиш киради.

Поллинозни олдини олиш учун шаҳарда бегона ўтларни йўқ қилиш катта аҳамиятга эга. Атопик касалликлари бор беморлар хонадонидан ортиқча юмшоқ жиҳозлар, гиламлар ва бошқа чанг йиғувчиларни чиқариб ташлаш лозим. Хоналарни фақат намланган усулда тозалаш ва рўзғорда ҳавони намлайдиган асбоблардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

Аллергиянинг инфекцияга оид турларида инфекция ўчоқларини ўз вақтида даволаш-тозалаш (тонзиллит, синусит) керак. Озиқ-овқат маҳсулотларига аллергияси бўлган беморларнинг кундалик овқат махсулотларидан аллергенларни (шоколад, цитрус мевалар) истисно қилиш. Аллергик касалликлари бўлган барча беморларга уй-рўзғорда ишлатиладиган кимёвий моддалардан фойдаланиш ман этилади. Организмни чиниқтириш ва унчалик оғир бўлмаган жисмоний меҳнат билан шуғулланиш ҳам аллергик касалликларни олдини олишда муҳим ўрин тутади. Аллергик касалликлари бўлган беморларга спортнинг айрим турлари — енгил атлетика, сузиш, теннис ўйнаш машғулотлари билан шуғулланиш тавсия этилади. Аллергик касалликларини олдини олишда касбни тўғри танлаш ҳам жиддий аҳамиятга эга. Каналарга сезувчанлик ортиши билан юзага келган бронхиал астма касаллигини олдини олиш учун кўрпа-тўшакларни қуёш нурларида нурлантириш тавсия қилинади. Кундузги вақтда 2 соат давомида нурлантириш каналарни бутунлай қирилиб, йўқ бўлишига олиб келди. Ўрин-кўрпаларга 5 фоизли борат кислота ёки 5 фоизли туз эритмаси билан ишлов беришда ҳам ижобий натижалар олинди. Бунда 80 фоизли каналар қирилиб, йўқ бўлди. Болаларда аллергик касалликларини олдини олиш чора-тадбирларига: туғиш ёшидаги аёлларнинг соғлиқларини яхшилаш, хомиладор аёлларда бола ривожланаётган ва туғилгандан кейинги даврларда антигендан эхтиётлаш чораларини кўриш, овқатланиш режимига ва турларига эътибор бериш киради. Янги туғилган болалардан аллергик касаллик хавфи бўлган гуруҳни ажратиб олиш. Бу мақсадда ота-онаси қонидаги Е иммуноглобулинлар миқдори аниқланади. Онанинг кундалик озиқ-овқат маҳсулотларидан шартсиз аллергенларни чиқариб ташлаш. Аллергик касалликлари бўлган болалар қўшимча овқатларига шарбатларни кечроқ киритиш тавсия қилинади. Бундан болаларни эмлаш ишлари алоҳида режим бўйича, гистаминга қарши препаратлар таъсири остида қилинади.

Аллергик касалликларини олдини олиш омилларидан бири - махсус гипосенсибилизация ҳисобланади. Ўз вақтида ўтказилган иммунотерапия касалликни хуружини олдини олади.

Беморларни соғлигини кузатиб бориш усули (диспансеризация) санатор-курорт шароитида даволаш ҳам олдини олиш чора-тадбирларининг энг самарали усуллари хисобланади. Бунда курорт жойларнинг географик иқлим

шароити, қулай ҳарорат, ўртача намлик, қуёш нурлари жуда ҳам юқори қиздирмайдиган шароитлари, атмосфера ҳавосида полютантлар, муаллақ ҳолда турувчи бирикмалар бўлмаслиги етакчи ўрин тутади.

Адабиётлар:

1. Баялиева А.Ж. и др. Клинические рекомендации по реанимации и интенсивной терапии анафилактического шока, Россия. 2015, 23 с.
2. Волосовец А.П., Кривопустов С.П., Мозкрская Е.В., Кривопустова М.В. Белок профилин как клинически значимый аллерген в развитии синдрома пқльцевой и пиўевой аллергии Здоровье ребенка. 2019.-Т.-14. №.7.-С.434-443
3. Дранник Г.Н. Клиническая иммунология и аллергология М., ООО «Медицинское информационное агенство», 2003, с.392
4. Назаров О.А., Назаров Ж.А., Низомов Қ.Ф., Ўқув қўлланма //Клиник аллергология / Тошкент 2015 198 б.
5. Руководство для практических врачей Клиническая аллергология под ред. акад. РАМН, проф. Р.М. Хаитова. Изд-во «Медпресс-информ» 2002, 623 с.
6. Хутуева С.Х., Федосеева В.Н. «Аллергенспецифическая иммунотерапия бронхиальной астмм» М., 2000, 249 с.
7. Jaeger D., Kleinkhans D., Czuppon A. B., Baur X. La- texspecific proteins causing immediate-type cutaneous, nazal, bronchial, end systemic reactions. Journal of Allergy and Clinical Immunology, 2009, Vol. 89, pp. 759-768.

AYRIM HARAKATGA DOIR MASALALARNI YECHISH

Farog'at Axadjonovna Rahmonova
Farg'ona viloyati Bag'dod tumani 46-maktabning
Matematika fani o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6908546

Annotatsiya: Ushbu maqolada harakatga doir masalalarning turlari va ularni yechish usullari misollar yordamida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: tezlik, masofa, vaqt, tenglama, oqim bo‘ylab, oqimga qarshi, harakat.

Masalani bir necha usul bilan yechish ishi masala yechish metodini yaxshi tushunishga yordam beradi, o`quvchilarni tashabbuskorligini, masala yechish usullariga nisbatan topqirlik qobiliyatini rivojlantiradi.

Masala yechishning turli usullariga o`tishda o`quvchilarga taklif etilgan usullarga katta e`tibor berish, ularni tahlil qilish, baho berish, eng sodda va ratsional usullar topgan o`quvchilarni rag`batlantirish kerak.

Endi ayrim harakatga doir masalalar yechilishlari bilan tanishib chiqaylik. Masala shartida berilgan son miqdorlar natural son, kasr sonlar ham bo`lishi mumkin. Bizning asosiy maqsadimiz shu guruh masalalardagi umumiylikni qayd etib yechilish yo`llarini ko`rsatishdan iboratdir.

Tezlikni aniqlash


Elementar masala. Kema suvning oqimi bo`ylab soatiga 20 km, suvning oqimiga qarshi soatiga 15 km tezlik bilan yurdi. Suvning oqim tezligini toping.

Yechilishi: kemaning oqim bo`ylab tezligi, kemaning o`zining tezligi bilan oqim tezligining yig`indisiga teng bo`ladi; oqimga qarshi borgan vaqtdagi tezligi esa bularning ayirmasiga teng. Shundan ko`rinadiki, kemaning oqim bo`ylab yurgan tezligi bilan oqimga qarshi tezligi orasidagi farqi oqimning ikkilangan tezligiga teng.

Demak, suvning tezligi $\frac{20-15}{2}=2.5$ km bo`lar ekan.

1-masala. Qayiq turg`un suvdan soatiga 7 km dan suza oladi. U ikki punkt orasidagi masofani oqim bo`ylab suzib o`tish uchun oqimga qarshi suzganiga qaraganda $2\frac{1}{2}$ marta kam vaqt sarf qiladi. Suv oqimining tezligini toping.

Yechilishi:



Oqim bo`ylab qayiq 1 soatda MC masofani o`ta oladi, buning DC = 7 km bo`lagi qayiqning o`z tezligi bo`lib, MD bo`lagi esa oqim tezligidir. Xuddi shunday AB masofani, qayiq oqimga qarshi $2\frac{1}{2}$ soatda o`tadi. Agar oqim bo`lmaganda edi, u $2\frac{1}{2}$ soatda undan katta bo`lgan AN = $17\frac{1}{2}$ km masofa o`tgan bo`lar edi. Bu $17\frac{1}{2}$ km ni qayiq o`z xarakati hisobiga 1 soatda (CD = BD = 7 km) va suv oqimi hisobiga $3\frac{1}{2}$ soatda (MD = AD va BN = $2\frac{1}{2}$ AD) o`ta oladi. Demak, suv oqimining $3\frac{1}{2}$ soatdagi tezligi: $10\frac{1}{2}$ km, ya`ni bir soatdagi tezligi esa $10\frac{1}{2}:3\frac{1}{2}=3$ km bo`ladi.

Xuddi shu tipga quyidagi masalalarni ham kiritish mumkin.


2-masala. Suv soatiga 3 km tezlik bilan oqadi; qayiq bilan suvning oqimi bo`ylab ma`lum masofani bosib o`tishi uchun oqimga qarshi suzishga qaraganda 3 marta kam vaqt kerak bo`ladi. Qayiqning turg`un suvdagi tezligini toping.

3-masala. Qayiq suvning oqimi bo`ylab ketayotib ikki punkt orasini $4\frac{1}{2}$ soatda o`tgan. Orqaga qaytayotib shu masofani 6 soatda o`tgan. Suvga tashlangan yog`och suvning oqimi bo`ylab shu masofani qancha vaqtda o`tgan?

Uchrashma harakatga doir masalalar

Elementar masala. Qishloqdan shaxargacha masofa 45 km. bir vaqtda bir-biriga qarama-qarshi bo`lib, piyoda va velosipedchi yo`lga chiqdi. Piyodaning tezligi soatiga 5 km, velosipedchiniki esa 10 km. qancha vaqtdan keyin ular uchrashadilar?

Yechilishi:



Piyoda bilan velosipedchi orasidagi masofa xar soatda 10+5 (km) qisqaradi. Piyoda bilan velosipedchi tezliklari yig`indisi, 45 km ichida necha marta bo`lsa, ular uchrashguncha shuncha vaqt o`tadi: $\frac{45}{10+5}=3$ soat. Javob: 3 soatdan keyin uchrashadilar.

1-masala. Bir poyezd ikkinchi ro`paradan kelayotgan poyezdning yonidan o`tib borayotir; birinchisi soatiga 50 km tezlik bilan, ikkinchisi esa 58 km tezlik bilan xarakatlanmoqda. Birinchi poyezddagi yo`lovchi ikkinchi poyezdning 10 sekundda o`tib ketganini kuzatgan. Ikkinchi poyezdning uzunligini toping.

Yechilishi. Ikkinchi poyezd 10 sekund davomida birinchi poyezddagi kuzatuvchi yonidan xar ikkala poyezd tezliklarining yig`indisiga teng bo`lgan tezlik bilan o`tgan. Demak, ikkinchi poyezdning uzunligi

$$\frac{(50+58)\cdot 1000\cdot 10}{60\cdot 60}=\frac{10800}{36}=300 \text{ m}$$

Javob: ikkinchi poyezd uzunligi 300 m.

2-masala. Qo`qondan marg`ilongcha bo`lgan masofa 75 km. ertalab soat 9 da qo`qondan velosipedchi yo`lga chiqqan. Ertalab soat 9 dan 36 minut o`ganda esa, Marg`ilondan ikkinchi velosipedchi yo`lga tushgan va brinchidan soatiga $2\frac{1}{2}$ km dan kam yo`l yurgan. Velosipedchilar tush vaqtida uchrashganlar, ular Marg`ilondan qancha masofada uchrashganlar, xar biri necha km tezlik bilan yurgan, birinchisi Marg`ilonga qachon yetib kelgan?

Yechilishi: ikkinchi velosipedchi birinchiga qaraganda soatiga $2\frac{1}{2}$ km dan kam yo`l yurgan. Uchrashish paytigacha u, $12-9\frac{3}{5}=2\frac{2}{5}$ soat yurgan. Agar birinchi velosipedchi ikkinchisining tezligigacha tezlik bilan yurganda edi, u 3 soatda $(12-9)7\frac{1}{2}$ km $\left(2\frac{1}{2}\cdot 3=7\frac{1}{2}\right)$ kam yurgn bo`lar edi. Demak, agar xar ikkala velosipedchi, ikkinchi velosipedchining tezligidek tezlik bilan yurganlarida edi, $5\frac{2}{5}$, ya`ni $\left(3+2\frac{2}{5}=5\frac{2}{5}\right)$ soatda $75-7\frac{1}{2}$, ya`ni $67\frac{1}{2}$ yo`l o`tgan bo`lar edilar. Bundan ikkinchi velosipedchining tezligi $67\frac{1}{2}:5\frac{2}{5}=12\frac{1}{2}$ km/soat ekanligi kelib chiqadi. Uchrashuv Marg`ilondan 30 km masofa $\left(12\frac{1}{2}\cdot 2\frac{2}{5}=30\right)$ bo`lgan. Birinchi velosipedchining tezligi $\frac{75-30}{3}=15$ km/soat bo`lib, uchrashganlaridan 2 soat (30:15=2) keyin, ya`ni kunduzgi soat 2 da Marg`ilonga yetib borgan.

Quvlab yetishga doir xarakatlar.

Elementar masala. Otasi o`g`lini shaxardan kitoblar olib kelish uchun yuborgan. Lekin qaysi kitoblarni olib kelish kerakligini aytishni unutgan. 3 soat o`tib o`zi velosipedda quvib ketgan. Agar o`g`li bir soatda 5 km, otasi esa bir soatda 8 km yursa, otasi o`g`lini necha soatda quvlab yetadi?

Yechilishi: o`g`li uch soatda 15 km $(3\cdot 5=15)$ yurdi, otasi esa xar soatda uch km dan ortiq (8-5=3) yuradi. Ortiqcha 15 km ni yurib o`tishi uchun otasiga 5 soat (15:3=5) vaqt sarf qilishi kerak bo`ladi, ya`ni $\frac{5\cdot 3}{8-5}=5$ soat.

1-masala. It tulkini quvlab borayotir, lekin ular orasidagi masofa itning yuz marta sakraganida o`tadigan masofaga teng. It uch marta sakraganida, tulki 5 marta sakraydi, biroq, uzunlik jixatidan itning olti marta sakrashi tulkining 11 marta sakrashiga teng edi. It tulkini qancha sakrashda quvlab yetadi?

Izoh: bu masalaning qiyinligi shundaki, vaqt ham masofa ham bir xil birlik bilan, ya`ni sakrash bilan ifodalangan. Bu tushunchalarni almashtirish yaramaydi. Bu qiyinlik itning sakrashini tulkining sakrashiga va teskarisiga aylantirish kerak bo`lganligidan yana murakkablashadi.

Endi masalaning yechilishini ko`raylik.

Yechilishi: 1) tulki 5 marta sakraganda it uch marta sakraydi.

Demak, it olti marta sakraganda tulki 10 marta sakrar ekan.

1) Itning 6 marta sakragani uzunlik jixatidan tulkining 11 marta sakraganiga teng. demak, it 6 marta sakraganida tulkiga, uning bir sakrashi miqdorida yaqinlashib boradi (uzunlik jixatidan).

2) Tulkining 11 sakragani uzunlik jixatidan itning 6 sakrashiga teng. Demak, tulkining bir sakrashi uzunlik jixatidan itning $\frac{6}{11}$ sakrashiga teng.

3) It 6 sakrashda tulkiga o`z sakrashining $\frac{6}{11}$ qismi qadar yaqinlashadi, bir sakrashida $\frac{6}{11\cdot 6}=\frac{1}{11}$ bo`lagi qadar yaqinlashib boradi.

4) It qancha sakraganda tulkiga yeta olishini bilish uchun, itning 100 ta sakrashini $\frac{1}{11}$ it sakrashiga bo`lish kerak, shunda masalada qo`yilgan savolga $\frac{100\cdot 11}{1}=1100$ sakrashda degan javobni olamiz.

Bu yechimning turli xil variantlari bo`lishi mumkin. Ularning ayrimlarini keltirib o`tamiz.

1-variant. It o`zining 6 sakrashida tulkiga, uning bir sakrashi miqdorida yaqinlashib boradi, ya`ni it bir sakraganda tulkining $\frac{1}{6}$ sakrashi qadar yaqinlashib boradi. Itning 100 sakrashini tulki sakrashiga aylantiramiz: $\frac{100\cdot 11}{6}=\frac{1100}{6}$ va buni $\frac{1}{6}$ ga bo`lsak, 1100 it sakrashi kelib chiqadi.

2-variant. Ham itning, ham tulkining tezliklari bir vaqtda bo`lgan sakrashlariga teskari proporsionaldir $(\frac{1}{6}:\frac{1}{11}=11:6)$ ya`ni itning tezligi tulkining tezligiga $(3\cdot 11):(5\cdot 6)=11:10$ kabi nisbatda bo`ladi. Demak, it xar bir sakrashida tulkiga uning

$\frac{1}{11}$ sakrashicha $\left(1-\frac{10}{11}=\frac{1}{11}\right)$ yaqinlashib boradi, tulkini $100:\frac{1}{11}=1100$ sakrashda quvlab yetgan..

3-variant. 1) it o`zining olti sakrashida tulkiga, uning bir sakrashicha miqdorda yaqinlashib boradi.

2) it 66 sakrashda tulkining 11 sakrashi qadar yo`lni ($6\cdot 11=66$) ortiq o`tadi.

3) tulkining ikki sakrashi itning 6 sakrashiga teng. Demak, it o`zining 66 sakrahida tulkiga qaraganda o`zining 6 sakrashi miqdorida ortiq yo`l bosadi.

4) it o`zining bir sakrashida tulkiga ikki sakrashi miqdorida $(66:6=11)$ yaqinlashadi.

5) it tulkini 1100 sakrashda $(100\cdot 11=1100)$ quvlab yetadi.

2-masala. Piyoda kishi A dan B ga qarab yo`lga chiqdi. 12 soatdan keyin A dan B ga qarab avtomobil jo`nab ketdi. Avtomobil piyoda kishiga qaraganda 5 marta tezroq yuradi. Necha soatdan keyin avtomobil piyodani quvib yetadi?

Yechilishi: piyoda yuruvchi 12 soatda, avtomobilni 5 marta kamroq vaqtda, ya`ni $\frac{12}{5}$ soatda yuradigan yo`lini yurgan. Avtomobilning tezligi 1 va piyodaning tezligi $\frac{1}{5}$ deb qabul qilinsa, avtomobil piyodani xar soatda o`z tezligining $\frac{4}{5}$ ga $\left(1-\frac{1}{5}=\frac{4}{5}\right)$ yaqinlashib boradi. Piyodaning 12 soatda yurgan masofasini avtomobilning tezligi orqali ifodalasak, $\frac{12}{5}$ ga teng bo`lib, avtomobil piyodani o`zi yura boshlagandan 3 soat $\left(\frac{12}{5}:\frac{4}{5}=3\right)$ o`tgandan keyin, yoki piyoda yuraboshlagandan 15 soat (12+3=15) o`tgandan keyin quvlab yetadi.

Adabiyotlar:

1. Xaydarov B. Q. Matematika 5-sinf: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik, 2-qism. Toshkent:, 2020.

2. M. A. Mirzaahmedov va boshqalar. Matematika 6-sinf: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Toshkent: O‘qituvchi – 2017 yil.

4. “O`rta maktabda masalalar yechish” / V – X sinf matematika o`qituvchilarining tajribalaridan. N. Nikitinning umumiy taxriri ostida.O`quvpeddavnashr,1956y.

5. Velikoslavinskiy A. “Arifmetik masalalarning asosiy tiplari va ularni yechish metodlari”. T. O`zbekiston Davlat nashriyoti. 1943y.

ADABIYOT DARSLARIDA KO‘RGAZMALILIKDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Dinora Ibadullayeva
Xorazm viloyati 32-son zaif eshituvchi bolalar
uchun ixtisoslashtirilgan maxsus maktab-internati o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6908635

Annotatsiya: Maqolada adabiyot darslarida ko‘rgazmali vositalardan foydalanishning samarali usullari haqida fikr yuritilgan.
Kalit so‘zlar: fotosuratlar, audio fayllar, video fayllar, grafik chizmalar.

Badiiy adabiyot borliqni jonli manzaralar, obrazlar orqali aks ettiradi. Tabiatiga ko‘ra adabiyotning o‘zi borliqning ko‘rgazmali tasviridan iborat. Ammo adabiyot darslarida san’atning boshqa turlari: kino, televidenie, musiqa, tasviriy san’at ham yordamga kelishi mumkin. Bular adabiyot darslariga qo‘shimcha axborot manbasi bo‘lib xizmat qiladi, o‘quvchilarda estetik tuyg‘ularning shakllanishi va rivojiga imkon beradi, shuningdek adib yaratgan obrazlarning o‘quvchi ongida yanada puxtaroq muhrlanishiga yordam beradi. Hozirgi paytda turli kinoapparatlar, televizor, epidiaskop, magnitofon v.b. har bir maktabda mavjud. Bularning hisobiga ko‘rgazmali qurollar doirasi yanada kengaydi.

Y.Komenskiyning ta’kidlashicha,: “Mumkin bo‘lgan hamma narsa tuyg‘ularning his etilishi uchun yetkazilishi kerak”. Boshqa bir yirik pedagog K.D. Ushinskiy esa shunday yozadi: “Bola xotirasida nimanidir o‘rnab qolishini istagan pedagog imkoni boricha ko‘proq sezgi organlari: ko‘z, quloq, tovush, muskul harakatlari tuyg‘usi, hatto, mumkin bo‘lsa, hidlash va ta’m bilishni ham eslab qolishda ishtirok etishi haqida qayg‘urishi kerak”.

Ko‘rgazmalilikdan darsda va sinfdan tashqari ishlarda foydalanish bir-biridan jiddiy farq qiladi va boshqa-boshqa maqsadlarni ko‘zda tutadi. To‘garak ishlarida, fakultativ mashg‘ulotlarda v.b.da o‘qituvchi biror tasviriy san’at, musiqa asari, tele yoki kinofilm bilan tanishtirish vazifasini qo‘yishi mumkin. Bu albatta o‘quvchilarning adabiy asarlarni o‘zlashtirishlariga muayyan darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Darsda esa ko‘rgazmalilik o‘quvchilarning asarni o‘zlashtirishiga yordam bera oladigan darajadagina qo‘llanishi mumkin. Adabiyot darslaridagi ko‘rgazmalilikning **bosh vazifasi** o‘quvchilarga adabiy asarni idrok etishda ko‘maklashish, yozuvchi ijodini to‘laroq tasavvur etishga yordamlashish, adabiy-nazariy tushunchalarni egallashga qo‘shimcha imkon yaratish, o‘quvchilar nutqini o‘stirishni ta’minlash, bir so‘z bilan aytganda, adabiyot o‘qituvchisi oldida turgan barcha vazifalarni hal qilishga yordam berishdan iborat.

Ko‘rgazmalilikning vazifalari nihoyatda xilma-xil bo‘lishi mumkin. Hozirda ko‘rgazmalilikning turlari xilma-xil: illyustrativ-badiiy hamda grafik-chizma materiallar, gramofon yozuvi va radioeshittirishlar, kinofragment va o‘quv filmlari, telefragment va televizion darslar v.b. Ularning har biri ko‘rish, eshitish, sintetik shakldagi ko‘rgazmalilikka tegishli bo‘lishi mumkin.

Ko‘rish bilan bog‘liq ko‘rgazmalilik. Bunga yozuvchi va shoirlarning portretlari, asarlarga illyustratsiyalar, yozuvchi, adib hayoti va ijodiga aloqador bo‘lgan joylar fotografiyasi yoki yozuvchining hayoti, asari bilan bog‘liq fotosuratlar v. b. kiradi.

Har holda eng kamida darslikdagi rasm namunalari shu vazifani bajarishi mumkin. Yozuvchi hayoti va ijodini o‘rganishga doir albomlarda tasviriy san’at asarlaridan namunalargina emas, yozuvchining o‘zi va zamondoshlari aytgan fikrlar, xatlardan namunalar bo‘lishi mumkin. Tasviriy va hujjatli materialning bir xildagi birlashuvi albomlardan darsda ham, sinfdan tashqari ishlarda ham, yakka mashg‘ulotlarda ham foydalanish imkonini beradi.

Adabiyot darslarida ko‘rgazmalilikning yana bir turi xarita-sxemalar bo‘lishi mumkin. Har bir jadval va sxemalar ham o‘quvchilar bilimini mustahkamlash bilan birga ularning adabiy – estetik rivojlanishlarida omil bo‘lishi shubhasiz. Xususan, O‘rxun - Enasoy obidalari, Mahmud Qoshg‘ariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Munis, Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Hamza Hakimzoda Niyoziy singari shoir va yozuvchilarning hayoti va ijodini o‘rganishda bunday xarita-sxemalardan foydalanish katta samara beradi.

Masalan, 5-sinf “Adabiyot” darsligida berilgan Muqimiyning hayoti va ijodini o‘rganishda adib borgan, asarlarida tasvirlangan shahar va qishloqlarni ko‘rsatib beruvchi xarita-sxemalardan foydalanish mumkin. Bunda adibning shaxsiy hayoti, ayniqsa, “Sayohatnoma” laridagi geografik nomlar asos vazifasini ado etadi. Qolaversa, bu yo‘l bilan predmetlararo aloqaning o‘ziga xos tomonlariga ham ro‘para kelinadiki, bu holat o‘quvchilarning turli sohadagi bilimlarini bir yerga jamlash, ulardan amalda foydalanish zaruratini yuzaga chiqaradi.

Ko‘rgazmalilikning yana bir turi bu audio fayllar bo‘lib, bunda darsda o‘rganilayotgan adibning o‘z asarlari o‘zi tomonidan o‘qilgan, yoki shoir she’rlari asosida kuylangan qo‘shiqlar, biror badiiy asar yuzasidan sahnalashtirilgan audio spektakllarni dars mobaynida o‘quvchiga eshittirish orqali mavzuning yanada mustahkamlanib, o‘quvchi xotirasida saqlanishiga asos bo‘ladi. Masalan, 8-sinf “Adabiyot” darsida “Muhammad Yusuf hayoti va ijodi” mavzusini o‘rganishda shoirning o‘zi tomonidan o‘qilgan she’rlari yoki shoir she’rlari asosida kuylangan qo‘shiqlardan namuna o‘quvchilarga eshittirilsa, mavzuning o‘quvchi tomonidan yanada qiziqish bilan o‘rganishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari yozuvchilar asarlari asosida ishlangan kinofilmlardan parcha namoyish qilish orqali o‘quvchining ana shu asarga bo‘lgan ishtiyoqini yanada oshiradi,

masalan 6-sinf “Adabiyot” darsida G‘.G‘ulomning “Shum bola” qissasini o‘rganish jarayonida, qissa asosida ishlangan videofilmdan parcha namoyish qilinsa darsda shu asarning o‘quvchi tomonidan yaxshi o‘zlashtirilishiga erishiladi.

Xullas, adabiyot fani o‘qituvchisi ko‘rgazmalilikning qaysi turidan va qanday holatda, qay miqdorda foydalanishini aniq belgilab olishi va undan samarali foydalanishi o‘qituvchining ijodkorligiga bog‘liq. Zeroki, adabiyot darslarida ko‘rgazmalilik oxirgi maqsad emas, balki mavzuni o‘quvchi yanada puxta o‘zlashtirishiga xizmat qiluvchi vositadir.

Adabiyotlar:

1. Yu.K.Babanskiy. Hozirgi zamon umumiy ta’lim maktabida o‘qitish metodlari. “O‘qituvchi” T.: 1990 yil.

2. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. “Yangi asr avlodi” T.: 2006

XORAZM VOHASI IQLIM SHAROITIDA EKILADIGAN QOVUN NAVLARI

Muxayyo Erkinovna Ro’zieva
UrDU Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya kafedrasi
Stajyor o‘qituvchisi mustaqil tadqiqotchi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6908639

Annatotsiya: Ushbu maqolada qovun turlari va navlarining kelib chiqishi, ahamiyati, hamda ularni Xorazm vohasi bo‘ylab ekilishi haqida ma’lumotlar berilgan.

Tayanch so‘zlar: qovun, turkum, tur, nav, tuproq, iqlim, ekin, sho‘rlanish.

Qovun – qovoqdoshlar oilasi, bodring turkumiga mansub bir yillik o‘t o‘simliklar turi; poliz ekini. Ildizi o‘qildiz, ildiz tizimi kuchli rivojlanadi. Palagi ingichka, yotib o‘sadi. Barglari uzun bandli, palakda ketma-ket joylashgan. Hasharotlar yordamida changlanadi. Mevasining shakli turli (yumaloq, ovalsimon, cho‘zinchoq). Vazni 200 g dan 16-25 kg gacha. Po‘sti qalin (1,5-2 sm), o‘rtacha (1 - 1,5 sm), yupqa (0,5 – 1,4 sm), eti yumshoq, sersuv, sershira, qumoq, ba’zilariniki tolali, rangi oq, qizil, sarg‘ish, yashilroq. Urug‘i oq, och sariq va sariq. Mevasi tarkibida 8-20% quruq modda, 18% qand (saxaroza), 0,1-0,7 kletchatka, folat kislota, kaliy, natriy, kalsiy, magniy, temir, fosfor, oltingugurt va boshqa mikroelementlar bor.

Qovun issiqsevar, yorug‘sevar o‘simlik**,** qurg‘oqchilikka va tuproq sho‘rlanishiga chidamli. Urug‘i tuproq harorati 14-15 ga yetganda una boshlaydi (13 dan past haroratda urug‘i chiriydi). Ekilgandan keyin 5-7 kunda maysa unib chiqadi. O‘suv davrida qator oralari 2-3 marta yumshatiladi. Tuproq sharoitiga qarab 5-6 marta sug‘oriladi. Har sug‘orishdan keyin ariq qirovi bosiladi. Hosildorligi 250-300 sentner/gektar.

Hozirgi kunda **O‘zbekistonda qovunning 56 navi** yetishtiriladi. Bugungi kunda yurtimizda yetishtirilayotgan qovun mahsuloti Afg‘oniston, Belorus Respublikasi, Buyuk Britaniya, Germaniya, Gruziya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Latviya, Litva, Lyuksemburg, Moldaviya, Niderlandiya, BAA, Pokiston, Polsha, Rossiya, Tojikiston, Ukraina, Chexiya, Shveysariya kabi mamlakatlarga eksport qilinmoqda.

Yozma tarixiy manbalar bundan 2 ming yil ilgari ham qovun etishtirilganligidan dalolat beradi. Qoraqalpog‘iston Respublikasining Beruniy shahridan 80 km uzoqlikda joylashgan Tuproqqal’ada olib borilgan qazilma ishlari jarayonida milodiy III asrga taalluqli madaniy qovun urug‘lari topilgan. As-Saolibiy (milodiy IX asr) va sayyoh Ibn Batutta (XIV asr) o‘z kitoblarida Xorazm qovunlariga ta’rif berishgan.

Zaxiriddin Muhammad Bobir (XV asr) va undan keyingi davrda bir necha sayyohlar Movarounnahr bo‘ylab safarlari davomida bu farovon o‘lkaning ajib qovunlariga qoyil qolishgan. Ajoyib mevalar dovrug‘i mamlakat tashqarisidagi uzoq o‘lkalarga keng yoyildi. Qovunlarning katta miqdorda miloddan avvalgi II asrda Xitoyga, IX-X asrlarda Iroqqa olib chiqilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar saqlangan. Qovunlar Hindistonda, Eronda va boshqa mamlakatlarda ham munosib baholandi. Shu davrlarda qovun qoqisi ham e’tirof etilib, uni uzoq o‘lkalarga olib chiqilar edi. Qadimda qovunni yaxshi shamollatiladigan joylarda, quruq qumda, don, somon ichida, osib qo‘yish yo‘li bilan hamda mahsus qurilgan qovun omborlari - qovunxonalarda keyingi yilning aprel-may oyiga qadar saqlash usullari ma’lum bo‘lgan. O‘zbekiston hududida hozirgacha qovunning achchiq va nordon ta’mli yovvoyi turi o‘sadi, u Markaziy Osiyoda tarqalgan madaniy tur hillarning asoschisi hisoblanadi.

Xorazm vohasi Markaziy Osiyoning tekislik qismini qamrab olgan keng Turon muzofotining shimoliy qismida joylashgan. U Amudaryo qadimiy deltasining chap qirg‘og‘ini egalagan. Uning sharqiy chegarasi Toshsaka yassitog‘ligi bo‘lsa, g‘arbiy sarhadi esa Turkmaniston bilan chegaralanadi. Qoraqalpog‘iston va Xorazm viloyati jug‘rofiy o‘rniga ko‘ra O‘zbekistonning shimoliy qismida joylashgan. Ularning hududi o‘ta qurg‘oq mintaqaga kirib, yillik yog‘incharchilik 80-90 millimetrni tashkil etadi va ular asosan qish va bahor davriga to‘g‘ri keladi. Voha iqlimi keskin kontinentaldir. Yozi issiq va quruq. Iyul oyida havoning o‘rtacha xarorati +28°C, o‘rtacha mutlaq yuqori xarorat +41°C, ba’zan xarorat +46°C gacha boradi. O‘suv davrida musbat xaroratlar yig‘indisi 4200° dan 5400° gacha o‘zgarib turadi. Qovun asosan sug‘oriladigan va sho‘rlangan (yuviladigan) erlarda hamda cho‘l mintaqasining o‘tloqi tuproqlarida ekiladi.

Xorazm vohasida yetishtiriladigan qovun navlari handalaklar - Oq kallapo‘sh, Zamcha, Oq zamcha, Ola zamcha, Ko‘k zamcha, Qora zamcha, Sariq zamcha, Qizil zamcha, Turkman zaami, Bosqovun, Duynak, Mahalliy sariq handalak, Handalak Ko‘kcha 14, Tarnek, Urganji. Yumshoq etli yozgi navlar. Amiri, Allaka, Xorazm oqnovvoti, Oq gurvak, Ola gurvak, Bosvoldi, Ko‘k gurvak, Qora gurvak, Zarchopon F1, Mullasapo, Toshloqi. Qattiq etli yozgi navlar. Oqnovvot, Oqsut, Olageke, Ola po‘choq, Amiri, Baqiraman, Bekzodi, Bizota, Harvuzqovun, Ko‘kcha, Jiydagul, Jiyda yaproq, Turkman ichqizili, Ko‘ktinni, Nongo‘sht, Oltin vodiy, Rohat, Sekeppara, To‘rlama, Xitoyi, Xitoyi ameri, Shakarpara, Shakarpalak 554, Shirinpo‘choq.

Kuzgi-qishki navlar. Oqqosh, Qishki oqpo‘sh, Mahalliy olahamma, Amudaryo, Oq gulobi, Olma gulobi, Olmurti gulobi, Zarg‘aldoq gulobi, Yashil etli gulobi, Charjou gulobisi, Xorazmiy gulobi, Zar gulobi, Qora gulobi, Qizil gulobi, Ko‘k gulobi, Sariq gulobi, Shobozi gulobi, Beshak gulyau, Mahalliy beshak, Qishki

beshak, Shobboz beshak, Shimboy beshak 151, Qora beshak, Qizil beshak, Qilichboy beshak, Qo‘tir beshak, To‘rnovat beshak, Hamma beshak, Xiva beshak, Ho‘jayli beshak, Shirin beshak, Bijir, Qishki bo‘riqovun, Gurlan, Ettiyyaproq, Qoragul, Qoraqovun, Mahalliy qorakand, Qoraqosh, Qoraqo‘tir, Qariqiz, Qoratirish, Qo‘ybosh 476, Madaniy zamon, Mullasapo, Navro‘zboy, Ravran, Turnanovvot, To‘yona, Tuyaqovun, Shakarpara, Shoyiqovun, Umrboqiy kabiy navlar ekib o‘stiriladi.

Xorazm vohasi - eng qadimiy va mashhur qovunchilik vohalaridan bo‘lib, qovunning nav tarkibi, ayniqsa, qishki navlarga boyligi bilan ajralib turadi. Bu erda qadimiy mahalliy va boshqa vohalardan keltirilgan navlar hamda Gyukcha, Alageke, Marikaun va boshqa qator turkman navlari tarqalgan. Xorazm vohasining nav tarkibi va ekin maydonlari barqaror emas. Bu erda avvaldan va hozirda etishtirilib kelinayotgan navlar turli etilish guruhlarini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Androsov A. O kulture din v Srednei Azii i mestnie ix sorta.//«Promishlennoe sadovodstvo i ogorodnichestvo».- 1940.- № 1-4, - 98-100 b.

2. Arasimovich V.V. Bioximiya dini.//V kn.: «Bioximiya kulturnix rasteniy».- M.- 1938.-T. 4. - 295-328 b.

3. Ashurmetov A.A. O samostoyatelnosti roda ***Melo*** Adans.//V sb.: «Problemi soxraneniya i ispolzovaniya geneticheskix resursov selskoxozyaistvennix kultur dlya selektsionnoy raboti».- Toshkent- 1995.- 166-176 b.

4. Bel-Kuznetsova V.F., Zhitneva N.E. Dini Uzbekistana.//T. Izd. Komiteta nauk UzSSR.-1937. - 127 b.

5. Belik V.F. Baxchevie kulturi.//M.: «Kolos».- 1982. - 186 b.

6. Bo‘riev X.Ch., Ashurmetov O.A. Poliz ekinlari biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi.//T.: «Mexnat».- 2000.- 115 b.

7. Bo‘riev X.Ch., Zuev V.I., Umarov A.A. Polizchilikdan amaliy mashg‘ulotlar.//T. «Mexnat».- 1997.- 203 b.

8. Buriev X.Ch. Spravochnaya kniga baxchevoda.//M.: «Kolos».- 1984.- 142 b.

9. Dudko P.N. Sortovoe bogatstvo din Uzbekistana.//T.- 1956. 150 b.

10. Dudko P.N., Karimov A.K., Ermoxin B.N., Uspenskaya E.V. Atlas «O‘zbekiston qovunlari. Dini Uzbekistana».//T.: UDN- 1962.- 184 b.

11. Ermoxin B.N. Dini Uzbekistana.//T.: «Fan».- 1974.- 23 b.

12. Esenov A., Karov D. Turkmenskie dini. Atlas.//Izd. 2.- Asxhabat.: «Rux».- 1999.- 288 b.

13. Filov A.I. Baxchevodstvo.- M.: Selxozgiz.- 1959. 155 b.

14. Kuchkarov S.K. Dini Uzbekistana: sorta, selektsionnoe ispolzovanie, semenovodstvo.// T.: «Mexnat».- 1985. 135 b.

15. Kuchkarov S.K., Shukina A.S., Xaitov X. Opisanie i sistematizatsiya mestnix sortov din Buxarskoy oblasti.//Tr. UzNIIOBKiK.- Vip. 18.- T.: «Fan».- 1980. 32-52 b.

16. O‘zbekiston qovunlari, melons of Uzbekistan, дыни узбекистана, R. Mavlyanova, A. Rustamov, R. Khakimov, A. Khakimov,M.Turdieva and S. Padulosi, O‘simliklar genetik resurslari halqaro instituti (IPGRI), 2005.

PROMILLEE VA UNING QO‘LLANILISHI

Farog'at Axadjonovna Rahmonova
Farg'ona viloyati Bag'dod tumani 46-maktabning
Matematika fani o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6908643

Annotatsiya: Ushbu maqola foizlar bilan birga promilleni qo‘llash uning afzallik jihatlari haqida bo‘lib, mazmunga mos masalalar ham keltirilgan.
Kalit so‘zlar: Promillee, foiz, nisbat, ulush.

Turmushda ko‘proq ishlatiladigan ikkidan bir-yarim deb, to‘rtdan bir-chorak deb, sakkizdan bir-nimcharok deb ataladi. Shuning uchun yuzdan birga ham alohida «foiz» nomi va maxsus belgi % berilgan. Ba’zan esa biror miqdorning yuzdan bir bo‘lagi bilan emas, balki mingdan bir bo‘lgan bilan ish ko‘rishga to‘g‘ri keladi. Bu esa ularga alohida nom va maxsus belgi bilan ko‘rsatishni talab qiladi.

Maktabda yosh o‘qituvchi foizlarga doir masalalar yechishda, foizlarga oid hisoblash ishlarini o‘tkazishda unchalik katta bo‘lmagan bitta masalaga, ya’ni Promille (Promillee yoki Promille deb ham aytiladi) haqidagi masalalarga duch keladi. Avval o‘rta maktab matematika fani darsliklarida Promille qanday hisoblanadi, qanday belgilanadi, uning foizlar bilan qanday munosabati bor va umuman Promillening o‘zi nima degan savollarga javob yoki kerakli nazariy materiallar berilmagan.

Yosh o‘qituvchi Promille haqida ma’lumot va yo‘nalish olsin degan maqsadida ushbu maqolada maktabda o‘quvchilar bilan Promillega oid hisoblash ishlarini qanday o‘tkazish bo‘yicha qisqacha ayrim metodik ko‘rsatmalar beramiz. Promille bilan bog‘liq materiallarni bayon qilish va unga oid hisoblash ishlarini o‘tkazish haqida masalalar yechishga maktab dasturida alohida soatlarni ajratishga zaruriyat yo‘q. Balki, bu ishlarni foizlarga doir hisoblashlarni o‘tkazish, unga doir masalalar yechish bilan birga yo‘l-yo‘lakay olib borish mumkin. Promillega doir ma’lumotlar bilan tanishtirish va unga oid hisoblashlar ishlarini o‘tkazishdan maqsad avvalo o‘quvchilarga foiz va Promilleni hisoblashdagi farqni, ya’ni foizlarga doir hisoblashlarda 100 ga ko‘paytirish yoki bo‘lishga duch kelsak, Promillega doir hisoblash ishlarida esa, 1000 ga bo‘lish yoki ko‘paytirishga duch kelishimizni tushuntirishimiz zarur. Bundan Promille miqdorining mingdan bir qismi (ulushi) ekani kelib chiqadi. Promille so‘zi lotincha Promillee so‘zi bo‘lib, u ming uchun, mingga, mingdan ma’nolarini bildiradi va ‰ bilan belgilanadi. SHunday qilib, Promille foizning o‘ndan bir qismini tashkil etadi, bundan esa foizlar sonini 10 marta orttirib, foizlarni Promilleda ifodalash oson. Masalan, 0,5%=5‰,0,07%=0,7‰;

48,5%=485‰. Aksincha, Promilleni foizlar almashtirish uchun esa berilgan Promille sonini 10 marta kamaytirish kerak.

Masalan,

3‰ =0,3% 0,2‰=0,02% 12,5‰=1,25%

So‘ngra o‘quvchilarni o‘nli kasrlarni Promilleda, Promilleni o‘nli kasrlarda ifodalash usullari bilan tanishtirish maqsadga muvofiqdir. O‘nli kasrni Promilleda ifodalash uchun berilgan o‘nli kasrni 1000 ga ko‘paytirish (vergulni o‘ngga uchta xonaga surish) va hosil bo‘lgan sonini o‘ng tomoniga ‰ belgini yozish kerak. Masalan: 0,001=1‰;

0,0005=0,5‰; 0,01=10‰; 0,15=150‰; 0,8=800‰.

Promillening berilgan sonini o‘nli kasrlarda ifodalash uchun Promille sonini 1000 ga bo‘lish (vergulni chapga uchta xona surish) va natijani Promille belgisisiz yozish kerak. Masalan: 5‰=0,005; 2,5‰=0,0025; 100‰=0.1; 400‰=0.4.

Agar oddiy kasrni Promilleda ifodalash talab qilinsa, u holda uni oldin o‘nli kasrga aylantiriladi, so‘ngra Promilleda ifodalash yetarlidir. Masalan:

$$\frac{1}{500}=0,002=2‰;\quad \frac{37}{10000}=0,0037=3,7‰;$$

$$\frac{1}{10}=0,01=100‰;\ \frac{123}{500}=0,246=246‰.$$

Promille tushunchasi foizga juda yaqin bo‘lganidan Promillega doir masalalar ham foizlarga oid masalalar kabi uchta asosiy turga bo‘linadi. Bu turlardagi masalalarda ‰belgini %belgiga hamda 1000 ga bo‘lish yoki ko‘paytirishni 100 ga bo‘lish yoki ko‘paytirishga mos ravishda almashtirilsa, u holda foizlarga doir masalalar hosil bo‘ladi.

Endi Promillega doir bu uchala asosiy tur masalalarni qaraylik.

Birinchi tur masalalar. Sonning Promilleini topish. Sonning qandaydir Promilleini topish uchun bu berilgan sonni 1000 ga bo‘linadi (ya’ni, berilgan sonning 1‰ i topiladi) va hosil bo‘lgan bo‘linma Promillening berilgan soniga ko‘paytiriladi.

1-masala. 9600 sonining 2,5% ini toping.

Yechish. Avvalo 9600 sonining 1‰ ini topamiz, buning uchun 9600 ni 1000 ga bo‘lamiz, so‘ngra natijani 2,5 ga ko‘paytiramiz:

$9600:1000=9,6;\qquad 9,6\cdot 2,5=24.$

Bu amallarni birlashtiramiz: $\frac{9600\cdot 2,5}{1000}=24.$

SHunday qilib, 9600 ning 2,5‰i 24 ga teng ekan.

Masalani proporsiya usulida ham yechish mumkin, ya’ni

$$\begin{matrix}9600 & \sim & 1000\\ x & \sim & 2,5\end{matrix}\ \text{desak,}\ \frac{9600}{x}=\frac{1000}{2,5}$$

proporsiya hosil bo‘lib, bundan $x=\frac{9600\cdot 2,5}{1000}=24$ kelib chiqadi. Umuman, agar a - berilgan son, uning r ‰ini b bilan belgilasak, u holda yuqoridagi kasrni

$$\begin{matrix} a & \sim & 1000, \\ b & \sim & p, \end{matrix}$$ yoki $\frac{a}{b}=\frac{1000}{p}$

proporsiya yordamida formula shaklida quyidagicha yozish mumkin:

$$b=\frac{ap}{1000}=0,001ap$$

Ikkinchi tur masalalar. Promille bo‘yicha sonni topish.

Bu turdagi masalalar 1-tur masalalariga teskaridir. Berilgan Promille bo‘yicha noma’lum sonni topish uchun masalada berilgan sonni u son tashkil topgan Promille soniga bo‘lish (ya’ni, izlanayotgan sonning 1‰ini topish) va hosil bo‘lgan natijani 1000 ga ko‘paytirish kerak.

2-masala. 4,5‰ i 90 teng bo‘lgan sonni toping.

Yechish. Avvalo izlanayotgan sonning 1‰ini topamiz, buning uchun 90ni 4,5 ga bo‘lamiz; So‘ngra natijani 1000 ga ko‘paytiramiz%

90:4,5=20; 20·1000=20000.

Izlanayotgan son 20000 ga teng. Bajarilgan amallarni bitta formulaga birlashtiramiz:

$$\frac{90\cdot 1000}{4,5}=20000$$

Bu turdagi masalada

$$\begin{matrix} 4,5 & \sim & 20 \\ 1000 & \sim & x \end{matrix}$$ desak, $\frac{4,5}{1000}=\frac{90}{x}$ proporsiyadan ham noma’lum x ni topish mumkin, ya’ni $x=\frac{90\cdot 1000}{4,5}=20000$.

r‰i b ga teng bo‘lgan sonning 1‰i $\frac{b}{p}$ ga 1000%i, ya’ni shu sonning o‘zi esa $\frac{b}{p}\cdot 1000=\frac{b\cdot 1000}{p}$ ga teng bo‘ladi. Demak, r‰i b ga teng bo‘lgan sonni a bilan belgilasak,

$$\begin{matrix} a & \sim & 1000 \\ b & \sim & p \end{matrix}$$ yoki $\frac{a}{b}=\frac{1000}{p}$ proporsiyadan

$a=\frac{b\cdot 1000}{p}$ kelib chiqadi.

Uchinchi tur masalalar. Berilgan a sonni b sonning necha Promillei bo‘lishini yoki ikki sonning Promillei nisbatini topish. Buni bilish uchun Promilleda

ifodalanishi lozim bo‘lgan sonni 1000 ga ko‘paytirish hamda hosil bo‘lgan ko‘paytmani ikkinchi songa bo‘lish kerak.

3-masala. 125 soni 2500 ning qancha Promilleini tashkil etadi?

Yechish. Masalani yechish uchun 125 sonni 1000 ga ko‘paytirib, so‘ngra hosil bo‘lgan ko‘paytmani 2500 ga bo‘linadi: 125 · 1000=125000; 125000:2500=50.

Shunday qilib, 125 soni 2500 ning 50%ini tashkil etishini topdik. Bu amallarni bitta formulaga birlashtirish maqsadga muvofiqdir:

$$\frac{125\cdot 1000}{2500}=50.$$

Umumiy holda, a soni b sonining $r‰$ ini tashkil etsin, u holda

$$\begin{matrix} a & \sim & p‰ \\ b & \sim & 1000‰ \end{matrix},$$ yoki $\frac{a}{b}=\frac{p}{1000}$ proporsiyadan $p=\frac{a\cdot 1000}{b}$ kelib chiqadi.

Maktabda Promillega doir hisoblash ishlarini bajarishda o‘quvchilarga Promilledan statistikada unumli qo‘llanilishini ko‘rsatish mumkin, ya’ni, masalan, tug‘ilishlardagi nobud bo‘lishlik, oliy ma’lumotlilar va shu kabilar har 1000 kishiga olib hisob qilinadi. Shuningdek, Promille kuchsiz kontsentratsiyali aralashmalarni o‘lchashda, dorishunoslikda ham ishlatiladi. Bulardan tashqari, Promille qotishmaning komponentlarini miqdor jixatdan baholashda va oltinning namunalarini hisoblashda ishlatiladi Oltinning 900, 800 va xokazo namunasi qotishmaning 1000 ta bo‘lagidan mos ravishda uning 900 va 800 bo‘lagi sof oltin ekanini bildiradi.

munosabat bajarilishi kerak. Bundan

$M=m\frac{100-p}{100-n}$ kelib chiqadi. Javob: $M=m\frac{100-p}{100-n}$.

Adabiyotlar:

1. H.Mahmudov, B. Mamadaliev. Uzluksiz ta’lim jarayonida proportsiya va protsentlarning o‘qitilishi. Farg‘ona, 2009

2. Ya.F.Chekmaryov, S.V.Filichev. Sbornik arifmeticheskix zadach. M.: Prosveshenie, 1968.

3. M.D.Abramov, S.T.Teshaboev. Ximiyadan hisoblashga doir masalalar yechish. T.: O‘qituvchi, 1973.

4. Ya.F.Chekmaryov. Arifmetika o‘qitish metodikasi. T.: O‘qitvchi, 1965. - 448.

5. V.M.Bradis. Metodika prepodavaniya matematiki v sredney shkole. M.: 1951.

MAHALLIY XOMASHYOLAR ASOSIDA OLINGAN SORBENTLARNING Ca^{2+} IONLARI BO‘YICHA SORBSIYALANISH KINETIKASI

Shonazarova Nargiza Ulug‘bek qizi
Navoiy davlat pedagogika instituti Kimyo ta’lim yo‘nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: **F.S.To‘xtayev**
https://doi.org/10.5281/zenodo.6942042

Annotatsiya: Maqolada mahalliy xomashyolar asosida olingan sorbentlarning $CaCl_2$ tuzi eritmasidagi Ca^{2+} ionlari bo‘yicha sorbsiyalanish kinetikasi keltirilgan. Suvning kalsiy kationlari Ca^{2+} kalsiyli qattiqlikni keltirib chiqaradi. Umumiy qattiqlik kalsiy qattiqliklardan, ya’ni suvdagi Ca^{2+} kationlarining konsentratsiyalari yig‘indisidan hosil bo‘ladi. Buni yo‘qotish esa olingan sorbentlar orqali amalga oshirish mumkin.

Kalit so‘zlar: sorbent, qattiqlik, suv, sorbsiya, kalsiy, tuz, eritma, qattiqlik, ion, kinetika.

Kirish. Jahonda daraxt poyalari va chiqindilari asosida sorbentlar olish, ularni faollashtirish usullarini yordamida faollantirib oqava suvlar tarkibidan organik birikmalarni tozalash texnologiyasini yaratish bo‘yicha, quyidagi yo‘nalishlarda yechimlarni ilmiy asoslash: yuqori sorbsion xususiyatga ega sorbentlari olish va faollashtirish usullarini asoslash; sorbentlarini sorbsiya izotermalarini tadqiq qilish, ularning fizik-mexanik xususiyatlarini sorbsion qobiliyatini va sorbsion-strukrura xossalarini, tashqi agressiv muhitlarga chidamlilik darajasi hamda g‘ovaklari hajmini hajmiy to‘yinish nazariyasi tenglamalari yordamida tavsiflash zarur.

Asosiy qism. Suvni yumshatish jarayonlariga nisbatan olganda karbonatli va karbonatsiz qattiqlik bo‘ladi. Ca^{2+} kationlarining suvdagi gidrokarbonat ionlari HCO_3 ga ekvivalent bo‘lgan qismi keltirib chiqargan qattiqlik karbonatli qattiqlik deyiladi. Boshqacha aytganda, karbonatli qattiqlik kalsiy va magniy gidrokarbonatlarning borligidan bo‘ladi. Suv qaynatilganda gidrokarbonatlar parchalanadi, hosil bo‘lgan kam eriydigan karbonatlar esa cho‘kmaga tushadi va suvning umumiy qattiqligi karbonatli qattiqlik qiymati qadar kamayadi. Shuning uchun karbonatli qattiqlik muvaqqat qattiqlik ham deyiladi. Qaynatilganda kalsiy kationlari Ca^{2+} karbonat holida cho‘kmaga tushadi:

$Ca^{2+} + 2HCO_3 \rightarrow CaCO_3 + H_2O + CO_2$


(gidroksid-ionlar OH^- suv bilan HCO_3 ionlarning o‘zaro ta siri hisobiga hosil bo‘ladi:

$HCO_3 + H_2O \leftrightarrow H_2CO_3 + OH''$

Qattiqlikning suv qaynatilgandan keyin ham qiladigan qismi karbonatsiz qattiqlik deyiladi. U suvda kuchli kislotalarning, asosan sulfatlar va xloridlarning kalsiyli va magniyli tuzlarining miqdori bilan aniqlanadi.

Suvlarni qattiqligini yo‘qotish uchun mahalliy xomashyolar asosida olingan sorbentlar orqali tozalash maqsadida sorbentning $CaCl_2$ tuzi eritmasi tarkibidagi Ca2+ ionini sorbsiya qilishi sinab qo‘rildi.

Sinov natijasida shu aniqlandiki, BAU-A2 markali sorbent bilan solishtirib ko‘rilganda Aylant daraxti asosida olingan aktivlangan sorbentning sorbsion xususiyati yaqinligini 1-rasmda ko‘rishimiz mumkin.



1-rasm. 30ºC haroratda $CaCl_2$ 0,1M konsentratsiyali eritmasi muhitida FKSlarning Ca^{2+} ionini sorbsiyalash kinetikasi

1-rasmdan harorat ko‘tarilishi bilan boshlang‘ich daqiqalarda Aylant daraxti qipiqlari asosida FKSning sorbsion qobiliyati ordi, boshlang‘ich 20 daqiqada harorat 30^oC gacha ko‘tarilganda kompleksning sorbsion qobiliyati ortdi, keyingi daqiqalarda harorat 40^oC ga ko‘tarilganda sorbsion qobiliyati yuqori nuqtaga borib, 50-60 daqiqalarda 50^oC haroratda sorbsion qobiliyati muvozanat holatga kelganligini ko‘rishimiz mumkinki.

Xulosa. Mahalliy xomashyolar asosida olingan sorbentlarning $CaCl_2$ tuzi eritmasidagi Ca^{2+} ionlari bo‘yicha sorbsiyalanish kinetikasi organilganda metall ionlarini samarali sorbsiya qildi. Demak sorbentdan suvning kalsiy kationlari Ca^{2+} kalsiyli qattiqlikni keltirib chiqaradigan umumiy qattiqlik kalsiy qattiqliklardan, ya’ni suvdagi Ca^{2+} kationlarining konsentratsiyalarini kamaytirishda foydalansak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Федоров Н.Ф. Реагентная интенсификация процесса парогазовой активации в технологии активных углей / Н.Ф.Федоров, М.А.Андреев, И.В.Андреева // Акт. проблемы теории адс-ции, пор-ти и адс. селект-ти: материалы XIV Всерос. симпозиума с участием иностранных ученых. 26 – 30 апреля 2010 г. – Москва – Клязьма. - 2010. - С. 29.

2. Masharipova M.N., Payg‘amov R.A., Kuldasheva SH.A. Daraxt poyasi chiqindilari asosida faollantirib olingan adsorbentlarning fizik xossalari // Инновационные разработки в сфере химии и технологии топлив и смазывающих материалов III международная научно-техническая конференсия, Ташкент, 19-20 сентабр, С. 208-210.

3. Paygamov R.A., Eshmetov I.D., Jo‘rayeva F.N., Chinor daraxti asosida faollantirilib olingan adsorbentlarning fizik-kimyoviy taxlillari // Bioorganik kimyo fani muammolari IX Respublika yosh kimyogarlar konferensiyasi materiallari, Namangan, 26-27 aprel 2019 yil, 150-152 b

4. Тарасевич Б.Н. ИК спектры основных классов органических соединений. МГУ имени М.В. Ломоносова, химический факультет,кафедра органической химии. -Москва 2012. 55 с.

5. Тўхтаев Ф.С., Негматов С.С., Негматова К.С.,Каримова Д.А., Джалилова И., Садинова О. Исследование кинетики сорбции ионов серебра композиционными полимерными сорбентами. Кимё фанлари доктори, профессор Акбаров Ҳамдам Икромович таваллудининг 70 йиллиги ҳамда илмий фаолиятининг 45 йиллигига бағишланган “Кимёнинг долзарб муаммолари” мавзусидаги Республика илмий-амалий анжумани тўплами. 4-5-феврал, 2021. 60 бет.

6. Tukhtayev F.S., Negmatov S.S., Negmatova K.S., Shonazarova N.U., Djalilova I.S., Sadinova O.O. Study of the kinetic properties of the developed composite polymer sorbents in various solutions // Austrian Journal of Technical and Natural Sciences № 11–12 2021 November – December. Pp27-31

“QOBUSNOMA” ASARIDAGI OILA BOSHQARUVI VA SHAXSIY MUNOSABATLAR XUSUSIDA

Nilufar Laziz qizi Maratova
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti talabasi
Ilmiy rahbar: **Mo‘minmirzo Zokir o‘g‘li Xolmo‘minov**
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6946185

Annotatsiya: Maqolada “Qobusnoma” asarining bugungi kundagi ahamiyati, unda bayon etilgan oila boshqaruvi, farzand tarbiyasi, ota-ona o‘rtasidagi munosabatlar, ta’lim tarbiya berish, jamiyat uchun kerakli shaxs sifatida kamolotga yetkazish kabi dolzarb masalalar xususidagi fikrlar bayon etilgan.

Annotation: The article describes the importance of the work "Nightmare" today, the current issues such as family management, child rearing, parent-parent relations, education, and development as a necessary person for society.

Kalit so‘zlar: Tarbiya, ilm, farzand, ota-ona, hurmat, munosabat, oila, rahbar, notiqlik, jamiyat, shaxs, qadriyat.

Key words: education, knowledge, child, parents, respect, relationship, family, leader, public speaking, society, personality, value.

…Olim beamal bo‘lmagay. Ilmni yaxshi o‘rgang‘il. Bilg‘on ilmingni yaxshi iboralar bilan bayon qilg‘il. Shundog‘ so‘zlarni aytg‘ilki o‘zing unga qodir bo‘lsang va senga ul so‘z yaxshi ma'lum bo‘lsa.

Kaykovus

Kaykovus (XI) To‘liq ismi Unsurul Maoliy Kaykovus. U G‘arbiy Eron podshohi Shamsul Maoniy Qobusning nabirasi bo‘lgan. Kaykovus o‘z o‘g‘li Gilonga bag‘ishlab “Qobusnoma” asarini pand-nasihat ruhida yozib qoldiradi. Kaykovus otaning burchi yana o‘z farzandiga adab ham o‘rgatishda, deb ta'kidlaydi. U ilm, hunar va adabni farzandga meros qoldirish har bir otaning farzandi haqqini bajargani, deb hisoblaydi.

“O‘z farzanding sening haqingda qanday bo‘lishin tilasang, sen ham, ota-onang haqida shunday bo‘lg‘il, nedinkim, sening haqingda shundoq ish qilur, chunki odam mevaga, ota-ona daraxtga o‘xshaydur. Daraxtni har qancha yaxshi tarbiyat qilsang, mevasi shuncha yaxshiroq va shirinroq bo‘lur. Ota-onang izzat va hurmatni qancha ko‘p qilsang, ularning duosi shuncha tezroq mustajob bo‘lur” [1:36]

Darhaqiqat,har biror ota-ona farzandi sog‘lom bo‘lib voyaga yetishi, o‘qishi, hunar o‘rganishi, sportga qatnashi, ilm olishi uchun doim sa'y-harakatda bo‘lmog‘i

lozim! Mamlakatimizda bozor munosabatlariga o‘tish jarayonida muayyan iqtisodiy qiyinchiliklar bo‘lishi tabiiy. Yoshlar jamiyatda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni o‘zgacha qabul qilishlari, qiyinchiliklar vujudga kelganda ehtiroslarga berilishlari, turli zararli g‘oyalar ta'sirlariga kirib ketishlari mumkin. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, yangi zamonga qadam qoyayotgan vaqtda yoshlar tarbiyasi ba'zi bir uzilishlar bo‘lishi mumkin. Agar oilada ota-onaning zehni, bilimi, tarbiyasi yuqori bo‘lsa, farzandda hech qanday muammolar vujudga kelmaydi. Ammo ba'zi oilalarda ota-onalar ko‘p xollarda bolalariga “yoshligimizda biz bundan og‘ir ishlarni bajarganmiz, sen bo‘lsang tayyorga ayyor bo‘lib o‘tiribsan” degan so‘zlarni ko‘p eshitamiz. Bolani doim qo‘rquvda, tazyiqda tutish juda noo‘rinli ishdir Bu asar ya'ni, “Qobusnoma” nafaqat o‘zining zamonasida balki hozirda ham ko‘plab yoshlarimizga ibrat bo‘lib kelmoqda. Hozirgi yosh avlod zamon bilan hamnafas yashab hurmat, oilada o‘zni qanday tutishi, ota-onasiga, qarindoshlar, yor-birodarlarga qanday munosabat, hurmat qilinishini unutib qo‘yishgan. Oiladek muqaddas dargohning ham o‘ziga muvofiq qonun va qoidalari mavjuddir. Oila jamiyatning quyi asosiy bo‘g‘inidir. U insonning hayotga kelishi, tarbiyalanishidagi asosiy makon Oila o‘z ichki munosabatlariga asoslanadi. Oilaning ichki munosabatlari qonun hujjatlariga, milliy va axloqiy qadriyatlarga asoslanadi. Oilaviy munosabatlar tabiiy, iqtisodiy, ma'naviy ehtiyojni qondirish zarurati yuzasidan vujudga keladi.

Har qanday jamiyatning mustahkamligi, rivoji oilaga bog‘liq. Chunki jamiyatda bo‘ladigan ijtimoiy munosabatlarning dastlabki elementi oilada vujudga keladi va shakllanadi.Oiladagi kattalarning bir-biri, bilan atrof-muhit, mol-mulkka bo‘lgan munosabati yoshlarning shu masalalarga munosabatini shakllanishi uchun o‘rnak bo‘ladi. Oiladagi tarbiyaning boshqa tarbiyalardan farqi, afzalligi tarbiya u yerda faqat o‘rgatish, o‘qitish, ta'kidlash, bilangina emas, barcha narsalarda katta yoshdagilarni kichik yoshlar uchun o‘rnak ko‘rsatishi orqali olib boriladi.Jamiyat oilalardan iborat ekan, o‘z-o‘zidan ma'lumki, jamiyat mustahkamligi oilaning mustahkamligiga bog‘liq va oilaning mustahkam bo‘lishidan jamiyat manfaatdor. Shuning uchun oilani har tomonlama qo‘llab- quvvatlash va himoya qilishni jamiyat o‘z zimmasiga oladi. Jamiyat oilalarni qo‘llab-quvvatlashda, ularni muhofaza qilishda katta imkoniyatlarga ega davlat xizmatidan foydalaniladi.

Oilani qo‘qllab-quvvatlash, muhofaza qilish davlatning konstitutsiyaviy burchidir. Davlatning oilaga g‘amxo‘rligi qonun asosiga qurilgan bo‘lib, avvalo, Oila kodeksida belgilangan.

“Qobusnoma” asarida har xil holatlarda so‘zlashish usulini aytib o‘tadi. Agar inson shirinsuxan bo‘lsa, uning nutqini hamma e’tibor bilan tinglaydi.Og‘zaki nutq bilan yozma nutq bir-biridan ma'lum darajada farqlanadi. Ma’lumki, og‘zaki nutq yozma nutqqa nisbatan ancha qadimiydir. Buyuk qomusiy olim Aristotel aytganidek,

“talaffuzdagi so‘zlar, aqliy tajribaning alomatlari bo‘lsa, yozuvdagi so‘zlar talaffuzdagi so‘zlarning belgilaridir”.

“Undoq eshitdimki, bir kecha Xorun ar-Rashid bir tush ko‘rdimkim, og‘zidin barcha tishlari to‘kulmish. Erta tong turib bir ta’birchini chaqirib so‘radikim, “bu tushning ta'biri nedur?”. Ta'birchi dedi: “Ey amiralmo‘minin, sening oldingda barcha xesh, aqrabo va qarindoshlaring o‘lg‘sidur.”Bu so‘zlarni eshitgan shoh “menga bu kabi tahdidli so‘zlarni aytishga qanday jur'at etding” deya u ta'birchini o‘limga mahkum qiladi. Shundan so‘ng yana boshqa ta'birchini chorlab unga ham tushini aytganda ta'birchi “Ey amiralmo‘minin, sening umring barcha aqrabolaringdin uzoq bo‘lur dedi. Bu so‘zlarni eshitgan shoh g‘azablanmay unga 1000 dirham pul hadya etdi” [4:56]

“Yaxshi so‘z ilonni inidan chiqaradi” deganlaridek kim shirinsuxan, har bir gapidan bol tomib turadigan insonning ishlari doimo a'lo darajada bo‘ladi.Shirinso‘z bilan kasal, tuzalmas insonni ham hech bo‘masa umrini ozgina muddatga uzaytirishi mumkin. Shirinso‘zlik hozirgi kunda shifokorlarimizga juda ham kerak bo‘ladi chunki birgina so‘zi bilan bemor odamga umid bag‘ishlaydi.Agarda oila a'zolar bir-biriga nisbatan shirin gapirsa bu oila juda ahil bo‘ladi. “So‘z dilning kaliti“,darhaqiqat, oila boshlig‘i ishdan siqilib yoki charchab kelganida uyda turmush o‘rtog‘i uni jahl bilan qarshi olsa, o‘rtada nizo chiqib, ajrashishgacha borishi mumkin. Bu kabi janjallarning tez bo‘lishi esa bolalarning psixologiyasiga juda yomon ta'sir qilishi mumkin.Nutq madaniyatiga erishish uchun hamma vaqt aniq-tiniq, hovliqmasdan, muloyimlik va mayin ovoz bilan gapirishga xarakat qilish kerak. Xovliqib aytilgan so‘zga tushunish ham juda qiyin bo‘ladi, juda cho‘zib, sekin gapirish ham suhbatdoshni zeriktiradi. Talaffuz etilgan har bir so‘z, bo‘g‘in va tovush aniq va ravshan jaranglashi lozim. Juda nozlanib gapirish ham xunuk odat.Ona tilini sevgan odam buzmaydi. Ajnabiy so‘zlarning aniq ma'nosini bilgan va ularni to‘g‘ri talaffuz eta oladigan kishi, agarda bu tushuncha, nom o‘zbek tilida bo‘lmasa, ularni o‘z nutqida ishlatishi mumkin. Xato gapirgan kishini mazax qilmaslik kerak.

“Agar sen podshohga nadimlik qilmoqchi bo‘lsang podshohning xizmatida nuqson qilmag‘il. Agar banogoh nuqson qilsang, o‘zingni nodonlikka solg‘il va ul nuqsonni bilmag‘ondek ko‘rgizg‘il, toki sening qasd bila qilg‘oningni podshoh bilmasin va bilmag‘oningga ishonsin.Xamisha podshohning g‘azabidin qo‘rqg‘il.Ikki narsani xargiz xor va yengil tutmag‘il: biri podshohning qahri, yana biri donishmandning pandi” [5:154].

Xalq bilan muloqot qilish, insonlar dardi, muammolarini samarali, tezkor hal qilishning sifat va mazmun jihatdan mutlaqo yangi tizim yaratildi. Inson manfaatlarini ta’minlash, odamlar bilan muloqot qilish, xalqning dard-u tashvishlari, hayotiy muammo va ehtiyojlarini yaxshi bilish va hal qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi prezidentining virtual va xalq qabulxonalari tashkil etildi. Bugungi

oqilona siyosat natijasi o‘laroq, har bir fuqaro, ayniqsa, yoshlar uchun keng imkoniyatlar eshiklari ochilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Кобуснома, Кайковус; С.Долимов, У. Долимов. Т.: “O‘qituvchi”, 2011. 208 б
2. Qarang: “Tafakkur” jurnali, 2000 y, 2-son
3. “Firdavs ul- iqbol” M.Ogahiy, Sh.Munis. “Yosh avlod”, 2009. 380 b
4. Кобуснома, Кайковус; С.Долимов, У. Долимов. Т.: “O‘qituvchi”, 2011. 208 б

FIZIKA FANI RIVOJLANISH TARIXINI O‘RGANISHNING DIDAKTIK JIHATLARI

Muydinova Madina Alisherovna
Andijon davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi
Abdunabiyeva Maftunaxon Solijon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
Ta’limda axborot texnologiyalari mutaxassisligi magistranti
Qosimjonova Xamidaxon Botirjon qizi
Andijon davlat universiteti Fizika-matematika fakulteti talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6946183

Annotatsiya: Ushbu maqolada fizika fanini rivojlanish tarixi o‘rganish bosqichlari, vazifalari, rivojlanishidagi fanlar bilan bog‘liqligi va rivojlanish tarixining davrlari haqida keng yoritilgan. Bundan tashqari, o‘quv darslarida fizika fani tarixini o‘qitishning ahamiyati va samaradorligi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: rivojlanish tarixi, analitik ma’lumot, tarixiy fakt, tabiatshunoslik, jamiyat qonunlari, astornomiya, ishlab chiqarish, ilmiy kashfiyot.

Insoniyat o‘zi yashayotgan olam to‘g‘risidagi bilimlarni to‘satdan va tayyor tugallangan holda ololmaydi. Oddiy, misol: Nyutonning qonunlari degan nom bilan ataluvchi hozirgi maktab o‘quvchisiga ham tanish bo‘lgan harakat qonunlarini tushunish minglab yillarni talab qilgan. Yana ko‘p yuz yillar davomida bu qonunlarning har doim ham har qanday holatlar uchun ham qo‘llab bo‘lmasliginii tushunildi[1]. Ya’ni juda katta tezlikdagi va juda kichik o‘lchamdagi zarrachalar harakatiga bu qonunlarni qo‘llab bo‘lmasligi aniqlandi.

Insoniyat bilmaslikdan bilishga bo‘lgan uzoq va mashaqqatli masofani bosib o‘tdi. Bunda u unchalik aniq va to‘liq bo‘lmagan bilimlarni aniq va to‘liq tushunchalar bilan almashtirib bordi.

Hech bir ish yo‘q joydan boshlanmaydi, balki har bir yangi avlod o‘zidan avvalgi o‘tganlar to‘xtagan joydan ishni boshlaydi va o‘zi amalga oshirgan ishlarni keyingi keluvchilarga topshiradi.

Bu yerda I. Nyutonning quyidagi so‘zlarini eslash muxum ahamiyat kasb etadi. “Agar men boshqalarga nisbatan uzoqni ko‘ra olgan bo‘lsam, buning sababi, men buyuk kishilarning yelkalarida turganligim uchundir”[2]. Yevklid va Arximedlarsiz Nyuton, Nyutonsiz Eynshteyn yoki Bor, Xorazmiy va Forobiysiz Beruniy yoki Ibn Sino, Umar Xayyom va Umar Chag‘moniysiz Ulug‘bek, bularsiz Qozizoda Rumiy (zamonasining Aflotuni) yoki Ali Qushchi bo‘lmas edi. Ya’ni, har bir avlod o‘zidan

avval o‘tganlar merosini o‘rganib, ular qoldirgan ishlar zaminida fan va texnikaning kelgusi rivojini amalga oshiradi.

Har qanday bilimning rivojlanish jarayonini o‘rganish alohida bir fan - tarix fanining asosiy masalasini belgilaydi. Shu jumladan fizika fani rivojlanish tarixi, fan tarixining bir bo‘lagini tashkil qilib, u fizika fanining rivojlanishi jarayonini o‘rganadi. Har qanday fanning asosiy vazifasi shu fan shug‘ullanayotgan sohada amalda bo‘lgan qonunlarni ochishdan iborat bo‘lganligi kabi fizika tarixi fanining ham vazifasi fan rivojlanishini boshqaruvchi qonunlarni yaratishdan iborat. Yuzaki qaraganda bunday qonunlarning bo‘lishi mumkin emasdek ko‘rinadi. Oldindan Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Arximed, Nyutonlarning dunyoga kelishini bilib bo‘lmaydi, olimlar fikri va tafakkurini boshqarib bo‘lmaydi. Tashqaridan bir ko‘rishda fan tarixi buyuk daholarning nazorat qilib bo‘lmaydigan faoliyatlari natijasiga o‘xshab ketadi. Albatta ular faoliyatini tabiatda yuz beruvchi biror harakat qonunlariga o‘xshash qolipdagi qonunlarga o‘xshatib bo‘lmaydi[3].

Mubolag‘asiz aytish mumkinki, fan bu insoning murakkab tafakurri va ijodiy faloiyat mahsulidir. Biroq fan rivoji muhum o‘rin tutuvchi ma’lum bir tarixiy sharoitlarda amalga oshadi. Bu narsani esa, albatta, ilmiy tahlil qilish mumkin. Tarixan ma’lumki ilm-fan rivoji iqtisodiy rivojlanish bosqichlariga bog‘liq. Qaysi joyda ishlab chiqarish, sanoat, madaniyat rivojlanishi yuqori bo‘lsa o‘sha joyda fan rivojlanishi ham yuqori darajada bo‘ladi. Hozirgi kunda bu yanada yaqqol namayon bo‘lib bormoqda.Chunki, ilm fan hozirgi davr rivojida juda katta ijtimoiy mablag‘ni talab qiladi.

Fizika fanini rivojlanish tarixi o‘rganish bir qator bosqichlarda amalga oshiriladi:

–ma’lumotlar yig‘ish

–analitik ma’lumotlar orasidagi bog‘lanish va sabablar

- analitik natijalarni umumlashtirish va fandagi asosiy qonunlarni ochish.

Fanning rivojlanish tarixi bu umumiy fizikaviy bilimlarning ajralmas bir qismdir, chunki fizika fanning o‘rganish bilan uning tarixi ham o‘rganib boriladi, bu fanning qonun qoidalarning ochilishi, ushbu qonun ochishda olimlarning tutgan o‘rnidir[4]. Fizika tarixini bilish uchun asosan shu qonunlarning yozilishini, asl nusxasini o‘rganish uchun asil ma’nosini o‘rganishda muhim o‘rin egallaydi.

Har qanday fanning tarixini o‘rganishda, bu fan aslida qanaqangi fan, bu fan o‘z taraqqiyotida umumbashariy rivojlanishda jamiyat taraqqiyotida qanaqangi o‘rin tutadi va qanday metodlar bilan o‘rganilishi kerak. Shu nuqtai nazardan qaragan fizika tarixi o‘rganish, jamiyat taqqiyotining bosqichini o‘rganishda tabiatshunoslik fanning yetakchilari bilan bir qatorda tutgan o‘rni muhimdir. Chunki fizika atrofimizni o‘rab olgan tabiat qonunlarni o‘rganish bilan bog‘liqlikligi tufayli, uni

o‘rganish tarixi ham juda qadimiy bo‘lib, hozirgi kungacha 2000 yildan ortiq vaqtni o‘z ichiga oladi[5].

Fizika fani o‘tgan XX asr davomida shunchalik o‘zgarib ketdiki, fizika fani o‘rganishda uning oddiy fizik xodisalardan boshlab uning hozirga kundagi murakkab taraqqiyotda davom etayogan taraqqiyotini inson ongiga singdirib borish uchun ham fizikani fan tarixi bilan biog‘lab o‘rganish muximdir. Fizika tarixi fani fizikaviy bilimlarning ajralmas bir qismdir.

Shu sababli fizika fanini o‘rganish fizika o‘qituvchilaridan fizikani chuqur o‘rganish, uni analiz qilish, qonunlarining bir biriga bog‘liqligini ochib berish, o‘quvchilarga uni bir-biri bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatib berish, qonunlarni moxiyatini tushuntirish, fanning jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rnini ochib berilishidan iboratdir.

Fizikaning rivojlanish tarixini o‘rganishda quyidagi vazifalarni amalga oshiriladi:

- Tarixiy faktlarni topish va oydinlashtirish;
- Tarixiy faktik materiallarni analiz qilish, uning moxiyatini ochish;
- Fizikaviy umumiy qonunlarni o‘zaro bog‘liqligini ochish.

Dunyo taraqqiyotidagi barcha fanlar tarixi asosiy imkoniyat yo‘nalishidagi vazifani hal qiladi:

1. Tabiat qonunlari tarixi;
2. Jamiyat qonunlari tarixi.

Tarixiy fanlar shuni ko‘rsatadiki, fizika fani o‘z rivojlanishida boshqa fanlar bilan birinchi navbatda tabiatshunoslik fani tarixi bilan uzviy bog‘liqdir, fizika fani esa bu fanlarning rivojlanishida o‘zining munosib xissasini qo‘shadi. Shuning uchun ham ko‘pgina fanlar rivojlantirgan olimlarni ham ko‘p qirrali deb qarashimiz mumkin. Bular fizika, astronomiya, ximiya, biologiya, matematika va h.k. fanlarning rivojlanishiga kattagina hissa qo‘shgan olimlar Abu Rayxon Beruniy, Mirzo Ulug‘bek, Ibn Sino, R. Boel, E. Mariott, G.Kavendesh va boshqalar shular jumlasidandir. Fanlar tarixini o‘rganar ekanmiz qadimda bu fanlarning barchasi falsafiy qarashlardan kelib chiqqanini ko‘rishimiz mumkin. Qadimda olimlarning “Donolik ishqibozlari” deyilgan[6]. So‘ngra fanlar o‘rganilib qonuniyatlarning ochilishi natijasida barchasi alohida fan sifatida shakllana bordi.

Fizika fani ham o‘z rivojlanishida ko‘pgina fanlar bilan bog‘liqdir.

Masalan fizika fani o‘z rivojlanish tarixida matematika fani bilan uzviy bog‘liqdir, chunki matematikasiz fizik qonunlari tushuntirish mumkin emas.

Matematikani ilmiy metod sifatidagi ahamiyati fizikani o‘qitishda juda keng va yaxshi o‘z aksini topdi. Ular matematika formulalarida ifodalanadi, bular esa fizik qonunlardan xulosaalar chiqarishda ayrim holatlarni isbotlashda va fizik masalalarni echishda ishlatiladi. Fan tarixida minglab yillar davomida astronomlar osmon

xodisalari to‘g‘risida faqat ko‘zga ko‘rinadigan yorug‘lik vostasida olinadigan informastiya bilan cheklanib keladilar. Ular bu xodisalarni elektromagnit nurlanishlarning keng spektridagi torgina tirqishi orqali o‘rganar edilar deb aytish mumkin. 1965- yillar radiofizikasining rivojlanishi tufayli radioastronomiya vujudga keldi va bizning koinot haqidagi tasavvurlarimiz xaddan tashqari kengayib ketdi. So‘ngi yillarda muxim o‘zgarishlar bo‘ldi. Astronomiyadagi astrofizika ko‘proq ahamiyat kasb eta boshladi va ishlab chiqarishni rivojlantirishda, ishlab chiqarish jamiyatning moddiy farovonligining o‘sishiga olib keladi[7]. Demak, fanning rivojlanishi ishlab chiqarishni boshqarar ekan, ishshlab chiqarish fizikaning yangi qonunlar ochishiga har doim ta’zyiq o‘tkazib turadi. Masalan, Gyugensning mayatnik nazariyasi – mexanik soatning ixtiro qilishga olib keldi. Termodinamikadan S.Karno stikli bug‘ mashinsining ixtiro etinlishiga asos bo‘ldi. A.S.Popov tomonidan radioning kashf etilishi radiofizikaning rivojlanishiga olib keldi va hakozolar.

Shuningdek fizika fanining rivojlanish tarixi nazar solsak, fanning taraqqiyoti bevosita ishlab chiqarishni rivojlantirish tarixi bilan bog‘liqligini ko‘ramiz. Chunki fizik fanining yutuqlari bevosita texnika va texnalogiyalarda qo‘llanib, u esa o‘z navbatida ishlab chiqarish kularini rivojlantirishda muxim o‘rni egallaydi. Fizika fanining rivojlanishi jamiyatning ijtimoiy tuzilishiga ham bog‘liqdir. Chunki fanning rivojlanishida jamiyatning iqtisodiy siyosiy tuzilishi ham muhim rol o‘ynaydi. Masalan: Quldorlik tuzumi davridan keyingi ilk feodalizm davrida fan taassurotlar bilan rivojlanmadi, chunki o‘sha davrdagi quldor ham, feodal ham ishlab chiqarishni rivojlantirishi bilan qiziqmas edi.

Fizika faqat ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘libgina qolmay, u barcha tabiiy fanlar bilan ham bog‘liqdir. Buni qanning tarixi o‘rganishimizda ko‘rib boramiz.

Fizika fani rivojlanish tarixini quyidagi davrlari uning rivojlanishiga qarab o‘rganib boriladi.

1. Qadimgi zamon fizikasi(fizik tushunchalarning shakillanish davri)
   a) antik davr fizikasi (eramizdan oldingi III asrga qadar bo‘lgan davr)
   b) O‘rta asr fizikasi (III-X asr)
   v) Geliostentrik sistema uchun kurash(X-XVI asr)
2. Klassik fizikaning asosiy yo‘nalishlar shakllanisi davri
   a) Ilmiy inqilobning tugallanishi (XVIII asr).
   b) Fizikaning asosiy yo‘nalishlarining rivojlanishi (XIX asr).
3. Fizikada ilmiy inqilobning asosiy yo‘nalishlari (zamonaviy fizika shakllanisl davri)
   a) Elektron nazariya va elektrodinamikaning rivojlanishi.
   b) Eynshteyning nisbiylik nazariyasi
   v) Atam va yadro fizikasining rivojlanishi.

g) Fizikaviy inqilobning birinchi bosqichi Rezerford-Bor nazariyalar, kvant mexanikaning rivojlanishi.

d) yadro fizikasining rivojlanishi 1918 – 1938 yillar.

Fizika fani mazmuni fizikaning rivojlanish bosqichlari bo‘yicha tanlansa, maqsadga muvofiq bo‘ladi[8]. Chunki fizika fanining rivojlanishi jamiyatning iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi bilan birgalikda qaralishi lozim. Ma’lumki, har qanday fanning rivojlanishi jamiyat ehtiyojlarini qondirish bilan uzviy bog‘liqdir.

Shunday qilib fizika fani rivojlanish tarixini o‘rganish o‘quv jarayoni va tarbiyaning ko‘pgina muammolarini hal etish bilan birgalikda, fizika fanini o‘qitish uslubining ham rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Tarixiy hujjatlardan dars jarayonida quyidagi shakllarda foydalanish tavsiya etiladi:

- tarixiy voqyea va hujjatlar asosida kirish so‘zi bilan muammoli vaziyatni yuzaga keltirish orqali darsning samaradorligini oshirish;
- o‘tilgan mavzuni yakunlashda o‘quvchilar bilimini bir tizimga keltirish maqsadida tarixiy hujjatlardan foydalanish;
- o‘quvchilar bilimining ishonarli bo‘lishiga erishish uchun buyuk kashfiyotlar, fundamental tajribalar tarixini bayon etish;
- o‘quvchilar shaxsini takomillashtirish, milliy mafkura va tarbiyani amalga oshirish maqsadida buyuk olimlar hayoti va ilmiy faoliyatidan ayrim lavhalarni keltirish;
- tarixiy mazmundagi masalalardan dars jaryonida foydalanish. Tarixiy hujjatlarni ushbu shaklda bayon etish shartli bo‘lib, ba’zan, bir necha usullar birgalikda qo‘llanilishi mumkin[9]. O‘tilayotgan mavzu ishonarli bo‘lishi uchun tarixiy tajribalar, kashfiyotlar, chizmalar, grafiklar, rasmlar, modellar orqali tushuntiriladi. Xuddi shuningdek, moddiy va abstrakt modellar, kinofilmlardan foydalanish ham mumkin.

O‘rta maktab fizika kursida 100 dan ortiq fizik olimlar nomi qayd etiladi. Ushbu olimlarning hayoti va ilmiy kashfiyotlari qanchalik darajada va qanday tartibda berilishi kerak. Albatta, o‘quv rejasida keltirilgan vaqt davomida barcha olimlarning hayoti va ilmiy faoliyatini to‘la yoritishning imkoniyati yo‘q. Shu sababli ba’zi olimlar hayotidan ayrim lavhalarni, jumladan, dars mavzusiga mos kelganlarini tanlab olish maqsadga muvofiqdir. Ba’zan olimlar tomonidan aytilgan hikmatli so‘zlar, masalan,T.Yung aytganidek, «Odam qilgan ishni boshqa odam ham bajara oladi» yoki olimlar tomonidan aytilgan hazil-mutoyibalar darsning qiziqarli o‘tishiga sabab bo‘ladi.

Buyuk olimlar hayotidan lavhalar keltirish orqali yoshlarda mehnatsevarlik, halollik, vatanparvarlik kabi tuyg‘ularni shakllantirishga erishiladi. Masalan: alXorazmiy, Ibn Sino, Beruniy, Forobiy, Ulug‘bek, Qori Niyoziy, R.Bekjonov, A.K.

Otaxo‘jayev kabi olimlarimizning hayoti va ilmiy faoliyatini yoritish orqali milliy g‘urur, iftixor, mustaqillik, ozodlik g‘oyalarini o‘quvchilar ongiga singdirish imkoniyati yaratiladi. Olimlar hayoti bilan tanishish jarayonida ularning faqat ijobiy tomonlari olinmasdan, balki, turmushda va ilmiy izlanishda yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklari to‘g‘risida ham to‘xtash maqsadga muvofiqdir. Masalan V. Tomson va Klauziuslarning «Olamning issiqlik halokati» to‘g‘risidagi fikri yoki "Efir", "teplorod" nazariyasi tarafdorlarining noilmiy fikrlari darsning qizikarli bo‘lishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, dars jarayonida buyuk fizik olimlarning dunyoqarashi va ilmiy kashfiyotlari haqida ma’lumotlar berish orqali darsni qiziqarli o‘tish va uning samaradorligini oshirish kabi bir qator didaktik vazifalarni amalga oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kudryavsev P.S. Kurs istorii fiziki. M. 1989;
2. Ziyaxanov R.F., Mirzayev A.T., Astronomiya va fizika tarixi, I qism, Toshkent, 2008;
3. Pannekuk A, Istoriya astronomii, M., Nauka, 1966;
4. Mirzayev A.T. Astronomiya tarixi. (ma’ruzalar matni). T. O‘zMU. 2000;
5. Mamadazimov M.M. Astronomiya va fizika tarixi. (ma’ruzalar matni), T. TDPU, 2001;
6. Mamadazimov M.M. Ulug‘bek va uning rasadxonasi, T. O‘zbekiston, 1994;
7. Gorbatskiy V.G., Leksii po istorii astronomii. SPgu, 2002;
8. Astronomicheskiye dati i otkritiya, http://astro.websib.ru/istor/istor.htm;
9. http://naturalhistory.narod.ru/Page_1.htm.

O‘QUVCHILARNI FIZIKADAN MANTIQIY MASALALAR YECHISHGA O‘RGATISH

Abdunabiyeva Maftunaxon Solijon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
Ta’limda axborot texnologiyalari mutaxassisligi magistranti
Qosimjonova Xamidaxon Botirjon qizi
Andijon davlat universiteti Fizika-matematika fakulteti talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6946180

Annatatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim muasasalarida fizika fanidan mashg‘ulotlarni tashkil etishda talabalar faolligini oshirish va fanga qiziqishlarini shakllantirishda mantiqiy masalalarning ahamiyati yoritilgan bo‘lib, mantiqiy masalalar talabalarni to‘g‘ri fikrlashga, haqiqatni bilishga, shu jumladan, fikrlar o‘rtasidagi aloqadorlikni ko‘rsatadigan qonun-qoidalar haqida mushohada yuritishga va muhokama qilishga o‘rgatishi to‘g‘risida tahlil etib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ong gimnastikasi, mantiqiy muammo, formulasiz matematika, grafiklar usuli, fikrlash usuli, blyard usuli, fikrlash san’ati.

Mantiq – to‘g‘ri tafakkur yuritishning asosiy qonunlari va shakllari haqidagi fan. Mantiqga oid dastlabki fikrlar qadimgi sharq mamlakatlarida xususan, Hindiston, Xitoyda vujudga keldi. Yunon falsafasida mantiq masalalari dastlab Parmenidning “Tabiat to‘g‘risida” asarida, Eleyelik Zenonning aporiyalarida, Geraklit ta’limotida u yoki bu darajada ko‘rib chiqilgan. Aristotel “ma’lum bilimlardan noma’lum bilimlarni aniqlovchi“, “chin fikrni xato fikrdan ajratuvchi” fan sifatida ta’riflaydi. Aristotelning mantiqqa oid ta’limoti Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushedlarning mantiqga oid asarlari orqali Yevropaga kirib keldi[1].

Mantiqqa oid vazifalar, matematika singari, “ong gimnastikasi” deb nomlanadi. Ammo, matematikadan farqli o‘laroq, fizika fanidan mantiqiy vazifalar qiziqarli gimnastika bo‘lib, bu fikr jarayonlarini ba’zan kutilmagan tomondan sinab ko‘rish va mashq qilish imkonini beradi. Ularni hal qilish uchun tezkor aql, ba’zan sezgi kerak, ammo maxsus tayyor bilim kerak emas, balki fikrlashni mashq qilinishi talab etiladi. Mantiqiy muammolarni hal qilish muammoning holatini batafsil tahlil qilish, belgilar yoki obyektlar o‘rtasidagi qarama-qarshi aloqalarni ajratib olishdan iborat. Bolalar uchun mantiqiy vazifalar, qoida tariqasida, mashhur aktyorlar bilan bog‘liq barcha voqealar bo‘lib, unda siz odatlanib, vaziyatni his qilishingiz, uni vizual ravishda ko‘rishingiz va aloqani ushlashingiz kerak.

Hatto eng murakkab mantiqiy muammolarda ham raqamlar, vektorlar, funksiyalar mavjud emas. Ammo bu yerda matematik va fizik fikrlash usuli kerak:

asosiysi mantiqiy vazifani anglash va tushunishdir. Har doim ham yuzada yotadigan eng aniq yechim to‘g‘ri emas. Ammo aksariyat hollarda, chalkash vaziyatga qaramay, mantiq muammosini hal qilish birinchi qarashda ko‘rinadiganidan ancha sodda masaladir. Mantiq bo‘yicha muammolarni yechish jarayoni matematik mantiq - alohida fan bo‘lib hisoblanadi va “formulasiz matematika” deb nomlanadi. Mantiqni fan sifatida Arastu matematik emas, balki faylasuf yaratgan. Va mantiq dastlab falsafaning bir qismi, fikrlash usullaridan biri sifatida vujudga keldi. “Tahlil” asarida Aristotel 20 ta mulohaza sxemasini yaratdi, ularni sylogizmlar deb atadi. Uning eng mashhur sylogizmlaridan biri: “Sokrat - bu odam; hamma odamlar halokatli; u holda Sokrat o‘limga mahkum. Mantiq (boshqa yunon tilidan. Λογική - nutq, mulohaza, fikr) - bu to‘g‘ri fikrlash ilmi yoki boshqacha qilib aytganda "fikrlash san’ati"[2].

Mantiqiy muammolarni hal qilishning ma’lum usullari mavjud:

Eng oddiy mantiqiy vazifalar hal etiladigan *fikrlash usuli*. Ushbu usul eng arzimas deb hisoblanadi. Yechish jarayonida muammoning barcha shartlarini ketma-ket hisobga oladigan, asta-sekin xulosaga va to‘g‘ri javobga olib keladigan fikrlash usuli qo‘llaniladi.

Matnli mantiqiy muammolarni yechishda ishlatiladigan *jadval usuli*. Nomidan ko‘rinib turibdiki, mantiqiy muammolarni hal qilish muammoning holatini tasavvur qilish, fikrlash jarayonini boshqarish va to‘g‘ri mantiqiy xulosalar chiqarishga yordam beradigan jadvallarni tuzishdan iborat.

Grafiklarning usuli - voqealarni rivojlantirishning mumkin bo‘lgan variantlari va yagona to‘g‘ri yechimni yakuniy tanlash orqali saralashdir. *Oqim jadvali usuli* - bu dasturlashda va mantiqiy transfyuzyon muammolarini hal qilishda keng qo‘llaniladigan usul. Dastlab bloklar ko‘rinishida operatsiyalar (buyruqlar) ajratilganligi, undan keyin ushbu buyruqlarning bajarilish tartibi belgilanadi. Bu blok-diagramma bo‘lib, u asosan dastur bo‘lib, uni amalga oshirish vazifani yechishga olib keladi. *Bilyard usuli* trayektoriya nazariyasidan kelib chiqadi (ehtimollik nazariyasining bo‘limlaridan biri). Muammoni hal qilish uchun bilyard stolini chizish va har xil yo‘llar bo‘ylab bilyard to‘pining harakatlari bilan izohlash kerak. Bunday holda, mumkin bo‘lgan natijalar to‘g‘risidagi yozuvlarni alohida jadvalda saqlash kerak[3].

Ushbu usullarning har biri turli sohalardagi mantiqiy muammolarni yechishda qo‘llaniladi. Sizga 6, 7, 8, 9-sinf fizika darslari uchun mantiqiy topshiriqlarni taqdim etamiz. Buning uchun nafaqat o‘quvchilar, balki o‘qituvchilar uchun ham qiziqarli bo‘lgan mantiqiy masalalarni tanladik.

O‘qituvchilar uchun tavsiyalar:

• bolaning yoshi va rivojlanishiga mos ravishda mantiqiy vazifalarni tanlang.

• javobni berishga shoshilmang, bolaning o‘zi mantiqiy muammoning yechimini topsin. U to‘g‘ri qaror qabul qilsin va uning javobi berilgan javobga to‘g‘ri kelganda, qanday zavq va shavq his etishini ko‘rasiz.

• Mantiq bo‘yicha muammolarni yechishda, savollarni va aks ettirish yo‘nalishini ko‘rsatuvchi bilvosita ko‘rsatmalar qabul qilinadi. Javoblar bilan mantiqiy vazifalarni tanlagan holda, siz haqiqatan ham mantiqiy muammolarni qanday hal qilishni, ufqingizni kengaytirib, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishni o‘rganasiz.

1. *Masala. Magnit.* Sizning qo‘lingizda ikkita mutlaqo bir-biriga o‘xshash metall silindr bor, ulardan biri magnitdir. Boshqa obyektlar bilan aloqa qilmasdan, silindrning magnit ekanligini qanday aniqlash mumkin?

Javob. Magnit qutblarida magnit kuchlanishning maksimal qiymati mavjud. Bizning holatda magnit kuchlanishning maksimal qiymati silindrning so‘nggi yuzalarida kuzatiladi. Magnitning o‘rtasiga yaqinlashganda, magnitlanish zaiflashadi, juda o‘rtada, uning kattaligi nolga teng. Shunday qilib, agar “T” shaklidagi ulanish amalga oshirilsa, silindrlar birbiriga yopishib qolsa, u holda uning uchi bilan aloqa qiladigan silindr magnit bo‘ladi.

2. *Masala. O‘rmonning shovqini.* Sizningcha, ignabargli va bargli o‘rmonlarning shovqini bir xilmi?

Javob. O‘rmonda shamolning shovqini daraxt turlariga qarab o‘zgaradi. Qarag‘ay va qoraqarag‘aylar shamolni tez-tez va ketma-ket urib yuboradi; bu juda baland ohang bilan hushtak ovozini chiqaradi. Shovqin doimiy ravishda bargli o‘rmonda turadi, chunki barglarning keng yuzasi shamolni kichik oqimlarga aylantiradi. Barglari titraydi, birbirlariga ishqalanadi, shitirlaydi. Bahorda, barglari yosh va mayin bo‘lsa, ularning shitirlashi yumshoq bo‘ladi; u kuzda, barglari qaqshaganida qo‘pol bo‘ladi.

3. *Masala. Ingichka simning diametri.* Qanday qilib faqat chizg‘ich va qalam yordamida ingichka simning diametrini maksimal aniqlik bilan o‘lchash mumkin?

Javob: simni qalamga mahkam o‘rash (dumaloq, qirrasiz) va kamida o‘nta burilish qilish kerak (o‘lchash qanchalik aniq bo‘lsa shuncha yaxshi.). Keyin chizg‘ich bilan birinchi aylanadan oxirgi aylanagacha millimetrda o‘lchang va hosil qilingan aylanalar soniga bo‘ling.

4. *Masala. Soatni yurishi.* CHo‘ntak soatingizni stol ustiga qo‘ying, bir necha qadam narida yurib, ularning ovozini tinglang. Agar xona yetarlicha jim bo‘lsa, u holda sizning soatingiz uzilishlar bilan ishlayotganini eshitasiz: u qisqa vaqtga davom etadi, keyin bir necha soniya davomida to‘xtaydi, keyin yana yurishni boshlaydi va hokazo. Soatni bunday notekis yurishini qanday izohlashimiz mumkin?

Javob. Soat ohangidagi sirli tanaffuslar eshitishning pasayishi bilan izohlanadi. Bizning eshitishimiz bir necha soniya davomida zerikarli bo‘lib qoladi va shu vaqt oralig‘ida biz eshitmaymiz. Qisqa vaqtdan so‘ng, charchoq o‘tadi va oldingi sezgirlik tiklanadi, keyin yana soatni eshitamiz. Keyin yana charchoq paydo bo‘ladi va hokazo.

Xulosa qilib aytganda, fizika darslarida sifatiy, miqdoriy va grafik masalalar bilan bir qatorda mantiqiy masalalardan foydalanish o‘quvchilarning tezkor fikrlashga o‘rgatadi, darslarni qiziqarli va jazibali o‘tkazilishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Omonov X.T., Ho‘jayev N.X. va boshq. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: “Iqtisod–Moliya”, 2009;
2. Nazirov E.N., Xudayberganova z.a., Safiullina N.X. Mexanika va molekulyar fizikadan praktikum. - T.: ” O‘zbekiston”, 2001;
3. Tursunov SH.Q., Toshpo‘latov CH.X. Fizikadan laboratoriya mashg‘ulotlari. – T.: “Tafakkur qanoti”, 2017;

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA DARSLARI ORQALI O‘QUVCHILARNI KASB – HUNAR TANLASHGA TO‘G‘RI YO‘NALTIRISH

Marg`uba Abdujalilovna Tursunova
O`zbekiston tumani 17-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6946195

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” asosida PF-5712-son Farmoni qabul qilingan.Ta’lim tizimida mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida qator loyiha va chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan.Xususan, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun “Yangi avlod darslik”larini yaratish va “Texnologiya” fanini rivojlantirish masalalari oldinga surilgan.

“Texnologiya” fani bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni o‘quvchiga qiziqarli, tushunarli qilib, soddalashtirib, oddiydan murakkabga qarab bosqichma-bosqich o‘rgatib borishda har bir o‘qituvchi o‘ziga xos usullardan foydalanishi tabiiy.

Texnologiya fani mutaxassis tayyorlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymaydi, balki, u o‘quvchi shaxsini rivojlanishi uchun vosita hisoblanadi. Buyuk allomalarimiz ham bola shaxsini to‘g‘ri o‘sib unishi, rivojlanishi uchun ta’lim – tarbiya masalalariga katta e’tibor berganlar. Jumladan Ibn Sino bobomizning fikricha bolaga yoshligidan ma’lum bir kasb-hunarni o‘rganishga to‘g‘ri yo‘naltirish va buni o'rgatish, bola kasb hunarni ma'lum darajada o'rganib bo'lgach esa, uni o'sha paytdan boshlab kasb – hunaridan foydalanishni va mustaqil hayot kechirishni ham o‘rgatib borish lozimligini ta’kidlagan.

O‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘naltirishda “Kasb o‘zi nima?” degan savol tug‘iladi. Kasbga esa quyidagicha ta’riflar berilgan.

Kasb bu – insonga ma’lum bir talablar qo‘yuvchi faoliyat turidir.

Kasb – insonni jamiyat tomonidan tan olinishdir

Kasb – tiriklik va tirikchilik manbayi

Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi ham nafaqat o‘quvchilarga ilm – fan olamining dastlabki bilimlarini beradi, balki ushbu jarayonda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltiradi. O‘quvchi bolaligidan biror bir kasbga mehr qo‘yadi, uni orzu qiladi, shu kasb egasi sifatida o‘zini tasavvur qiladi.

Kasb tanlash juda muhim masala bolib ko‘pincha o‘quvchilar buni mustaqil hal qila olmaydilar. O‘qituvchilarning ish tajribasi o‘quvchilarni to‘g‘ri kasb tanlashlariga xizmat qilishi va ularga yordam berishi lozim.

Ulardan asosiylari esa quyidagilardan iborat:

1.Darslarda kasb tanlashga yo‘llash. O‘qituvchi o‘quvchilarni texnologiya darslarida bajarayotgan ishi bilan bog‘liq kasblar bilan tanishtiradi.

Masalan: Yangi milliy o‘quv dasturi asosida yaratilgan 1-sinf texnologiya darsida “Uycha qurish” mavzusi orqali o‘quvchilarga quruvchilik kasbi haqida tushuncha beriladi va quruvchi kasbiga nisbatan hurmat hissi shakllantiriladi. Ularning mashaqqatli mehnatlariga havas uyg‘otiladi. Demak 1-sinfdanoq o‘quvchilarga kasblar haqida tushunchlar texnologiya darslari orqali shakllantiriladi.

Hozirgi kunda telefon, kompyuter kirib bormagan xonadon bo‘lmasa kerak. Har bir o‘quvchida kompyuter o‘yinlariga qiziqish katta ekanligi hech kimga sir emas. Ularning shu qiziqishlaridan o‘rinli foydalangan holda o‘quvchilarga 4- sinf texnologiya darsligiga kiritilgan “Muhandis – dasturchi” kasbi haqida tushuncha berish va bu kasbga qiziqish uyg‘otish mumkin. Telefon va kompyuterdagi eng qiziq o‘yinlarni ham dasturchilar yaratganini, dasturchi nafaqat o‘yinlar yaratishi bu yuqori texnik ma’lumotga ega, muhandislik sohasida ham, dasturlash sohasida ham yetarli ma’lumotga ega shaxs ekanligi hozirgi kunda eng mashhur kasblardan biri ekanligini to‘g‘ri tushuntirish lozim.

Texnologiya darsligiga kiritilgan mavzulardan biri bo‘lgan “Zamonaviy kasblar. Marketolog” mavzusi orqali o‘quvchilarga marketolog bu tashkilotning mahsuloti yoki xizmatini bozor talablariga mos darajada olib chiqish bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis ekanligi va bu kasb egalariga bizning yurtimizda ham ehtiyoj katta ekanligini tushuntirib o‘tishi lozim.

Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida dizaynerlik, mavzusiga va “Kvilling” hamda “Applikatsiya” usulida turli xil manzaralar, gullar yasashga ham alohida e’tibor berilgan bu esa o‘quvchilarni ijodkorlik qobilyatlarini o‘stirishga va dizaynerlik kasbiga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga xizmat qiladi.Shu o‘rinda o‘qituvchi o‘quvchilarga dizayner kasbi va ular shug‘ullanadigan ishlar haqida ma’lumot berib o‘tishi lozim. Demak, dizayner – narsa va obyektlarni bezash, ularga rasm chizish, tasvir tushirish bilan shug‘ullanuvchi shaxs.

Bundan tashqari texnologiya darslarida tikuvchilik, to‘quvchilik. kashtachilik mavzulari uchun alohida soatlar ajratilgan bo‘lib o‘quvchilarga ushbu hunar sirlarini dastlabki bosqichlarini o‘rgatish va shunday hunarmandchilik turlari bilan shug‘ullanuvchi insonlarning ish joylariga sayohatlar uyushtirish, ularning mahsulotlari, jamiyatga, oilasiga keltirayotgan foydasi haqida ma’lumotlar berib o‘tish ham ayni muddaodir.

Boshlang‘ich maktablarda texnologiya fanining asosiy vazifalari o‘quvchilarni mehnatga tayyorlash, o‘qitish, va umumiy ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida qo‘l mehnatiga o‘rgatish kasblar to‘g‘risida ma’lumotlar berish, davlat ta’lim standartlari talabi bo‘yich tarbiyalash hamda o‘quvchilarni kasb hunar egasi

bo‘lib yetkazishda nazariy va amaliy bilim berishda mehnat madaniyatini shakllantirishdan tashkil topgan.

Boshlang‘ich sinflarda texnologiya fanidan ajratilgan har bir soatlardan o‘qituvchi shunday mohirlik bilan foydalanishi kerakki mavzular orqali aqliy va jismoniy mehnat turlari bilan tanishtirish bilan bir qatorda kasblar haqidagi dastlabki tushunchalarni o‘quvchilarga yetkazib borishi ham juda zarur.Ayniqsa, o‘qituvchi har bir o‘quvchining kasbga bolgan qiziqishini ertaroq anglab uning qiziqishlarini ham hisobga olib ish ko‘rishi lozim va uning bilim va uquvlarini chuqurlashtirib unga yoqadigan kasbga nisbatan mehr hamda qiziqish uyg‘otishi lozim

Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilari kasb tanlashdan hali uzoq turadilar. Biroq ular o‘rtasida to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan kasb tanlash ishi shunday bir negiz bo‘lishi ke-rak – ki, o‘quvchilar yuqori sinflarga o‘tganda, mustaqil hayotga qadam qo‘yganda to‘g‘ri kasb tanlaganlariga amin bo‘lishlari lozim.

Xulosa sifatida qayd etish mumkinki, o‘quvchilarni o‘z vaqtida to‘g‘ri kasbga yo‘naltirish mamlakat taraqqiyotining kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X.Sanaqulov, D.Xodiyeva. Mehnat va uni o‘qitish metodikasi. – T.; Tafakkur bo‘stoni, 2015, – 71 b

2. I. A. Mannopova, D. M. Sayfunov. Texnologiya Umumiy o‘rta ta’lim maktablaining 4 – sinfi uchun darslik. – T. ; O‘qituvchi, 2020.

3. Axmedov Ildar Gennadevich “Molodoy ucheniy” № 21. 2019, – 615 b

4.Dilbar Mirahmedova Texnologiya 1 Metodik qo‘llanma. – T – 2021

TOG`RAYHON (ORIGANUM TYTTANTHUM) O`SIMLIGINING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI

Salmonbek Murodali o`g`li Abdullayev
Termiz davlat universiteti tabiiy fanlar fakulteti talabasi
Muxlisa Muxiddinqizi Muxiddinova
Termiz davlat universiteti tabiiy fanlar fakulteti talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6946761

Annotatsiya: Ushbu maqolada Tog`rayhon (Origanum tyttanthum) o`simligining o`ziga xos xususiyatlari, tibbiyotdagi va xalq xo`jaligidagi ahamiyatlari keltirilgan.

**Kalitso`zlar:** Tog`rayhon (Origanum tyttanthum), yalpizdoshlar (Lamiaceae), mayda gulli tog`rayhon, tog` qora rayhoni, o`rmon yalpizi, sebinak.

Tog`rayhon (Origanum tyttanthum).** Bu o`simlik yalpizdoshlar (Lamiaceae) oilasiga mansub o`simlik hisoblanadi. Tog`rayhon ko`p yillik efirmoyli o`simlik hisoblanadi. Tog`rayhon quruq, ochiq o`tloqlarda, quruq o`rmon va o`rmon chetlarida, tepaliklar, qiyaliklar, toshloqlarda va butazorlarda o`sadi. U asosan Rossiyaning Yevropa qismida, Kavkaz, Sibirning janubida hamda qisman Qozog`iston va Qirg`izistonning ayrim joylarida uchraydi. O`zbekistonda oddiy tog`rayhon o`smaydi. Lekin shu o`simlik bilan birga ishlatishga ruxsat etilgan boshqa turi-**mayda gulli tog`rayhon O`zbekistonning tog`li nohiyalarida tog`larning pastki va o`rta qismidagi mayda toshli qiyalarda o`sadi. Uni tog` qora rayhoni, o`rmon yalpizi, sebinak ham deb atashadi.

Tog`rayhon (Origanum tyttanthum). Ko`p yillik,bo`yi 30-60, ba`zan 90 sm ga yetadigan xushbo`y o`t o`simlik. Poyasi bir nechta,tik o`suvchi yuqori qismi sershoxli, tukli va to`rt qirrali bo`ladi. Bargi oddiy, cho`ziq tuxumsimon,o`tkir uchli, tekis qirral ibo`lib, bandi bilan poyada qarama- qarshi o`rnashgan. Gullari mayda,barg qo`ltig`ida 2-3 tadan joylashib, qalqonsimon to`pgul hosil qiladi. Qalqonsimon to`pgullar poya uchida ro`vaksimon to`pgulni vujudga keltiradi. Mevasi–kosachabarg bilan birlashgan to`rtta yong`oqcha. Iyun oyidan boshlab sentabrgacha gullaydi.

Hayotiy shakli ko‘p yillik, poyasi siyrak va qisqa tukli yoki tuksiz, barglari 10-15 (40) mm uzunlikdagi tuxumsimon- elipsimon yoki cho‘zinchoq, poyasiga qarab xanjarsimon, cho‘qisi o‘tkir yoki xanjarsimon tikanli, deyarli yalong‘och, ko‘zga ko‘ringan tomirlar bo‘ylab tinq, qizg‘ich, aniq ko‘rinadigan bezlar bilan qoplangan va chekka bo‘ylab kam kiprikli, butun. (Flora SSSR 1954-y.20-t. 466-469-b)

Tarkibida efirmoyi, geranilatsetat, askorbinkislota, timol, karvakral, oshlovchi moddalar, urug`ida o`ttiz foizgacha moy bor.

Uning yer ustki qismida 0,56-0,58 %, bargida 0,68-0,72 %, to`pgulida 0,56-0,65% efirmoyi mavjud.Undan tibbiyotda siydik haydovchi,uyqusizlikka qarshi, ovqat hazm qilish organlari faoliyatini yaxshilovchi dori - darmon sifatida foydalaniladi.

Tabobatda uning shoxchalari, yaprog`i, urug`i ishlatiladi. Tibbiyotda tog`rayhonning yer ustki qismidan foydalaniladi. O`simlik gullaganda o`rib olinadi va soya yerda quritiladi. Qurigandan so`ng bargi va gullari sidirib olinadi, poyalari esa tashlanadi.

Bundan tashqari tog` rayhon ziravor sifatida ovqatga ishlatiladi.Tog`rayhonning bargi, guli, shoxchalari pazandalikda jumladan, bodring, qo`ziqorin, pomidor tuzlab yopishda qo`llaniladi. Quritib maydalangan tog`rayhon o`simligi quruq mevalarga,guruchga, kiyimlarga sepib qo`yilsa zararkunandalar kelmaydi. Undan turli alkogolsiz ichimliklar, atirsovunlar, tishpastalariga xushbo`y hid taratish maqsadida foydalanish mumkin. Shuningdek u asalshirali hisoblanadi.

Xalq tabobatida tog‘rayhonining yer ustki qismidan tayyorlangan damlamasi nafas qisishi, o‘pka sili va bronxit kasalliklarida yo‘talni to‘xtatuvchi, balg‘am ko‘chiruvch, va terlatuvchi dori sifatida hamda meda-ichak kasalliklarida (ichakning zaiflanishi) ishtaxa ochuvchi va ovqat hazim qilishini yaxshilovchi hamda siydik va el haydovchi dori sifatida qo‘llaniladi.

Tog‘rayhoni yer ustki qismidan damlama tayyorlash uchun qopqoqli idishga bir stakan qaynab turgan suv quyiladi, ustiga maydalangan yer ustki qismida 15 gr (uch osh qoshiq) solib, 2 soat damlab qo‘yiladi. So‘ngra dokada suzib kuniga 3-4 marta bir osh qoshiqdan ichiladi.

Tog‘rayhon yer ustki qismi ko‘krak kasaliklarida ishlatiladigan va terlatuvchi yig‘ma choylar tarkibida kiradi.

Aynan mana shu o`simlikni ko`paytirish va bu o‘simlikdan xalq tabobatida to‘gri foydalanib, turli xil kasalliklarga qarshi dori sifatida foydalanish, farmasevtika sohasida ham keng ko‘lamda qo`llanilishini yo`lga qo`yish nur ustiga a`lo nur bo`lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O`. Pratov, Q. Jumayev. Yuksak o`simliklar sistematikasi. Toshkent-2003.
2. H. Xolmatov, M.N. Maxsumov. Shamollash kasalliklarida ishlatiladigan dorivor o`simliklar. Toshkent Ibn Sino nomidagi nashriyot -matbaa birlashmasi 1993.
3. (Flora SSSR 1954-y.20-t. 466-469-betlar.
4. www.ipni.com(International plants Name Index).
5. www.powo.com(Plants of the World Online)

TA’LIM TEXNOLOGIYASINING AMALIY ASOSI

Muqaddam Ixtiyor qizi Boltayeva
Navoiy viloyati Navbahor tumani
27-umumiy o‘rta ta’lim maktabining nemis tili fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6954493

Annotatsiya: Ta’lim texnologiyasi bo‘yicha qilinadigan ishlar ikki qismdan iborat: ta’lim loyihasini tayyorlash; loyihani amalga oshirish.

Kalit so‘zlar: Didaktik maqsad, bilimlar, ko‘nikma-malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlar, konstruktiv, Ta’lim loyihasi.

Har bir qism o‘ziga xos amaliy asosga ega. 1. Ta’lim loyihasini tayyorlash. Loyiha o‘qituvchi yoki ekspert a’zolari tuza olish (konstruktiv) faoliyatining mahsuli bo‘lib, qator umumiy xususiyatlarga ega. U dastavval, inson ongining antispirik (oldin payqash, ko‘ra bilish) qobiliyati bilan bog'liq. Loyiha asosida o‘qituvchi va o‘quvchilarning kelajakda birgalikda amalga oshiradigan faoliyati yotadi. Ta’lim loyihasi ma’lumot mazmunini davlat ta’lim standartlari talablari asosida tahlil etishdan boshlanadi. Tahlil ma’lumot mazmuni elementlari (bilimlar, ko‘nikma-malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlar) dasturlarda qanday berilganligi, darsliklarda qanday aks ettirilganligiga qaratiladi. So‘ngra ta’lim mazmuni o‘rganiladi, u yoki bu mavzuni o'rganishdan ko‘zda tutilgan maqsad, ta’limning yaqin didaktik maqsadi, o‘qituvchi va o‘quvchilar maqsadi, ularni amalga oshirish va hisobga olish varaqalari, beriladigan uy ishlari miqdori, mavzular bo‘yicha o‘tkaziladigan test savollari, reyting nazorati bosqichlari, etalon darajasida o ‘zlashtirish usuli (etalon darajasida o ‘zlashtirgan o‘quvchilar bilan ishlash, shuningdek, etalon darajasidan past o‘zlashtirgan o‘quvchilar bilan ishlash tizimi) oldindan belgilab qo‘yiladi. Bu ishlaming barchasi ongda ta ’lim modelini yaratishga olib keladi. Ta’limning harakatchan modelini ongda yaratish ta ’lim texnologiyasining asosiy talablaridan biri b o ‘lib, bu san’atni egallagan o‘qituvchi ta’limning borishiga zudlik bilan o‘zgartirish, qo‘shimcha, tuzatishlar kirita oladi (1), u ta’limni qurish, yana takroriy qurish, zarur bo‘lsa yana bir bor qurishni osonlik bilan am alga oshiradi (2), o‘quvchilarni har bir mavzuni to‘liq o‘zlashtirishga yetaklaydi (3), ta ’lim mazmunini etalon darajasida va bu darajadan past o ‘zlashtirgan o ‘quvchilarni guruhlarga ajrata oladi (4), har bir guruhga mos keladigan ish usulini zudlik bilan tanlay biladi (5), o‘quvchilarning qobiliyati, ehtiyoji va qiziqishlariga mos keladigan vositalar tizimi, muammolarni ishlab chiqadi (6), sinf jamoasini gomogen guruhlarga ajratib, ta’limni individuallashtirish (7), ulgurmovchi o'quvchilar bilan qo‘shimcha m ashg‘ulot, qo‘shimcha topshiriqlarni bajarish uchun

shart-sharoit tayyorlaydi(8). 2. Ta’lim loyihasini amalga oshirish. Ta’lim loyihasi bevosita ta’lim sharoitida amalga oshiriladi. Bu jarayonda quyidagi ishlarga alohida e’tibor qaratiladi: — o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha maqsad, vazifalar bilan o ‘quvchilarni oldindan tanishtirish, muammo, topshiriqlarni, shuningdek, uy vazifalari, mustaqil bajariladigan ishlar, ularni bajarish tartibi, paytini e’lon qilish, mavzuni to‘liq o‘zlashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berish, davlat ta ’lim standard darajasida o‘zlashtirish me’yorlarini (bilimlarni o'rganish, tushunish, ko‘nikmalarni rivojlantirib malakaga aylantirish, o‘zlashtirilgan faoliyat usullarini eslab qolish) aytib berish; — o ‘quvchilarni faol, m ustaqil faoliyatga rag ‘batlantirish, bolalar diqqatini bo‘lim yoki mavzu mazmuniga tortish, uni qanday o ‘rganish zarurligini aytib berish, bilishga qiziqish uyg‘otish, o ‘qish-o‘rganishga havas, muammolarni bajarishga ehtiyoj uyg‘otish. Emotsiya, tafakkur hodisalari (sezish, idrok etish, tushunish, esda olib qolish), bilimlarni o‘quv holatlariga tatbiq etish yo'llari orqali mavzu bo'yicha ma’lumotlar to'plasli, to‘plangan ma’lumotlar yuzasidan joriy nazoratni tashkil etish, mavzuni to‘liq o'zlashtirishga oid o‘zgartirish, qo‘shimcha, tuzatishlarni belgilash; — bo‘lim yoki mavzu bo‘yicha to‘plangan bilimlar (axborotlar)ga ishlov berish. Ta’lim da kutilgan va kutilmagan, rejalashtirilgan va rejalashtirilmagan, favqulodda va tasodifiy hodisalar ham uchrab turadi. Binobarin, o‘rganilgan bilimlarga ishlov berish jarayonida ham joriy nazorat natijalariga asoslanib, loyihaga yangi o'zgartirish, qo‘shimcha, tuzatishlar kiritiladi, o ‘quvchilarning davlat ta ’lim standartlari darajasiga qanchalik yaqinlashganliklari ham aytib o‘tiladi; — bo‘lim yoki mavzu bo'yicha umumiy xulosalarni murakkab o‘quv holatlariga tatbiq qilish. Oraliq nazorat natijalariga ko‘ra, mavzu yoki bo‘lim bo‘yicha axborot to‘plash, to'plangan axborotlarga ishlov berish jarayonlarida o‘quvchilar erishgan yutuqlarn i tahlil qilish, o'quvchilarning bilimi, malakasi, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlaridagi kamchiliklarini ko‘rsatish, sinfning har bir o‘quvchisiga yakuniy nazoratgacha bajariladigan qo‘shimcha topshiriqlarni berish, bolalarni o‘quv materiallarini yanada atroflicha o‘zlashtirishga rag ‘batlantirish; — yakuniy nazoratning asosiy vazifasi bolalarning ma’lumot va ta ’lim mazmuni elementlarini davlat ta ’lim standartlari darajasida o'zlashtirishlarini aniqlash, standart darajasidan past o‘zlashtirgan o‘quvchilarni ogohlantirish, qo‘shimcha topshiriqlar berish. Ta’limning umumiy maqsadi. Umumiy maqsad jamiyatning maktab oldiga qo‘ygan ijtimoiy talabiga muvofiq aniqlanadi. Jonajon mamlakatimiz istiqlolga erishgach, O‘zbekistonning yetuk fuqarosini barkamol inson darajasida tarbiyalash m aktabning bosh vazifasi bo‘lib qoldi. I.A.Karimovning quyidagi so‘zi ta ’limning umumiy maqsadini belgilashda asosiy o‘lchov bo‘ladi: «Biz komil inson darajasida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e’lon qilganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘ladigan bilimli, ma’rifatli kishilarni tushunamiz». Har tomonlama yetuk-barkamol inson

tarbiyalash xalqimiz, davlatimizning maktab oldiga qo‘ygan umumiy maqsadidir. Ta’lim texnologiyasining markazida bola shaxsi yotadi. Shaxs tuzilishiga ko‘ra murakkab hodisa bo‘lib, u faoliyatdagina rivojlanadi. «Barkamol inson» muammosi ham Sharq pedagogikasi oldiga allaqachon qo‘yilgan masaladir. Hozirgi paytda bu m uam m oning ayrim sohalariga oid maxsus izlanishlar ham mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayeva Q., Rahmonova S. Ona tili darslari (usuliy qo‘llanma). — T.; 1999.
2. Ikromova R. Grammatika, imlo va nutq o‘stirishdan tarqatma materiallar. — T.: « O‘qituvchi», 1993.
3. www.ziyouz.com

XALQ HUNARMANDCHILIGI TEXNOLOGIYASI BO‘LIMINI O‘QITISHNI TASHKIL QILISH

Gulmira Dilmurodovna Farmonova
Navoiy viloyati Navbahor tumani
27-umumiy o‘rta ta’lim maktabining texnologiya fani òqituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6954497

Annotatsiya: Xalq hunarmandchiligining metodologik va tarixiy asoslari. O'zbek xalqining ko'p asrlik tarixidan ma’lumki, xalq amaliy bezak san’ati va hunarmandchilikka boy va rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi.

Kalit so‘zlar: Estetik did, amaliy bezak san’ati, ganchkorlik, koshinkorlik, naqqoshlik, hattotlik, toshtaroshlik, metodologik va tarixiy asoslari.

O'zbek diyorida vujudga kelib, gullab-yashnagan amaliy san'at bemisol va betakrorligi bilan dunyoga mashhur bo'lib kelmoqda. Bunday kamolot va taraqqiyot bosqichlari haqida fikr yuritadigan bo'lsak, o'zbek amaliy san’ati turlarining shox ildizlari insoniyatning bolaligi, ya’ni ibtidoiy jamiyatga borib tarqalishining guvohi bo'lamiz. Badiiy idrok qobiliyati kishilarda, o'quvchilarda olamni, undagi mavjudodlar, narsalar va voqea-hodisalarni, atrof-muhitdagi shakllar va ranglarning turfa shakl-shamoilida aks ettirishga havas uyg'otadi. Shakl va ranglarning real ham dastillashtirilgan tasvirlarini yaratish shu tariqa kelib chiqdi va o'z navbatida odamlarning kundalik turmushidan o'rin ola boshladi. Natijada badiiy bezaklarning turli-tuman shakllari va turlari paydo bo'ldi. Boshqa san’atlarga nisbatan, bunday naqshli bezaklar ko'pligining va takomil topganligining muayyan tarixiy sabablari bor. Ma’lumki, islom mamlakatlarida mavjudodlar tasviri ishlanmagan, balki, tasviriy san’atga chuqur falsafiy yondashish natijasida shartlilik, stillashtirish, rasmiylikka asoslangan badiiy bezak asarlarini yaratish kuchaygan. Ushbu tarixiy haqiqat o'zbek milliy bezak san’atining gurkirab rivojlanishiga turtki bo'lganki, hozirda jahonda mashhur me'morchilik yodgorliklarimiz va ulardagi ganchkorlik, koshinkorlik, naqqoshlik, hattotlik, toshtaroshlik va boshqa turlardagi san’atlarning ajoyib darajada uyg‘unlashganligida ko‘rinadi. Uning negizida murakkab, izlanuvchan, ijodkorlik mehnati mavjud. Misol uchun: Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Toshkent, Qo‘qon va boshqa shaharlardagi me’morchilik va xalq amaliy san’ati yodgoriiklari o‘tm ish avlodlarimiz yaratgan barkamol, takrorlanmas va tarixan bebaho san’at asarlarining nam unalari bo ‘lib, xalqimizning va shu bilan jahon madaniyatining durdonalaridan bo'lgan badiiy va madaniy merosini tashkil

etilganidan xabardor bo‘lamiz. Xalq amaliy san’ati kishilarning ma’naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Shuning uchun o'zbek xalqining amaliy san’ati kishilarni badiiy axloqiy, umuminsoniy ruhda tarbiyalaydi. O‘zbek xalq san’ati qadimiyligi hamda boy madaniyati bilan butun dunyoga mashhur. Uning yer yuzasi va tuproq osti qismi ulkan bir tarixiy muzey. Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Toshkent, Farg'ona va boshqa shaharlardagi har bir tarixiy obida, har bir xalq amaliy san’ati namunasi bobokalonlarimiz yaratgan barkamol, takrorlanmas, teran mazmunli va tarixan bebaho san’at asarlari jahon madaniyatining durdonalaridan bo'lgan badiiy va ma ’naviy merosini tashkil etadi. Asrlar davomida orttirilgan va madaniy boyligimiz, xususan, sho'ro tuzumi davrida o'zbek milliy xalq amaliy bezak san’atining eng ko'p rivojlangan turlaridan ganchkorlik, naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi, toshtaroshlik, suyak o'ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, zargarlik, kashtachilik, zardo'zlik, gilamchilik kabi turlarning o'ziga xos tomonlari, bajarish texnologiyasi, haqiqiy asl nomlari, o'ziga xos maktablari, uslublarini yaratgan ustalarning nomlari asta-sekin yo'qolib ketish xavfi ostida qoldi. Bugungi kunda mustaqil mamlakatimizda xalqimizning asrlar bo'yi yaratgan mehnati natijasida yaratilgan amaliy bezak san’atini ko'z qorachig'idek saqlash, qadrlash, ulardan amaliy foydalanish, yoshlarga o'rgatish orqali ularning estetik didini o'stirish hamda yuksak madaniyatli kishilar qilib tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar ochildi. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Nizomiy Ganjaviy, Nosir Xisrav, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Bobur kabi jahonga mashhur olim, shoir va musavvirlar xalqimizni go‘zallikka intilishga chaqirgan. Bobomiz Amir Temur hunar va ilm egalari, yirik mutaxassis olimlar yordamiga tayanib matematika, geometriya, me’morchilik, astronomiya, adabiyot, tilshunoslik, tarix, musiqa, tasviriy san’at va hattotlik kabi san’at asarlarini rivojlantirishga katta ahamiyat berdi. Shaharlarni har tomonlama chiroyli va ulug'vor qilishga intildi. Jumladan, tosh ham da g‘isht yo‘llar, keng va katta ravon ko‘chalar qurdirgan. Bir-biridan mahobatli binolar soldirgan. Samarqandning Registon maydonidagi Ulug'bek, Sherdor va Tilla Qori madrasalari, Shoxi Zinda va Go‘ri Amir ansambl maqbaralari, Bibixonim masjidi, Buxoroda Ismoil Samoniy maqbarasi, Toshkentdagi Ko'kaldosh madrasasi, Shahrisabzdagi Oq Saroy va boshqalar bugungi kunda dunyoga mashhurdir. Amir Temur va temuriylar davrida xalq san’ati hunarmandchiligi qolaversa madaniyati yuksak darajada rivoj topdi. Temurning amri bilan turli mamlakatlardan ustalar, me’morchilar olib kelinib ajoyib takrorlanmas binolar qurilgan va bog‘u-rog‘lar barpo etilgan. Ayniqsa Temur o'z onasiga bag‘ishlab qurdirgan Oqsaroy tarixning bir bo‘lagi bo'lib qoladi. Uni 1379-yilda Temurning amri bilan qurdirilgan. Ma’lumki, o‘zbek xalq amaliy bezak san’atining eng rivojlangan turlaridan biri naqqoshlikdir. O‘zbekiston territoriyasidagi arxeologik qazilmalardan Xorazm, So'g‘d, Baqtriya va boshqa naqsh san’atining rivojlanganligi ma’lum. Olimlarimiz Surxandaryo

viloyatidagi Fayoztepa (1—11 asr), Dalvarzintepa (1 asr) qazilmalaridan topilgan, rasm, naqsh qoldiqlari orqali buni isbotlab berganlar, Xorazmdagi Tuproqqal’a zallari monumental naqshlar bilan bezatilganligi bizga ma’lum. VI—VII asrlarda qasrlar va boylarning uylari naqshlar hamda tasvirlar bilan bezatilgan. IX—X asrlarda O‘rta Osiyoda naqqoshlik san’ati avj olib rivojlandi. Arxitekturada g‘isht qolipli naqsh solish yuksak rivojlandi, binolarning ichki tomonlariga ganch, yog‘och o‘ymakorligini qo‘llash yuksak rivoj topdi. Ayniqsa, maktablarning peshtoqlari devor va ravoqlar ganch naqshlar bilan nafis bezatilgan. X VIII asrning oxiri XIX asrda Qo'qonda, Farg‘ona, Buxoro kabi shaharlarda yetuk ustalar yetishib chiqdi. Misgarlik, naqqoshlik, ganchkorlik, chilangarlik va boshqa san’at turlari rivojlandi. Qadimda hunar o'rganish muqaddas sanalgan. Har bir xalq kelajak avlodlarga o‘zidan qoldirgan takrorlanm as hunarlari bilan qadrlangan. O‘zbekiston qadimda hunarmandlar markazi bo'lgan desak, xato qilmagan bo‘lamiz. Masalan, Andijon viloyatining Shahrixonida, Samarqand viloyatining Urgutida, Farg‘ona viloyatining Qo‘qon va Marg‘ilonida, Namangan viloyatining Chustida xalq hunarmandchiligi gullab yashnagan. Hunarmandlar ma’lum bir davrlarda mahallalarga bo‘lib shug'ullanganlar, chunonchi zargarlik mahallasi, pichoqchilik mahallasi deb yuritilgan. O'sha davrlarda yana misgarlik, zargarlik, buyrachilik, sandiqchilik, pichoqchilik, aravasozlik, kulolchilik mahallalari ham mavjud bo‘lgan. Masalan, X IX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoroda buyrachi mahallasi bo‘lib, u yerda umuman Buxorodagi buyra to'qiydigan ustalar yashagan. Buyrachi mahallasida 120 ta oila yashagan. Har bir kasbkorlik mahallasida qo'ni-qo'shnilar o‘rtasida raqobat bo'lgan. Chunki kimning mahsuloti sifatli bo'lsa, xalq o'shaning ishlab chiqargan mahsulotini sotib olgan. Shuning uchun har bir usta sifatli mahsulot tayyorlashga intilgan. Har bir ustaning o‘z rastasi bo‘lgan. Bozorda, odatda, bozor begi bo‘lgan. U barcha rastalarga keltirilgan mollarni kuzatib, ularga narx belgilab chiqqandan keyin savdo-sotiq boshlanar edi. Sifatsiz mahsulot ishlagan ustaning bozori kasodga uchragan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O.I. Avazboyev, R.G. Isyanov, X. Odilboyev. Mehnat ta’limi uslubiyotidan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari. — Toshkent, 1993.
2. K. Davlatov. M ehnat va kasb ta’lim tarbiyasidan amaliy mashg‘ulotlar. — Toshkent: O‘qituvchi, 1995
3. www.ziyouz.com

DAVRIYLIK - FIZIKA TA’LIMINING PEDAGOGIK QONUNIYATI SIFATIDA

Shahzod Sayfiddin o‘g‘li Isroilov
Navoiy viloyati Navbahor tumani
27-umumiy o‘rta ta’lim maktabining fizika fani òqituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6954502

Annotatsiya: Pedagogikaning hozirgi taraqqiyot bosqichida didaktik bilimlarni rivojlantirish, ularni yangilashning asosiy yo‘llaridan biri ta’limning davriyligini asoslashdir. Zotan, ta’limning davriyligi pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyotining markaziy muammosi bo‘lib, uni ham nazariy, ham amaliy jihatdan asoslash ta’lim jarayoni xususidagi tasavvurlarning kengayishi, didaktik hodisalar to'g'risidagi qarashlaming rivojlanishi uchun ijobiy ta’sir etadi.

Kalit so‘zlar: N.F.Talizina, ta’lim jarayoni logikasi, M.A.Danilov, «davriy boshqaruv», «didaktik davr», «o‘qitish davri», Psixologik va didaktik tadqiqot, didaktika.

Davriylik tabiat, jamiyat va ong hodisalarida amal qiladigan umumiy qonuniyat bo‘lib, jarayonlarning uzluksiz takrorlanishi, ularning takrorlana turib, rivojlanishini ta’minlaydi. Fasllar almashinuvi qishdan keyin bahor, bahordan keyin yozning kelishi davriylik qonuniyatiga ko'ra yuz beradi. Shubhasiz, maktabda fizika ta’limi ham o‘z davrlariga ega. Ammo bu masala haligacha didaktikada alohida, mustaqil muammo sifatida ilmiy o'rganilgan emas. Psixologik va didaktik tadqiqotlarda «davriy boshqaruv», «didaktik davr», «o‘qitish davri» kabi atamalar ishlatiladi. Ammo bu atama va ularga oid tushunchalarning ma’nolari atroflicha tahlil qilinib, har birining o'ziga xos mazmuni chegaralanganicha yo‘q. Taniqli didakt olim M.A.Danilov birinchilardan bo‘lib, «ta’lim jarayoni logikasi», «ta’lim jarayonining harakatlantiruvchi kuchlari», «ta’lim jarayoni bo‘g‘inlari» kabi qator tushunchalarni asoslagan edi. Uning ta’kidlashicha, ta’lim jarayoni logikasi o'quv predmeti mazmuni va uni o'zlashtirish psixologiyasining o'zaro qo'shilib ketishidan iborat, ta’lim jarayoni harakatidagi eng kichik birlik, ta’limda o'quvchilar oldiga qo‘yilgan intellektual va amaliy topshiriqlar ta’lim jarayonining harakatlantiruvchi kuchlaridir. T a’lim jarayonida qo'yilgan intellektual va amaliy topshiriqlar, o‘quv muammolari va mustaqil ishlar o‘zining murakkabligi, qiyinligi bilan o'quvchi ongida bilish-o'rganishga oid ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Ta’lim jarayonida o'quvchi ongida amal qiladigan ziddiyatlar ikki turli bo‘ lad i: 1. Salbiy ziddiyatlar. Ziddiyatlarning bu turi o‘z vaqtida bartaraf etilishi zarur. Negaki, ular ta’limning, binobarin, o‘quvchilar bilishi va o'rganishining oqilona kechishiga to'sqinlik qiladi. 2. Ijobiy ziddiyatlar.

Ta’lim jarayonining oqilona harakat qilishi uchun zarur, kerakli ziddiyatlar. Ziddiyatlarning bu turi bartaraf qilinmaydi, aksincha, ular ta’limda maxsus usullar orqali shakllantiriladi, hatto tashkil etiladi. Ijobiy ziddiyatlarni qiyin jarayon sifatida sezish, ularni hal qilishga intilish o'quvchilarni mustaqil fikrlash, tafakkur va xotiraga zo'r berib aqliy hamda amaliy muammolarni samarali yechishga yetaklaydi. Ta’lim jarayonidagi pozitiv - kerakli ziddiyatlar o'quv-tarbiya ishlari rivojining harakatlantiruvchi kuchlaridir. N.F.Talizinaning dasturlashtirilgan ta’lim muammolariga oid izlanishlarida «davriy boshqaruv» atamasi ishlatilib, unda o'quvchilar o'zlashtirishi mo'ljalga olingan. Uning fikricha, ta’limda ko'zlangan oxirgi natijaga erishish uchun shu natijaga olib keluvchi jarayon boshqarilishi shart. Chunki oxirgi natijani boshqarib bo'lmaydi. L.Ya.Zorina «didaktik davr» atamasini umumiy didaktika nuqtayi nazaridan qo'llagan. «Ta’lim, - deb yozadi u, - o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro bog'liq harakatlari tizimidir. Uni ma’lum vaqt ishga tushirish uchun shunday birlikni ajratish kerakki, unda yaxlitlikning mohiyati aks etsin. Yaxlitlikni o'zida aks ettirgan shunday birlikni didaktik davr deb ataymiz». Didaktik davr ma’lumot mazmunining bir qismini talab darajasida optimal o'zlashtirish vazifasini bajaradi. Olima shu fikrga asoslanib, ta’lim jarayonida beshta davrni ajratgan: didaktik vazifalami qo'yish va ulami o'quvchilarning qabul qilishi; o'quv materialining bir qismini e’lon qilish va uni o'quvchilarning ongli idrok qilishi; yangi bilimlarni amaliyotga tatbiq etishni tashkil qilish va uni o'quvchilarning tatbiq qilishi; teskari aloqani o'rnatish va o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilishi; o'quvchilarni maktabdan tashqari faoliyatga tayyorlash. L.Ya.Zorina ajratgan birliklarni didaktik davr yoki sikl sifatida qabul qilib bo'lmaydi. Ular M.A.Danilov tadqiqotlarida asoslangan ta’lim halqalari — aktlarini eslatadi. Davr nisbatan keng, mazmundor hodisa bo'lib, o'zida ta’lim aktlari, bosqichlari tizimini qamrab oladi. Bu birinchidan. Ikkinchidan esa, ta’lim davrlarini ajratish o'lchovlarini belgilamasdan turib, ta’lim jarayoni davrlari xususida fikr yuritish mumkin emas. Shu bilan birga, o'rganilgan o'quv materialining o'quvchilar faoliyatida takrorlanish shakli, maqsadi, vositasi, natijalarini oldindan qayd etmasdan turib, ta’lim jarayoni davrlari xususida fikr yuritish qiyin. M.V.Klarin «o'qitish davri» atamasini pedagogik texnologiya g'oyalari nuqtayi nazaridan qo'llagan. Fikrimizcha, «o'qitish davri» atamasi o'qitish faoliyati - o'qitishga ishora. Uning yozishicha, o'qitish davrining quyidagi holatlari mavjud: ta’limning umumiy maqsadini belgilash; ta’lim maqsadini umumiy shakllantirishdan aniqlashtirishga o'tish; o'quvchining tayyorgarlik darajasini tashxislash - diagnozlash; o'quvchilar bilimini korreksiyalash; natijani tekshirish. Shu bosqichlarga ko'ra ta’lim «model» xarakterini oladi. M.V.Klarin «model» atamasini o'qitishning berilgan vaqt mobaynida takrorlanib, bir holatdan yangi, rivojlangan sifatga o'tishini tavsiflash uchun ishlatgan. U ta’lim jarayonining shu sifati - oldingi holatdan yangi holatga o'tishini nazarda tutib, «o'qitishning takrorlanadigan davri» iborasini qo'llagan Ba’zi

taqdiqotlarda maqsad, vosita, natija kategoriyalariga rioya qilib, ta’limning davriyligini asoslashga harakat qilingan. «Didaktika» darsligida yozilishicha, ta’lim jarayoni akt, bosqich, davrlardan iborat. Akt - ta’lim jarayonining eng kichik birligi. Ta’lim jarayoni aktlari rivojlanib, ta’lim bosqichlariga, bosqichlar taraqqiy etib davrlarga aylanadi. Ta’limning davriy harakatini ikki yo'l bilan tavsiflash mumkin: umumiydan xususiyga qarab borish yo‘li bilan ta’lim hodisalarini bayon qilish. Bu yo‘l bilan ta’lim jarayoni o'rganilganda ta’lim jarayoni to'g'risidagi umumiy tasavvurdan uning akt, bosqich, davrlariga qarab boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bozorova S., Norov Sh. Fizika darslarida ta’lim samaradorligini oshirish usullari// Xalq ta’limi. -2003. №4.
2. Qahhorov S.Q. Fizika ta’limida o‘quvchilaming biluv faoliyatini davriy boshqarish. - Buxoro, 2003.
3. www.ziyouz.com

TARBIYA JARAYONINING ASOSIY QONUNIYATLARI

Gulruh Zaynitdinovna Mirzayeva
Navoiy viloyati Navbahor tumani
27-umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf òqituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6954504

Annotatsiya: Tarbiya jarayonining asosi ijtimoiy hayotning obyektiv talablarini, insonning ijtimoiy mohiyatini va tabiatini aks ettiruvchi qonuniyatlardan iborat. Tabiat yoki jamiyatdagi har qanday murakkab hodisada obyektiv ravishda mavjud bo‘ladigan barqaror aloqalar kuzatiladi. Bunday aloqalar qonuniyat deb ataladi. Bu qonuniyat tarbiya jarayonida ham amal qiladi.

Kalit so‘zlar: Demokratik tamoyillar, psixologik tavsif, siyosiy-g‘oyaviy asoslar, obyektiv va subyektiv omil, ijtimoiy hodisa, Tarbiya jarayoni.

Tarbiya qonuniyatlari mohiyati, bir tomondan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bog‘liq. Tarbiyaning birinchi va eng muhim qonuniyati uning ijtimoiy muhitning obyektiv va subyektiv omillariga bog‘liqligidir. Ijtimoiy tarbiya mazmuni moddiy ishlab chiqarish usuli, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, siyosiy tuzum hamda milliy mafkura g‘oyalari asosida qaror topadi. Ijtimoiy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy-g‘oyaviy asoslarini tashkil qiladigan hamda tarbiyaning mazmuni va uning olib borilishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy jarayonlar — tarbiya muassasalari, jamoat tashkilotlari, o‘qituvchilar, tarbiyachilar, oila muhiti, jamoatchilik dunyoqarashi, mafkura g‘oyalari, shaxsni har tomonlama rivojlantirishga oid faoliyat kabilar tarbiyaning subyektiv omillari sirasiga kiradi. Demokratik tamoyillar hamda qonun ustuvorligi ta’minlangan yillar va bunday sharoitda tarbiyaviy jarayonning ijtimoiy muhit bilan o‘rnatiladigan aloqalari shaxs tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tarbiyaning ikkinchi muhim qonuniyati uning shaxs rivojlanishi bilan birligi, o‘zaro aloqadorligi va bog‘liqligidir. Shaxsning rivojlanishi tarbiyaning g‘oyaviy mazmuni va sifat darajasiga bog‘liq. Ayni choqda tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari shaxsning rivojlanish darajasiga ham bog‘liq. Tarbiya jarayoni psixologiya fani asoslarini, shaxsning psixologik va fiziologik rivojlanish qonunlarini bilishni talab qiladi. Tarbiyachi (o‘qituvchi) tarbiyalanuvchi (o‘quvchi) shaxsini har tomonlama o‘rganishi va shu asosda unga to‘g‘ri psixologik tavsif berishi, shu asosda ta’sir ko‘rsatishi lozim. Tarbiyalanuvchining shaxsiy xususiyatlari va imkoniyatlari hisobga olinmas ekan, tarbiyaviy ta’ sir bir tomonlama yoki tasodifiy bo‘lib qoladi. Shuningdek, ular boshqa tarbiyaviy ta’sirlarga mos bo‘lmay qoladi. Tarbiyaning uchinchi qonuniyati —

faoliyat va munosabat birligini e’tirof etish — shaxsning ijtimoiy ijobiy fazilatlarini shakllantirishning negizi va asosiy manbayi ekanligini e’tirof etishdir. Tarbiyalanuvchilarning faoliyati jamiyat uchun qanchalik foydali ravishda maqsadga muvofiq tashkil etilsa, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatning oqilona bo‘lishi ta’minlansa, tarbiya jarayoni shunchalik samarali bo‘ladi. Shaxs faoliyati ijtimoiy munosabatlar negizida yo‘lga qo‘yilib, tizimli tarzda kechadi. Subyekt (shaxs), obyekt (ijtimoiy borliq) — ijtimoiy munosabatlar tarzida tashkil etiladigan aloqa jarayoni shaxs faoliyati mazmuni va yo‘nalishini ham belgilashi mumkin. Ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish jarayonida borliqni his etish, o‘z-o‘zini anglash, aloqa, aralashuv va muloqotni tashkil etish ehtiyoji yuzaga keladi. Ehtiyojni qondirish yo‘lida dastlabki urinish ijtimoiy munosabatlar mazmunini o‘rganish va o‘zlashtirish hisoblanadi. Ijtimoiy munosabatlar mohiyatini anglashga qaratilgan faolit jarayonida ijtimoiy bilimlarni o‘zlashtirishga nisbatan qiziqish hosil bo‘ladi. Qiziqish, o‘z navbatida, shaxsda muayyan hayotiy maqsadning qaror topishiga olib keladi. Maqsad asosida shaxs nafaqat ijtimoiy bilimlarni egallashga intiladi, balki o‘zlashtirilgan bilimlarni egallash layoqatini ham namoyon eta boradi. Maqsad mazmunini ifoda etuvchi g‘oyalar amaliy harakatlarni tashkil etish borasidagi rag‘batlarning yuzaga kelishi uchun zamin hozirlaydi. Yuqorida bayon etilgan fikrlardan anglashiladiki, shaxsning shakllanishi — bu uning asosiy munosabatlarining shakllanishidir. Ijtimoiy munosabatlarning yaxlit tizimida tarbiyachi, o‘qituvchi, ota-onalar hamda jamoaning tarbiyalanuvchi, o‘quvchi, farzandlar va shaxs bilan bo‘ladigan o‘zaro ta’siri jarayonida kelib chiqadigan tarbiyalovchi munosabatlar alohida ahamiyatga ega. Bu munosabatlar doirasida ijtimoiy tarbiyaning maqsadlari amalga oshiriladi. Tarbiyaning to‘rtinchi qonuniyati — tarbiyalanuvchilarning o‘zaro tarbiyaviy ta’sirga ega ekanliklari, ularning o‘zaro munosabatlari hamda faol faoliyatlari o‘rtasidagi bog‘lanishning mavjudligi sanaladi. Tarbiyachi (o‘qituvchi)larning tarbiyalanuvchi (o‘quvchi)larga pedagogik ta’siri ular faoliyati va munosabatlarining tizimli hamda rejali tarzda, maqsadga muvofiq tashkil qilinishini nazarda tutadi. Tarbiya jarayonida tarbiyachi (o‘qituvchi) va tarbiyala nuvchi (o‘quvchi)larning ijtimoiy roli bir xil emas. Tarbiyachi uchun tarbiyalanuvchi har vaqt tarbiya berish obyekti hisoblanadi. Biroq tarbiyalanuvchi tarbiyachi bilan ongli ravishda o‘zaro munosabatda bo‘lishga erishilsa, tarbiyaviy munosabatlar faol xarakter kasb etadi. Rivojlantiruvchi (shaxsni rivojlantirish), tarbiyalovchi (tarbiya maqsadlarini amalga oshirish) va tashkilotchilik (faoliyat va munosabatlarni maqsadga muvofiq tashkil etish) tarbiya jarayonidagi asosiy vazifalardir. Tarbiyalovchi ta’sirlar muayyan shaxslarga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois tarbiyachi har bir tarbiyalanuvchining o‘ziga xos shaxsiy xususiyatlarini hisobga olib, ta’sir ko‘rsatishning individual yo‘llarini qidirib topishi lozim. Tarbiyachi muvaffaqiyati aksariyat hollarda u o‘z o‘quvchilarining

tarbiyalanganlik darajasini, ya’ni ularning ongliligi, axloqiy sifatlarga egaligi, odilligi, qat’iyatliligi va boshqa xususiyatlarini bilishiga bog‘liqdir.

Tarbiya tamoyillari deb yosh avlodni tarbiyalash maqsadidan kelib chiqadigan va komil insonni tarbiyalashning mazmuni, metodlari va yo‘nalishiga qo‘yiladigan eng muhim talablarni belgilab beruvchi asosiy g‘oya va qoidalar yig‘indisiga aytiladi. Tarbiya tamoyillari o‘qituvchi, tarbiyachilarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi qoidalar bo‘lib, yosh avlodni tarbiyalash, barkamol insonni shakllantirish vazifalariga muvofiq belgilanadi, shuningdek, ular shaxs tarbiyasi borasidagi ilg‘or ta’limotlar g‘oyalariga hamda pedagogika fanida erishilgan yutuqlarga asoslanadi. Tarbiya tamoyillari tarbiya jarayoni qonuniyatlarini aks ettiradi. Tarbiyaviy jarayonda ilg‘or tamoyillarga amal qilinishi uning samarasini ta’minlaydi. Tarbiya tamoyillari quyidagilardan iborat: — tarbiyaning maqsadga yo‘naltirilganligi; — tarbiyada demokratik va insonparvarlik g‘oyalari ustunligi; — tarbiyada milliy umumbashariy qadriyatlar ustunligi; — tarbiyada izchillik va tizimlilik; — tarbiyani ijtimoiy hayot bilan qo‘shib olib borish; — tarbiyani mehnat bilan bog‘lash; — tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilish; — tarbiyada o‘quvchining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish; — jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash; — tarbiyada o‘quvchi xulqidagi ijobiy sifatlarga tayanib, salbiy tomonlarni yo‘qotish. Tarbiyaning maqsadga yo‘naltirilganligi va g‘oyaviyligi. O‘qituvchi ijtimoiy tarbiyaning maqsadi va vazifasini aniq tasavvur etishi hamda puxta anglab olishi zarur. Yosh avlodni yuksak g‘oyaviylik ruhida tarbiyalash — ularning ongiga xalq, millat, yurt, jamiyat manfaatlaridan yuqoriroq manfaat bo‘lishi mumkin emasligini singdirish, ularni Vatanga, xalqqa muhabbat ruhida va sadoqatli qilib tarbiyalash demakdir. Bu sohada mustaqil respublika xalq ta’limi xodimlarining asosiy vazifasi erkin, ijodkor, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega, yetuk mutaxassis va komil shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abu Rayhon Beruniy. Ruhiyat va ta’lim-tarbiya haqida. — T.: «O‘zbekiston», 1992

2. Z. K. Ismailova. Pedagogikadan amaliy mashg‘ulotlar. — T.: «Fan», 2001.

3. www.ziyouz.com

ZAMONAVIY ORGANIK KIMYONING RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI

Nasiba Normamatovna Mirzayeva
Navoiy viloyati Navbahor tumani
27-umumiy o‘rta ta’lim maktabining kimyo fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6954512

Annotatsiya: Organik kimyo – organik moddalar va ular bo‘ysunadigan qonuniyatlar to‘g‘risidagi fandir. U organik birikmalarning nomlanishi, izomeriya-si, olinish usullari, tuzilishi, fizikaviy va kimyoviy xossalari hamda ishlatilish sohalarini o‘rganadi.

Kalit so‘zlar: F.Vyoler, Organik kimyo, organizm, fizikaviy va kimyoviy xossalari, izomeriya, organik birikma, organik moddalar.

XIX asrning o‘rtalariga qadar o‘simlik va hayvonlar organizmlarida hosil bo‘ladigan moddalarni o‘rganuvchi fan organik kimyo deb yuritilardi. Shuning uchun «organik» atamasi «organizm» so‘zidan kelib chiqqan. Tarixan paydo bo‘lgan bu nomning mazmuni tubdan o‘zgargan bo‘lsa-da, u hozirgacha qo‘llanilmoqda.

Organik kimyo yosh tabiiy-ilmiy fanlar jumlasiga kiradi. Uning mustaqil fan sifatida shakllanishi XIX asrning birinchi yarmidan, aniqrog‘i 1828-yildan, ya’ni F.Vyoler ammoniy sianatni qizdirib mochevinani sintez qilgan vaqtdan boshlandi, desa bo‘ladi. Bu tarixiy qisqa vaqt ichida organik kimyo taraqqiy etgan va juda tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan fundamental fanlar qatoridan joy oldi hamda juda katta daliliy materialga ega bo‘ldi. Hozirgi kungacha o‘rganilgan barcha kimyoviy birikmalarning 90 foizdan ortig‘i organik birikmalar bo‘lib, ularning soni 10 milliondan oshib ketdi. Vaholanki, noorganik moddalarning soni esa bir necha yuz mingdan oshmaydi. Ilmiy va pedagogik faoliyat bilan band bo‘lgan barcha kimyogarlarning yarmidan ko‘pi organik-kimyogarlardir.

Odamlar o‘simlik va hayvonlardan organik moddalarni ajratib olish va ulardan foydalanishni qadim zamonlardanoq bilganlar. Ular spirtli ichimliklar tayyorlash, vinoni achitib sirka olish, o‘simliklardan bo‘yoqlar, dori-darmonlar, xushbo‘y moddalar olishni bilganlar. Lekin u davrdagi kishilar organik moddalarning aralashmalari bilan ish ko‘rganlar. Sof organik moddalar esa birmuncha keyinroq olina boshlandi. 1776-yilda A.Volta botqoqlik gazini tadqiq qilib metanni, 1769-1785-yillarda K.Sheele vino, limon, olma, sut, gall, oksalat va siydik kislotalarini, 1795-yilda J.Deyman etil spirtiga konsentrlangan sulfat kislotani ta’sir ettirib etilenni, 1825-yilda M.Faradey yoritgich gaz kondensatidan benzolni, 1836-yilda E.Devi

atsetilenni sof holda ajratib oldi. O‘rganilgan barcha tabiiy va sintetik organik moddalar tarkibida uglerod borligiga asoslanib, 1806-yilda Y.Berselius, 1848yilda L.Gmelin organik kimyoga uglerod birikmalari kimyosi deb ta’rif berishdi. Birinchi bo‘lib 1808-yilda «organik modda» tushunchasini fanga kiritgan hamda kimyoni ikkita mustaqil-organik va noorganik kimyo fanlariga ajratgan ham Y.Berseliusdir. Lekin hozirgi vaqtda ham umumiy qabul qilingan (AQSH, Germaniya, Rossiya va boshqa mamlakatlarda nashr qilinayotgan darslik va o‘quv qo‘llanmalarda berilayotgan) bu ta’rif uglerodning organik moddalarga mansub bo‘lmagan birikmalari (uglerod oksidlari, karbonat kislota va karbonatlar, karbidlar, metallar karbonillari, sianid kislota, sian kislota H−O−C≡N, izosian kislota O=C=N−H va ularning tuzlari) ham borligini inobatga olmaydi. Shuning uchun ham K.Shorlemmerning organik kimyo-uglevodorodlar va ularning hosilalari kimyosidir deb bergan ta’rifini ancha aniq va to‘g‘ri desa bo‘ladi.

XIX asrning birinchi yarmidanoq organik sintez bilan bir qatorda organik moddalarning tahlili ham rivojlandi. Y.Libix organik birikmalar tarkibidagi uglerod va vodorodni, J.Dyuma esa azotni aniqlash usullarini ishlab chiqdilar. 1879-yilda A.Bayerning indigo bo‘yog‘ini, 1904-yilda A.Piktening nikotin alkaloidini sintez qilgani sintetik bo‘yoq va dorivor moddalar kimyosining yuksalishiga olib keldi.

XX asrning dastlabki yillarida organik kimyoga tadqiqotning fizikaviy usullari, elektron tuzilish nazariyasi, 1930-yillarda esa kvant kimyosi kirib kela boshladi, uglevodlar, polipeptidlar, purinlar, oshlovchi moddalar va boshqa tabiiy birikmalarning nozik sintezlari amalga oshirildi. AQSH olimi R.Vudvord strixnin va morfin alkaloidlari, xlorofill, B_{12} vitaminini, P.Ziber tarkibida 51ta aminokislota qoldig‘ini tutgan inson insulini gormonini, G.Koran 50dan ortiq nukleozid tutgan ribonuklein kislotalarini sintez qilib, organik sintezning imkoniyatlari cheksizligini isbotladilar.

Organik kimyoning juda tez sur’atlar bilan rivojlanishi natijasida XX asrning 60-70-yillaridan boshlab, undan muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan to‘rtta fan (bioorganik kimyo, yuqori molekulali birikmalar kimyosi, farmakologik kimyo va sanoat organik sintezi) ajralib chiqdi va mustaqil taraqqiy etmoqda.

Hozirgi kunda organik kimyoga oid yangiliklar ilmiy va referativ jurnallarda, referativ jurnallar ko‘rsatkichlarida, shuningdek, bibliografik asarlarda e’lon qilib boriladi. Har yili organik kimyo yutuqlariga bag‘ishlangan 200-250 mingdan ortiq asar, risola, ilmiy maqola, monografiya va dissertatsiyalar nashr etilmoqda. Jahon miqyosida organik kimyo faniga doir ilmiy maqolalarning 60 foizi ingliz, 20 foizi rus, 10 foizi nemis va qolgan 10 foizi boshqa tillarda chop etilmoqda. Shuning uchun organik kimyo fanini chuqur o‘rganishni maqsad qilib qo‘ygan har bir o‘quvchi ingliz va rus tillarini mukammal bilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. S.O.Sodiqov, S.Q.Sultonov, E.O‘.Yo‘ldoshev “Organik kimyo” “O‘qituvchi” Toshkent-1971

2. “Geterosiklik birikmalar kimyosi” fanidan o‘quv uslubiy majmua Urganch-2013.

3. www.ziyouz.com

O‘RTA UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA O‘QITISHNING MAQSADI

Feruza Farhod qizi Nazarova
Navoiy viloyati Navbahor tumani
27-umumiy o‘rta ta’lim maktabining matematika fani òqituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6954519

Annotatsiya: O‘rta maktablarda matematika o‘qitishning maqsadi quyidagi uch omil bilan belgilanadi: 1. Matematika o‘qitishning umum ta’limiy maqsadi. 2. Matematika o‘qitishning tarbiyaviy maqsadi. 3. Matematika o‘qitishning amaliy maqsadi.

Kalit so‘zlar: Og'zaki va yozma matematik bilimlar, matematik qonuniyat, murakkab hodisalar, fazoviy forma, matematik tafakkur, matematik madaniyat, matematik xulosa.

Matematika o‘qitishning umumta’limiy maqsadi o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi: a) o‘quvchilarga ma’lum bir dastur asosida matematik bilimlar tizimini berish. Bu bilimlar tizimi matematika fani to‘g‘risida o‘quvchilarga yetarli darajada ma’lumot berishi, ularni matematika fanining yuqori bo‘limlarini o‘rganishga tayyorlashi kerak. Bundan tashqari, dastur asosida o‘quvchilar o'qish jarayonida olgan bilimlarining ishonchli ekanligini tekshira bilishga o'rganishlari, ya’ni isbotlash va nazorat qilishning asosiy metodlarini egallashlari kerak; b) o‘quvchilarning og'zaki va yozma matematik bilimlarini tarkib toptirish. Matematikani o‘rganish o‘quvchilarning o‘z ona tillarida xatosiz so‘zlash, o‘z fikrini aniq, ravshan va lo‘nda qilib bayon eta bilish malakalarini o‘zlashtirishlariga yordam berishi kerak. Bu degan so‘z o‘quvchilarning har bir matematik qoidani o‘z ona tillarida to ‘g‘ri gapira olishlariga erishish hamda ularni ana shu qoidaning matematik ifodasini formulalar yordamida to‘g‘ri yoza olish qobiliyatlarini atroflicha shakllantirish demakdir; d) o‘quvchilarni matematik qonuniyatlar asosida real haqiqatlami bilishga o‘rgatish. Bu yerda o‘quvchilarga real olamda yuz beradigan eng sodda hodisalardan tortib to murakkab hodisalargacha hammasining fazoviy formalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlarni tushunishga imkon beradigan hajmda bilimlar berish ko‘zda tutiladi. Bunday bilimlar berish orqali esa o‘quvchilarning fazoviy tasaw ur qilishlari shakllanadi hamda mantiqiy tafakkur qilishlari yanada rivojlanadi. Matematika o ‘qitishning tarbiyaviy maqsadi o ‘z oldiga quyidagilarni qo'yadi: a) o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish. Bu g‘oya bilish nazariyasi asosida amalga oshiriladi; b) o‘quvchilarda matematikani o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarni tarbiyalash. M a’lumki, matematika darslarida o‘quvchilar o‘qishning dastlabki

kunlaridanoq mustaqil ravishda xulosa chiqarishga o‘rganadilar. Ular avvalo kuzatishlar natijasida, so'ngra esa mantiqiy tafakkur qilish natijasida xulosa chiqaradilar. Ana shu chiqarilgan xulosalar matematik qonuniyatlar bilan tasdiqlanadi. Matematika o‘qituvchisining vazifasi o‘quvchilarda mustaqil mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish bilan birga ularda matematikaning qonuniyatlarini o'rganishga bo‘lgan qiziqishlarini tarbiyalashdan iboratdir; d) o‘quvchilarda matematik tafakkurni va matematik madaniyatni shakllantirish. Matematika darslarida o‘rganiladigan har bir matematik xulosa qat’iylikni talab qiladi, bu esa o‘z navbatida juda ko‘p matematik tushuncha va qonuniyatlar bilan ifodalanadi. O ‘quvchilar ana shu qonuniyatlarni bosqichma-bosqich o‘rganishlari davomida ularning mantiqiy tafakkur qilishlari rivojlanadi, matematik xulosa chiqarish madaniyatlari shakllanadi. O‘quvchilarni biror matematik qonuniyatni ifoda qilm oqchi bo‘lgan fikrlarni simvolik tilda to ‘g‘ri ifodalay olishlari va aksincha simvolik tilda ifoda qilingan matematik qonuniyatni o‘z ona tillarida ifoda qila olishlariga o'rgatish orqali ularda matematik madaniyat shakllantiriladi. Matematika o'qitishning amaliy maqsadi o‘z oldiga quyidagivazifalarni qo‘yadi: a) matematika kursida oliugan nazariy bilimlarni kundalik hayotda uchraydigan elementar masalalarni yechishga tatbiq qila olishga o'rgatish, Bunda asosan o‘quvchilarda nazariy bilimlarni amaliyotga bog‘lay olish imkoniyatlarini tarkib toptirish, ularda turli sonlar va matematik ifodalar ustida amallar bajarish malakalarini shakllantirish va ularni mustahkamlash uchun maxsus tuzilgan amaliy masalalarni hal qilishga o‘rgatiladi; b) matematikani o‘qitishda texnik vosita va ko‘rgazmali qurollardan foydalanish malakalarini shakllantirish. Bunda o‘quvchilarning matematika darslarida texnika vositalaridan, matematik ko‘rgazmali qurollar, jadvallar va hisoblash vositalaridan foydalana olish malakalari tarkib toptiriladi; d) o‘quvchilarni mustaqil ravishda matematik bilimlarni egallashgao'rgatish. Bunda asosan o‘quvchilarni o‘quv darsliklaridan va ilmiy ommaviy matematik kitoblardan mustaqil o‘qib o‘rganish malakalarini shakllantirishdan iboratdir. Ma’lumki, matematika o‘qitish metodikasi fani pedagogika lanming ma’lum bir bo‘limi bo'lib, u matematika fanini o'qitish qoiilalaiiiu o'rganish bilan shug'ullanadi. Matematika o'qitish metodikasi matematika fanini o‘qitish qonuniyatlarini o'rganish jarayonida pedagogika, mantiq, psixologiya, matematika, lingvistika va falsafa fanlari bilan uzviy aloqada bo‘ladi. Boshqacha aytganda, maktabda matematika o'qitish muammolari mantiq, psixologiya, pedagogika, matematika va falsafa fanlari bilan uzviy bogiiqlikda hal qilinadi. Matematika o‘qitish metodikasining metodologik asosi bilish nazariyasiga asoslangandir. Matematika metodikasi fani matematik ta’limning maqsadi, mazmuni, formasi, uslubi va uning vositalarini dars jarayoniga tatbiqiy qonuniyatlarini o ‘rganib keladi. Matematika fani fizika, chizmachilik, kimyo va astronomiya fanlari bilan ham uzviy aloqada bo'ladi. M atematika fanining boshqa fanlar bilan uzviy aloqasi

quyidagi ikki yo‘l bilan amalga oshiriladi: 1) matematika tizimining butunligini buzmagan holda qo‘shni fanlarning dasturlarini moslashtirish; 2) boshqa fanlarda matematika qonunlarini, formulalarini teoremalarni o‘rganish bilan bog'liq bo'lgan materiallardan matematika kursida foydalanish. Hozirgi vaqtda matematika dasturini boshqa fanlar bilan moslashtirish masalasi ancha muvaffaqqiyatli hal qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I. A. «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi», T. «O‘zbekiston», 1997.

2. Alixonov S. «Matematika o‘qitish metodikasi». T., «O‘qituvchi» 1992.

3. www.ziyouz.com

MAKTABDA ONA TILI O‘QITISHNING UMUMIY ASOSLARI

Ozoda Normuratovna Niyazova
Navoiy viloyati Navbahor tumani
27-umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6954521

Annotatsiya: Tilning jamiyatda tutgan o‘rni, til va tafakkur hamda til va nutqning o‘zaro bog‘liqligi to‘g‘risidagi g‘oyalar maktabda ona tili ta’limining nazariy asoslari sanaladi. Binobarin, ona tili didaktikasi davlatimizning til to‘g‘risidagi siyosatini amalga oshirish yo‘llari, vositalari, tashkiliy shakllarini ishlab chiqish, ularni maktab o'qituvchilari faoliyatiga tatbiq etishda til va jamiyat, til va tafakkur, til va nutqning o‘zaro daxldorligi, aloqadorligi xususidagi qarashlar hamda tamoyillarga asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Aristotel, fiziologik zamin, nutq qobiliyati, grammatik qurilish, dialektik, ona tili didaktikasi, til va tafakkur.

Til va jamiyat. Til — ijtimoiy hodisa. U kishilarning eng m uhim aloqalashuv va fikrlashuv qurolidir. Til jamiyat a’zolarining tabiiy-biologik tuzilishlari, ijtimoiy kelib chiqishlaridan qat’i nazar, ularning barchasi uchun teppa-teng xizmat qiladi. Jamiyat rivojlangan sari, til ham rivojlanib, takomillashib boradi. Til kishilik jamiyati bilan bir paytda paydo bo'lgan. Tilsiz jamiyat, jamiyatsiz til bo‘lmaydi. Til bo‘lmaganda, jamiyat a’zolari o‘rtasida o‘zaro aloqa bo‘lmas edi. Kishilar o‘rtasida o‘zaro aloqa b ‘lmaganda, jamiyat a’zolari uchun yetarli miqdorda moddiy ne’matlar ishlab chiqara olmasdi. Til inson faoliyatini jamiyatning moddiy negizini yaratish vositasi — ishlab chiqarish qurollari bilan uyg‘unlashtiradi. Inson — ijtimoiy mavjudot. Jamiyat til vositasida boshqariladi. Inson o‘z maqsad va orzularini tabiatdagi narsa-hodisalarga nisbatan belgilaydi. Shu maqsadni amalga oshirishda, ishlab chiqarish qurollaridan foydalanadi. Ishlab chiqarishni boshqarishga oid tajriba bir avloddan ikkinchi avlodga til vositasida meros bo‘lib qoladi. Bilim, tajriba til tufayli keyingi avlodning mulkiga aylanadi. Til jamiyatni rivojlantirish qurolidir. Til insonning har qanday faoliyati bilan bevosita bog‘langan. U shunday zaruriy aloqa qurolidirki, bu qurolni puxta egallamasdan turib, ijtimiy hayot va jamiyat to‘g‘risida to‘la tasavvur hosil qilib bo‘lmaydi. Shunday ekan, til yoshlarni ijtimoiy hayotning faol ishtirokchisi, jamiyatning ongli fuqarosi qilib tarbiyalash vositasidir. Maktabda ona tilini o‘quv predmeti sifatida o‘rgatish — uning tarbiyaviy rolini oshirish, uni tarbiya quroliga aylantirish demakdir. Tilning ijtimoiy vazifalari va tarbiyaviy ahamiyatini faqat o‘qituvchigina emas, balki o‘quvchi ham sezsin, his qilsin. Kishining o‘zi uchun gapirib, o‘zi uchun yozmasligini, aksincha, kishilar uchun

gapirib, kishilar uchun yozishni o‘quvchilar ijtimoiy zaruriyat deb anglamoqlari shart. Maktabda til o‘qitilar ekan, til va jamiyatning o‘zaro bog‘liqligi to‘g‘risidagi quyidagi xulosalarga tayaniladi. 1. Til — kishilarning eng muhim aloqalashuv vositasi. Tilning aloqalashuv va fikr almashuv vazifasi uni puxta o‘zlashtirish zaminida yanada o ‘tkirlashadi. 2. Kishilik jamiyati va til o‘zaro dialektik bog‘liqdir. Tilni mukammal egallash orqali o‘quvchilar jamiyatdagi o‘zgarishlarni qiynalmasdan tushunib oladilar. 3. Til — jamiyatni boshqarish va rivojlantirish quroli. Tilni atroflicha bilish tufayli o‘quvchilar jamiyat a’zolarining ishlab chiqarish qurollarini boshqarishga oid tajribalarini, moddiy ne’matlarni ishlab chiqarish usullarini atroflicha bilib oladilar. 4. Til insonning faoliyati bilan uzviy bog‘langan. Tilni o‘rganish vositasida o‘quvchilar moddiy va ma’naviy hayotning faol ishtirokchilari bo‘lib yetishadilar. 5. Til — jamiyat a’zolarini tarbiyalash vositasi. Uning qonuniyatlari va grammatik qurilishini anglash bolalarda nutq qobiliyati va nutq madaniyatini shakllantirishda, estetik did va fahm-farosatni takomillashtirishga xizmat qiladi. Til va tafakkur. Til va tafakkurning o‘zaro munosabati masalasi fanda uzoq tarixga ega. Bu muammo yuzasidan o‘tkazilgan munozaralarda doimo quyidagi savollar o‘rtaga tashlangan: — til va tafakkur bir narsami yoki ular o'zaro bog‘langan, boshqa-boshqa narsalarmi? — til va tafakkur doimo o‘zaro bog‘langanmi yoki tafakkur tilsiz, til tafakkursiz zuhur etadimi? — agar til va tafakkur alohida-alohida hodisalar boiib, ular o‘zaro bogiangan bo‘lsa, fikrlash jarayonida tilning, so‘zlash jarayonida tafakkurning roli qanday? Qadim zamonlardan toki hozirgi kunlarga qadar olimlar shu savollar ustida bosh qotiradilar. Antik faylasuflar o‘zlarining logos-koinot to ‘g‘risidagi ta’limotlarida «so‘z va fikr borliqni birgalikda ifodalaydi» degan xulosani chiqarishgan edi. Yunon faylasufi Aristotel «til va tafakkur o‘zaro aloqador ikki narsa» deb talqin qiladi. So‘z narsalarni tasavvur etish ramzi, yozuvni so‘zlarning ramzi shaklida qayd etadi. Ammo u tafakkur qonda paydo bo‘ladi deb, tafakkurning fiziologik zaminini noto‘g‘ri tushuntiradi. G ippokrat tafakkurni bosh miya bilan bog‘laydi, o‘zaro so‘zlashuv jarayonida nafas olishni e’tiborga olib, «fikr kishi ongiga havo orqali kiradi», deb yozadi. Rus olimi A.A.Potebnya so‘z va tafakkurning o‘zaro munosabatini tahlil qilib, shunday xulosa chiqaradi: til tayyor fikrlarni ifodalash vositasigina emas, balki u fikrni tug‘diruvchi hamdir. A.A.Potebnya fikrlash jarayonida so'zning rolini juda to ‘g‘ri ko‘rsatadi. Inson so‘z vositasida fikrlaydi. Fikr so‘z vositasida olg‘a siljiydi. Til tafakkur bilan bevosita bog‘langan. Tilni tafakkursiz, tafakkurni tilsiz rivojlantirib bo‘lmaydi. Binobarin, ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilarning nutqini o‘stirish uchun. qilingan har bir ish bolalarning tafakkurini o‘stirish omili ham sanaladi. Shu tufayli, ona tili ta’limida o‘quvchilarning nutqini o‘stirish ona tili didaktikasining dolzarb muammosi hisoblanadi. Fikrlash jarayonida abstraksiyalash va umumlashtirishning roli katta. Abstraksiyalash va umumlashtirish bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan nutq insonning

haqiqatni eng yuksak darajada in’ikos etishini ta’minlaydi. Abstraksiyalash va umumlashtirish bilan uzviy bog‘liq bo'lgan ikkinchi signallar tizimi moddiy borliqni in’ikos etishning eng yuksak darajasi bo‘lishi bilan birga, insonning nerv faoliyatini, uning butun xatti-harakatini boshqarishning ham eng yuksak regulyatoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ikromova R. Grammatika, imlo va nutq o ‘stirishdan tarqatma materiallar. — T.: « O‘qituvchi», 1993.

2. Roziqov O.R. O‘zbek tilidan dars tiplari. — T.: 1976

3. www.ziyouz.com

O‘ZBEKISTONDA FAN VA MAORIFNI DUNYO STANDARTIGA KO‘TARISHDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASH DIDAKTIKASI

Mamura Islomovna Sanaqulova
Navoiy viloyati Navbahor tumani
27-umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf òqituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6954532

Annotatsiya: Didaktika pedagogika fani ta’lim jarayonining umumiy qonunlarini o‘rganuvchi qismidir. «Didaktika» grekcha so‘z bo‘lib, «didasko» — «o‘qitish», «didachol» — «o‘rgatuvchi» degan ma’nolarni anglatadi. «Didaktika» so‘zining ma’naviy tarjimasi «Ta’lim nazariyasi» demakdir. Ta’lim nazariyasi — ta’lim jarayoni tushunchasi va mohiyatini, ta’lim tamoyillarini, ta’lim mazmunini, ta’lim metodlari, shakllari va vositalari mazmunini aks ettiradi.

Kalit so‘zlar: Malaka, I. P. Pavlov, dialektik jarayon, tadqiqot predmeti, ilmiy bilimlar, ko‘nikma va malakalar tizimi, Ta’lim nazariyasi, Didaktika.

Ta’lim nazariyasining asosiy mohiyati ta’limni tashkil etishdan iborat. Ta’limni tashkil etishdan asosiy maqsad esa yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko‘nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdir. Didaktikaning tadqiqot predmeti ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qiluvchi funksional bog‘lanishdir. Didaktikaning maqsadi — o‘qituvchi va o‘quvchi, o‘qitilayotgan fan, didaktik materiallar, didaktik tamoyillar orasidagi munosabatlarning qonuniyatlarini aniqlash. Ta’lim jarayonida o‘quvchilar ongiga singdirilayotgan nazariy bilimlar amaliy faoliyat yordamida yanada mustahkamlanadi. Amaliyot inson bilishining asosiy manbayi hisoblanadi. U o‘zlashtirilayotgan nazariy bilimlarning asosli ekanligini ko‘rsatuvchi haqiqiy mezondir. Inson tevarak-atrofdagi voqelik, narsa va hodisalarning mohiyatini amaliy hayotda ularga to‘qnash kelish yo‘li bilan bilib oladi, ularni o‘zlashtiradi. Mana shu amaliy faoliyat tufayligina ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi munosabatlar, shuningdek, tabiat hodisalari sirini bilib oladi. Narsalar, buyumlar bilan amaliy muomalada bo‘lish natijasida buyumlar sezgi organlariga ta’sir qiladi, sezgi idrokni keltirib chiqaradi. Amaliyotda insonning faol fikrlashi yuzaga keladi. Fikrlash yordamida u real voqelikni chuqur tushunadi. Bilim manbayi sanalgan amaliyotning ahamiyati xususida so‘z yuritganda bilish jarayonining mohiyatini ham ta’kidlab o‘tish joiz. Bilish — murakkab dialektik jarayon bo‘lib, jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga, so‘ngra amaliyotga o‘tish yo‘lidir. Bilish shaxs uchun mavhum, o‘zlashtirilmagan narsa, voqea va hodisalar mohiyatini ong yordamida anglash jarayonidir. Obyektiv borliqni bilish uni sezishdan boshlanadi. Sezish ongning tashqi olam bilan bo‘ladigan chinakam aloqasidir. Sezish tevarak-atrofdagi voqelik, narsa va hodisalarning sezgi a’zolari (bizga ma’lumki, ular beshta)ga ta’sir etuvchi ayrim sifat,

belgilarning ongda aks etishidir. Bunda har bir a’zo, har bir analizator, I. P. Pavlov ta’ kidlab o‘tganidek, narsalarning ayrim eng muhim sifatlarini his etadi. Sezish muayyan narsa, voqea-hodisalar mazmunining ongda idrok etilishiga olib keladi. Idrok — sezgi a’zolari orqali ongga ta’sir etib turilgan narsa va hodisalarning unda (ongda) yaxlitligicha aks etish jarayonidir. Sezish, idrok qilish tashqi buyumlarning yo‘qolishi bilan to‘xtaydi. Sezish va idrok qilish yordamida bilish jarayonida tasavvur ro‘y beradi. Tasavvur inson ongida uzoq muddat saqlanib qoladigan sezishlar va idrokning izidir. Yoki boshqacha aytganda, tasavvur sezgi a’zolariga qachonlardir ta’sir etgan hamda idrok qilin gan narsa va voqea-hodisalarning ongdagi yaqqol hissiy obrazidir. Tajriba vositasida odamda tasavvur zahirasi boyib, ko‘payib boradi. Tasavvur fikrlashda, tushunchalarning tarkib topishida muhim rol o‘ynaydi. Tasavvur muayyan umumlashmalarning mavjudligi bilan bog‘liq. Sezish, idrok va tasavvur bilishning muhim tarkibiy qismlari bo‘lsa-da, ular ham haqiqiy voqelikni bilish muammosini to‘la hal etmaydi. Bilish jarayonining eng yuqori bosqichida tafakkur yuzaga keladi. Inson faqat tafakkur yuritish orqaligina muayyan jarayon yoki voqea-hodisa mohiyatini, munosabatlarning baholanishlarini aniqlaydi va shu orqali moddiy borliqni chuqur, to‘la va to‘g‘ri aks etishiga erishadi. Tafakkur, I. P. Pavlov ta’limotiga ko‘ra, asab tolalari baholanishlari yoki assotsiatsiyalarning hosil bo‘lishidan iborat. Jonli mushohada uchun birinchi signal tizimi, abstrakt tafakkur uchun ikkinchi signal tizimi asosiy ahamiyatga ega. Abstrakt tafakkur voqelik bilan o‘zaro aloqada bo‘lgan taqdirdagina inson bilimlari chuqurlashib boradi. Jonli mushohada va abstrakt tafakkur birligi bilimlarni haqiqiy va chuqur bilimlarga aylantiradi. Jonli mushohada va tafakkur doimo odamning amaliy faoliyatiga asoslanishi kerak. Odam tabiat va ijtimoiy jamiyat qonuniyatlarini ochib, o‘z faoliyatida ulardan foydalanishga intiladi. Har qanday nazariy bilimning qiymati uning amaliyotga qanchalik xizmat qilishi bilan belgilanadi. Nazariya amaliy faoliyat mohiyatidan kelib chiqib asoslanadi hamda amaliy faoliyatning yaxshiroq yo‘lga qo‘yilishiga xizmat qiladi. Biroq amaliyot ayni vaqtda bilimning to‘g‘riligini tekshirish vositasi hamdir. Nazariy g‘oya, fikr amaliyotda tekshirilgan va tasdiqlangandagina inson bilimlarining muhim tarkibiy qismiga aylanadi. Demak, bilim amaliyotdan sezgi, idrok, tasavvur va tafakkur asosida hosil bo‘ladi va yana amaliyotga qaytib boradi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, bilim amaliyotga o‘zining ilgarigi ko‘rinishida emas, balki ancha boyigan ko‘rinishda, ancha yuqori darajada qaytib boradi. Biz bu holni sxema tarzida quyidagi holatda ko‘rishimiz mumkin. Bilim — odamlarning ijtimoiy-tarixiy amaliyot jarayonida to‘plagan umumlashgan tajribasidir. Bilim obyektiv borliqni to‘g‘ri aks ettiradi. Eng to‘g‘ri va mukammal bilimlar ham, o‘z navbatida, doimiy emas, balki ijtimoiy taraqqiyot jarayonida o‘zgarib boradi. Bilimlar asosida o‘quvchilarning kuzatuvchanlik, tafakkur, xotira singari qobiliyatlari rivojlanadi, ularda e’tiqod hosil bo‘ladi, ilmiy dunyoqarashni

shakllantiruvchi g‘oyalar tizimi tarkib topadi. Ta’lim jarayonida biror fan sohasida insoniyat tomonidan o‘zlashtirilgan barcha bilimlarni o‘rganish mumkin emas. Ta’lim jarayonida eng asosiy, eng muhim bilimlar — fanlarning asoslari o‘rganiladi. Ta’lim muassasalarida o‘rganiladigan o‘quv predmetlari soni o‘z vazifalari va xususiyatlariga muvofiq tarzda ortib boradi. Boshlang‘ich sinflarda tabiat va jamiyat qonuniyatlari borasida eng oddiy ma’lumotlar berish asosida ularda dunyoqarash shakllantirib boriladi. Mazkur bilimlar asosida o‘quvchilar obyektiv borliq mohiyatini anglay boshlaydilar. Ta’lim jarayonida o‘quvchilar bilimlar tizimini egallabgina qolmasdan, balki faoliyat ko‘nikma va malakalarini ham hosil qiladilar. Bilimlarning amalda bir necha bor qo‘llanishi ko‘nikmalarning hosil bo‘lishiga olib keladi. Ko‘nikma — bu o‘zlashtirib olingan bilimlar asosida amalga oshiriladigan va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq harakatlarga tayyorgarlikda ifodalangan ongli faoliyatdir. Demak, ko‘nikma muayyan faoliyatni tashkil etish yo‘llari va usullarini bilib, o‘zlashtirib olish hamda o‘z bilimlarini amalda qo‘llay bilishdir. Ko‘nikmalar muayyan vaziyatdagina emas, balki dastlabki shart-sharoitlar o‘zgargan vaqtda ham ma’lum xatti-harakat qilish (tajriba asosida) qobiliyati bilan tavsiflanadi. Ko‘nikmalarni bilimlar bilan aralashtirib yuborish mumkin emas. Har qanday ko‘nikma zamirida bilim yotadi. Bilimlar fikr-mulohazalarda, ko‘nikma esa xatti-harakatlarda ifodalanadi. Xatti-harakatlar aqliy yoki jismoniy bo‘lishi mumkin. Malaka — muayyan usul bilan bexato bajariladigan, o‘rganib qolingan, avtomatlashgan ongli harakatdir. Malaka bir xatti-harakatning o‘zini bir xil sharoitda ko‘p marta takrorlash natijasida hosil qilinadi. Malaka qanchalik puxta bo‘lsa, odam ishni shunchalik tez va to‘g‘ri bajaradi. Malakalar turlicha bo‘ladi: chunonchi, o‘quv malakalari — o‘qish, yozish, og‘zaki hisoblash va boshqalar; mehnat malakalari — ish qurollari bilan ishlash, materiallar hamda texnika bilan muomalada bo‘lish va hokazolar; harakat malakalari — yurish, yugurish va shu kabilar. Ko‘nikma kabi malaka ham egallangan bilimlar asosida hosil qilinadi. Ko‘nikma va malaka o‘rtasida farqli tomonlar ham bor. Xususan, o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan ko‘nikma va malakalar har xil xarakterda bo‘ladi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, bilim, ko‘nikma va malakalar ta’lim jarayonida tarkib topadi. Ta’lim — dialektik tarzda taraqqiy etib boradigan ichki ziddiyatli jarayon bo‘lib, unda ikki tomon — o‘qituvchi va o‘quvchi ishtirok etadi. Ta’lim o‘quvchilarga bilimlar berish, ularda ko‘nikma va malakalar hosil qilish, yangi haqiqatlarni ochishga yo‘naltirilgan ijodiy, mantiqiy tafakkurni tarbiyalashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni.// «Ma’rifat» gazetasi, 1997-yil 1-oktabr.

2. Y. A. Komenskiy. Buyuk didaktika. — T.: «O‘qituvchi», 1970

3. www.ziyouz.com

ONA TILI — BOSHLANGMCH SINFLARDA O‘QUV PREDMETI SIFATIDA

Sharipova Xolida Boymurod qizi
Navoiy viloyati Navbahor tumani
27-umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6954540

Annotatsiya: Til fikrni shakllantirish va bayon qilish, taassurot, his-kechinmalarni ifodalashda muhim o'rin tutadi. Til jamiyat a’zolarining bir-biri bilan o'zaro aloqasi uchun xizmat qiladigan vositadir. Bu vosita qanchalik takomillashsa, fikr shunchalik aniq, ta ’sirchan ifodalanadi. Demak, kishilaming o'zaro munosabati, his-tuyg'ulari, kechinma va holatlari til vositasida aniqlashadi.

Kalit so‘zlar: Grammatika, fonetika, leksikologiya, to'g 'ri talaffuz, grammatik material, nutq, o'qish va yozishga oid malakalar, og'zaki va yozma nutq, savodli yozish, K.D.Ushinskiy.

Maktabda ona tilini chuqur o'rganish zarurati tilning bajaradigan asosiy vazifalaridan kelib chiqadi. K.D.Ushinskiy boshlang'ich maktab o'quv predmetlari tizimida ona tiliga katta ahamiyat berib, uni markaziy va yetakchi predmet hisoblagan. „Ajoyib o'qituvchi bo'lgan ona tili bolaga ko'p narsani o'rgatadi... Bola ikki-uch yil ichida shuncha ko'p narsa o'rganadiki, ko'p narsa bilib oladiki, 20 yil qunt bilan metodik jihatdan juda to'g'ri o'qiganda ham uning yarmicha o'rgana olmaydi. Ona tilining ulug' pedagogligi ham ana shundadir", — deydi u. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda ona tilini o'rganishga katta ahamiyat beriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ona tili darslarida ongli o'qish va savodli yozishga o'rganadilar, og'zaki va yozma nutqning qonun-qoidalarini egallaydilar. Ona tili sohasidagi ko'nikma-malakalar (nutq, o'qish va yozishga oid malakalar) o'quvchilarning o'quv mehnatining zaruriy sharti va vositasidir. O'quvchi o'qish ko'nikm alarini egallash bilan bir qatorda, birinchi navbatda, o'zining ona tilini o'rganishi zarur, chunki ona tili bilimdonlikning, aql-idrokning kalitidir. Ona tili boshqa fanlarni o'qitish vositasi hamdir: jamiyat tarixi ham, tabiiy fanlar ham ona tili yordamida o'rganiladi. Demak, ona tili bolaning umumiy kamol topishida ham, bilim va mehnatga havasini uyg'otishda ham alohida o'rin tutadi. Til muhim tarbiya vositasidir. Badiiy adabiyotlarni, gazeta, jurnallarni o'qigan bola o'zida eng yaxshi xislatlarni tarbiyalab boradi, muomala madaniyatini egallaydi. Ona tili boshlang'ich sinflarda asosiy o'rinni egallar ekan, har bir o'quvchida ona tiliga qiziqish va muhabbatni tarbiyalab borish zarur. Boshlang'ich sinflarda ona tili mashg'ulotlari turi va mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi: 1. O'qish, yozuv, grammatik materialni o'rganish, kuzatishlar hamda

o'quvchilarning ijtimoiy faoliyatlari bilan bog'liq holda, ularning og'zaki va yozma nutqini o'stirish. 2. Birinchi sinfga kelgan bolalarga savod o'rgatish, ya’ni ularni elementar o'qish va yozishga o'rgatish, bu ko'nikmalarni malakaga aylantirish. 3. Adabiy til me’yorlarini, ya’ni imloviy va tinish belgilariga rioya qilingan savodli yozuvni, to'g 'ri talaffuzni o'rganish, nutq va uslubiy elementlarni egallash. 4. Grammatika, fonetika, leksikologiyadan nazariy materiallarni o'rganish, tildan ilmiy tushunchalarini shakllantirish. 5. O'quvchilarni o'qish va grammatika darslari orqali badiiy, ilmiyom mabop va boshqa adabiyotlar namunasi bilan tanishtirish, ularda badiiy asarni idrok etish ko'nikmasini hosil qilish. Bu vazifalarning hammasini boshlang'ich sinflarda ona tili predmeti hal etadi va ular ona tili dasturida aks etadi. Dastur davlat hujjati bo'lib, unda o'quv predmetining mazmuni va hajmi, shuningdek, shu predmetdan bilim, ko'nikma va malakalar darajasiga qo'yilgan asosiy talablar belgilangan bo'ladi. O'qituvchi va o'quvchilar dastur talablari asosida ish olib boradilar. Boshlang'ich sinflarnig ona tili dasturi ikki qismdan iborat: 1. Tushuntirish xati. 2. Asosiy qism. Tushuntirish xatida ona tili predmetining tutgan o'rni, lining vazifalari ko'rsatilib, metodik yo‘l-yo‘riqlar beriladi. Dasturning asosiy qismi quyidagi bo'lim lardan tashkil topgan: 1. Savod o‘rgarish va nutq o 'stirish. 2. Sinfda, sinfdan tashqari o 'qish va nutq o ‘stirish. 3. fonetika, grammatika, imlo va nutq o'stirish. Ularda o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar mazmuni va ularning bilim, ko'nikmalariga qo'yilgan talablar ko'rsatiladi: Har bir bo'lim bir necha qismlardan iborat. Masalan, „Sinfda, sinfdan tashqari o'qish va nutq o'stirish" bo'limi „Sinfda o'qish", „Sinfdan tashqari o'qish", „O'qish mavzulari". „O'qish ko'nikmalari". „Matn ustida ishlash" kabi qismlarni o'z ichiga oladi. O‘qish va yozish — nutq faoliyatining turi. Maktabda o'qitish elementar o'qish va yozishga o'rgatishdan boshlanadi.„Alifbe“ga asoslangan holda qisqa vaqt ichida o'quvchilar o'qish va yozishga o'rgatiladi. ya’ni o'qish va yozish ko'nikmasini egallaydilar. Savod o'rgatish davrida o'qish va yozish harakatini maqsadga muvofiq ravishda bajara olish o'qish va yozish ko'nikm asi deyiladi. Bu ko'nikma bilimni talab qiladi, chunki har qanday ko'nikma bilimsiz shakllanmaydi. Bilim ko'nikmaga aylanmagan bo'lishi mumkin. Masalan, bola v harfining elementlarini, yozuv chiziqlari orasiga qanday joylashtirilishini bilib, uni daftarda yoza olmasligi yoki o'quvchi harflarni tanib, ularni o'qiy olmasligi mumkin. Yozish ko'nikmasini hosil qilish uchun boshqa faoliyat turlari, ya’ni yozish jarayonida partada to'g'ri o'tirish, ruchkani barmoqlar orasida tulish, daftarni qiyalikda qo'yish kabilar ham o'rgatiladi. O'qish va yozish ko'nikmasi takomillashtirila borib, malakaga aylantiriladi. Malakaning shakllanishi uchun bir faoliyat bir necha bora takrorlanishi lozim. Yozish malakasida o'quvchi ruchkani qanday ushlash, qanday yurgizish haqida o'ylab o'tirmay, so'z va gaplarni yoza boshlaydi. Demak, o'qish va yozish malakasi harakatning o'ylab o'tirmay amalga oshirilish jarayonidir. Malaka o'qitishning keyingi bosqichlarida mustahkamlanib,

avtomatlashish darajasiga yetkaziladi. O 'qish va yozish kishi nutq faoliyatining turi bo'lib, u nutqqa oid malakadir. O'qish malakasi ham, yozish malakasi ham nutq faoliyatining boshqa turlari bilan, ya’ni og'zaki hikoya qilish, o'zgalar nutqini eshitish orqali anglash, ichki nutq bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Maktabda o'qitishning muvaffaqiyati savod o'rgatishning qanday tashkil etilganligiga bog'liq. O'quvchini savod o'rgatish jarayonida elementar o'qish va yozishga o'rgatishda o'quvchilarning faoliyat ko'rsatishi va nutq faoliyatiga kirishishlari uchun talab bo'lishi, o'z fikrini og'zaki yoki yozma ifodalashi uchun zaruriyat va ehtiyojni yuzaga keltiruvchi vaziyat yaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A. G'ulomov. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. - T.: „O'qituvchi", 1992.

2. K. Qosimova. Boshlang'ich sinflarda imlosi qiyin so'zlarni o'rgatish. — T.: 1964.

3. www.ziyouz.com

GRAMMATIK QURILISHNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Baxor Bekmuratovna Toshova
Navoiy viloyati Navbahor tumani
27-umumiy o‘rta ta’lim maktabining rus tili fani òqituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6954546

Annotatsiya: Bola tilining grammatik tizimini o‘z vaqtida shakllantirish – uni to‘laqonli nutqiy va umumiy psixologik rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Tilning grammatik tizimini bola predmetli harakatlarni o‘zlashtirish bilan uzviy bog‘liqlikda bilishni rivojlantirish asosida egallaydi.

Kalit so‘zlar: Rasmiy-semantik munosabatlar, motivatsiya, sintaksis, morfologiya, nutqiy va umumiy psixologik rivojlantirish, grammatik tizim.

Maktabgacha yoshdagi bola nutqining grammatik tizimini shakllantirish morfologiya (so‘zlarni sonlar, kelishiklarga qarab o‘zgartirish), so‘z hosil qilish (maxsus vositalar yordamida bir so‘z negizida boshqa so‘zni hosil qilish), sintaksis (oddiy va qo‘shma gaplarni tuzish) ustidagi ishlarni o‘z ichiga oladi. Bolalarning grammatik rivojlanishi boshqarishni pedagog eng avvalo ham bolaning o‘zi bilan (dialog shaklida), ham boshqa bolalar bilan birgalikdagi muloqot faoliyati vositasida amalga oshirishi lozim. Bolalarda grammatik tizimni – sintaksis, morfologiya, so‘z hosil qilishni shakllantirish o‘zining alohida xususiyatlariga ega bo‘lib, ularni rivojlantirish uchun pedagog turli vositalarni qo‘llashi darkor. Morfologiya va so‘z hosil qilishni o‘zlashtirish uchun rag‘batlantiruvchi til o‘yinlari; sintaksisni rivojlantirish uchun esa, keng fikr bildirish uchun motivatsiyani yaratish muhim. Ma’lumki, bolalar o‘z iqtidoriga qarab turli darajada rivojlanadi va o‘z navbatida pedagogning rahbarligi ham bosqichli xususiyatga ega bo‘ladi. Bola hayotining beshinchi yilida pedagog rag‘batlantirishga (gap so‘z hosil qilish va so‘z ijodkorligi xususida bormoqda); oltinchi yilda – gap tarkibini eng oddiy tahlil qilish, nutqning grammatik to‘g‘riligini shakllantirishga (so‘z o‘zgartirishda); yettinchi yilda – hosila so‘zlar o‘rtasidagi rasmiy-semantik munosabatlarni oddiy tahlil qilishga, nutqiy ijodkorlikka, murakkab sintaktik tuzilmalarni ixtiyoriy tuzishga alohida e’tibor berishi lozim. Didaktik o‘yinlar va grammatik mazmundagi mashqlar – bolalarning tilga oid o‘yinlarini, ularning grammatik sohasidagi faolligini rag‘batlantirishning muhim vositasidir. Pedagog bolalarga so‘z birikmasini o‘ylab ko‘rish, so‘ngra gapda so‘zlarni bir-biri bilan to‘g‘ri bog‘lash qobiliyatini o‘rgatishi zarur. Bolalar fikrlarida murakkab sintaktik tuzilmalarni shakllantirishni «yozma nutq vaziyati»da, ya’ni bola matnni aytib turadigan, katta yoshli kishi esa, uni yozib boradigan vaziyatda amalga oshirish tavsiya etiladi. Bolaga bir turdagi tuzilmalardan foydalanmagan holda

so‘zlarning to‘g‘ri tartibini qo‘llashni o‘rganishda yordam beradigan mashqlarga alohida e’tiborni qaratish zarur. Muhimi, bolada gap tarkibi haqida va har xil turdagi gaplarda leksikadan to‘g‘ri foydalanish haqida oddiy tasavvurlar shakllansin. Buning uchun bolalarga gapda so‘zlarni biriktirishning turli usullarini, so‘zlar o‘rtasidagi ayrim mazmunli va grammatik bog‘liqliklardan foydalanishni hamda gapni intonatsion jihatdan rasmiylashtirishni o‘rgatish zarur. Shunday qilib, nutqning grammatik tizimini shakllantirish jarayonida sintaktik birliklar bilan amallar bajarish ko‘nikmasi shakllanadi, muayyan muloqot sharoitida va ravon monologik fikrlarni tuzish jarayonida til vositalarini ongli ravishda tanlash ta’minlanadi. Bola tilining grammatik tizimini shakllantirish uning nutqi (tili) rivojlanishining umumiy oqimida ro‘y berishi lozim; pedagogik rahbarlik shakllari va metodlari umumiy nutqiy rivojlanishning bosqichma-bosqich xususiyatga egaligini, eng avvalo dialog va monologni, so‘zgacha bo‘lgan mazmunli-semantik tizimdan vaziyatga oid ixtiyoriy iborali nutqqa o‘tish (keyinchalik dialog va monolog rivojlanadi), bolalarning nutqiy havaskorligi sohasi sifatida tengdoshlar bilan muloqotning dialogik shakllarini o‘zlashtirishni hisobga olishi lozim. Grammatika sohasidagi kamchiliklar shundan iboratki, bunda bolalar so‘zlarni rodda noto‘g‘ri moslashtirdilar (встретился колобок лису), gap bo‘laklari ham noto‘g‘ri joylashtirilgan (inversiya): - А доктора там не было, а волк толко был; И навстречи ети встретился заяс va boshq. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning nutqini tadqiq etish natijalarini sifat jihatdan tahlil etish shuni ko‘rsatdiki, eng ko‘p fikr bildirishlar hajmi sevimli ertaklarni aytib berish hissasiga, eng kami esa, o‘z shaxsiy tajribasidan kelib chiqib, hikoya tuzish hissasiga to‘g‘ri keldi. Fikr bildirish hajmi va nutqning tezkorligi nafaqat bolaning faol lug‘at zaxirasini, balki uning «o‘ta tezkor sintez» qila olish qobiliyatini ham tavsiflaydi. Bundan tashqari, fikr bildirish hajmi uning obyekt bilan tanishlik darajasidan dalolat bermoqda. Bolalarning biron-bir narsa, hodisa haqidagi bilimlari qanchalik chuqur va xilma-xil bo‘lsa, ularning fikr bildirishlari ham shunchalik keng bo‘ladi. Bolalarning nutqida oddiy gaplar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Ba’zan «esa», «va» kabi bog‘lovchilar ishtirokida tuzilgan va ba’zan esa ularsiz bog‘langan qo‘shma gaplar ham uchrab turadi. Bildirish xususiyatiga ko‘ra bolalar hikoyalaridagi aksariyat gaplar darak gap- lardir, nutq bir xil ohangda jaranglaydi, ko‘pincha so‘zlar o‘rtasidagi sintaktik bog‘liqlik, ya’ni: gapdagi so‘zlar tartibi, inversiya buzilishiga oid xatoliklarga yo‘l qo‘yiladi. Hikoya qilib berishda so‘z birikmalarini tuzishda xatoliklarga yo‘l qo‘yilishi kuzatildi. - eganing kesim bilan noto‘g‘ri bog‘lanishi: keldi quyon; - aniqlovchining aniqlanuvchi so‘z bilan noto‘g‘ri bog‘lanishi: uchradi ayiq, uchradi tulki; - kelishikda va kelishik-gap boshqaruvidagi xatoliklar: sayrga ayiq bilan chiqdik. Bolalar fikrlarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, ular nutqida aniq ma’noli otlar ustunlik qiladi. Nutqni otlar bilan boyitish quyidagi sharoitlar ta’sirida ro‘y beradi: bola o‘zi uchun qandaydir ahamiyatga ega bo‘lgan narsalarninggina

nomlarini o‘zlashtirib olmoqda; unga tanish narsalar va shaxslar ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirjalilova S., To‘laganova R. Ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalar. Metodik tavsiyanoma. –T., 2008.

2. Safarova R. va boshqalar. Savod o‘rgatish darslari. –T.: Ma’naviyat, 2003.

3. www.ziyouz.com

TARIXI FANINING METODOLOGIK ILMIY-NAZARIY ASOSIARI VA USULLARI

Sarvinoz Raimovna Xasanova
Navoiy viloyati Navbahor tumani
27-umumiy o‘rta ta’lim maktabining tarix fani òqituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6954554

Annotatsiya: Har qanday fan kabi tarix fani ham o‘zining metodologik ilmiy-nazariy asoslari va tamoyillariga ega. Bular tarix fanining asosini tashkil etib, uni rivojlanishi, jamiyat va millat manfaati yo'lidagi nufuzining ortib borishi uchun o'ta muhim ahamiyatga ega. Eng muhimi, ilmiy-nazariy tamoyillar Vatan tarixining haqqoniy yozilishi, tarixiy haqiqatni yuzaga chiqishiga xizmat qiladilar.

Kalit so‘zlar: Abdulla Avloniy, mafkuraviy-falsafiy bo‘shliq, kommunistik g‘oya, intellektual ilmiy-amaliy faoliyat, metodologik ilmiy-nazariy asoslar.

Agar tarix insoniyat yashab rivojlanishi uchun ijtimoiy zaruriyat va ma’naviy-ma’rifiy ehtiyoj bo‘lsa, tarix fani esa, bu ehtiyojlami ro'yobga chiqishi uchun ma’sul bo'lgan yuksak intellektual ilmiy-amaliy faoliyatdir. Buning samarali bo'lishi, ya’ni tarix fani rivojlanishida metodologik ilmiy g'oya va nazariyalar hamda usul va uslubiy tamoyillarning ahamiyati benihoya kattadir. Chunki bular tarixning mazmun va mohiyati hamda falsafasini chuqurroq ochib berishga, shuningdek, tarix fanining maqsad va vazifasini to'laroq ro'yobga chiqishiga bevosita yordam beradi. Shuning uchun ham O‘zbekiston tarixi fanining metodologik ilmiy-nazariy asoslari, g'oya va ta’limotlari nimalardan iborat bo'lishi o'ta muhim masala hisoblanadi. Islom Karimov tarixning eng muqaddas milliy va umuminsoniy xotira hamda qadriyat ekanligini ta’kidlab, “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q“, “O‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi”, “Tarix xalq ma’naviyatining asosidir” degan tarixiy haqiqatni to'g'ri anglatuvchi o'ta teran tarix falsafasiga oid fikrlarni olg'a surdi. Bu kabi tarix falsafasiga oid yuksak xulosalarni o'z vaqtida buyuk millatparvar jadidlar ham juda aniq anglagan holda Vatanni ozod etish, millatni ijtimoiy g'aflat uyqusidan uyg'otib taraqqiy ettirish uchun asosiy e’tiborni tarixga qaratdilar. Va «tarixi yo'qning o'zi yo'q» degan falsafiy tushunchaga amal qilib, tarixda ilk bor tarixni o'zlari tashkil etgan jadid maktablarida o'qita boshlashi bilan, millatni o'z tarixidan bahramand qilishdek o'ta buyuk ma’rifat ishiga tarixda birinchi bor asos soladilar. Buyuk jadid Abdulla Avloniy so'zi bilan aytganda, jadidlar umuman tarbiyani, shuningdek, tarix ta’limi tarbiyasini millat uchun «yo hayot- yo najot, yo halokat - yo saodat, yo falokat masalasidir» deb bildilar. «Qaysi millat yashashni (ravnaqu, taraqqiyotni) istasa, - deydi Abdurauf Fitrat - tarixini bilishi lozim bo'ladi, zero, tarix bir ko'zguga

o'xshaydi». Dastlabki paytda hozirgi mustaqil davlatlar hamjamiyati tarkibidagi sobiq ittifoqdosh mamlakatlar, shuningdek, O'zbekistonda ham g'oyaviy nazariy, mafkuraviy-falsafiy bo‘shliq paydo bo‘ldi. Bu esa, o‘z-o‘zidan boshqa mamalakatlarda bo'lganidek, bizning Vatanimiz - O'zbekiston tarixi fani uslubiyali (metodolgiyasi) qayta ishlanishi, aniqrog'i, butunlay yangidan varatilishini ilmiy-hayotiy zaruriyatga aylantirib qo'ydi. Bu o‘ta muhim ilmiy -amaliy masalani ishlab chiqish, o'z-o‘zidan tarixchi va boshqa olimlar eski, majburan, qon va qatag'onlik bilan singlirilgan kommunistik g‘oya, ta’limot va mafkuradan holi bo'lishi uchun tarixan o'tish davrini talab etishi tabiiy bir hol bo'ldi. Mana shuning uchun ham istiqloldan so‘ng tarix va boshqa gumanitar fanlardan yozilgan dastlabki darsliklarda bu fanlarning metodologik ilmiy -nazariy va g‘oyaviy asosiari hamda usullarini ko'rsatishning iloji bo'lmadi. O‘tgan istiqlol yillarida tarixchi olimlarimiz Vatanimiz tarixini butunlay yangidan o‘rgandi va o'zlashtirdi, uni darsliklar asosida qayta yozishga muvaffaq bo‘ldilar. Bir qator monografik asarlar yozildi va eng dolzarb mavzularda o'nlab ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi hamda dissertatsiyalar himoya qilindi. Islom Karimov va hukumat Vatan tarixini qayta yozish va uni asosiy tarbiya quroliga aylantirish uchun «yangi tarix» g'oyasini olg‘a surdi. O'zbekiston tarixi yetakchi fan sifatida maktab, litsey, kollej va oliy o‘quv yurtlarida ilk bor, keng miqyosda, eng qadimgi davrdan boshlab to hozirgacha o'rganila boshlandi. Bularning samarasi o'laroq, keyingi paytda O‘zbekiston tarixi fani metodologiyasini yaratish imkoniyati paydo bo‘ldi. Avvalo, metodologiya haqida to‘xtalsak, metodologiyaning lug'aviy ma’nosi grekcha «methodos» va «logos» degan ikki so‘z birikmasidan iborat bo‘lib, metod ya’ni usul - tadqiqot olib borish usuli (yo‘li), nazariya, ta’limot, logiya esa fan deganidir. Demakki, metodologiya, ya’ni uslubiyat ilmiy tadqiqot olib borish yoki biror bir masalani ilmiy o'rganishning eng qulay usullari, eng to‘g‘ri va mukammal g‘oyasi, nazariyasi va ta’limotlari majmuyidan iborat bir butun fandir. Boshqa ma’noda esa, metodologiya ilmiy bilish yoki ma’lum bir ilmiy faoliyatni tashkil etish va amalga oshirishda qo‘llaniladigan usullar haqidagi fandir. Demak, tarix fani metodologiyasi tarixni o'rganuvchi va o'qituvchilarni aniq maqsad sari to'g'ri yetaklaydi, ya’ni tarix haqqoniy yozilishi va o'rganilishiga yo‘l-yo‘riq ko'rsatadi. Tarix fanining rivoji, uning metodologiyasi rivojiga bog‘liq bo‘lganidek, tarix fani metodologiyasi yuksak darajada takomil topishi tarix fani qay darajada ekanligiga ham bog‘liq. Bu holdagi uzviy ikki tomonlama bog‘liqlik umumiy qonuniyatidir. Bizning tariximiz ham, jahon tarixi ham din (aniqrog'i dinlar) tarixi bilan uzviy bog'liq. Ijtimoiy hayotni dindan, dinni ijtimoiy hayotdan ajratib bo‘lmaydi. Agar ajratilsa, tarixga ham, dinga ham mantiqqa ham zid bo‘ladi. Ma’lumki, sovet tarixi fani tarixni soxtalashtirdi, din ilmga zid, tarixiy taraqqiyotga to‘sqinlik qiladi degan dahriylikka amal qildi. Tarix qanday bo'lsa, uni shundayligicha o‘rganish ustivor bo‘lmog‘i kerak. Shuning uchun ham u din bilan

mo‘tadil, mutanosiblik asosida o‘rganilmog‘i hozir eng asosiy zaruriyat bo‘lib turibdi. Bu esa, yoshlarni har xil din niqobidagi dinga aloqasi yo‘q terroristik guruhlarga adashib kirib qolishlarining oldini oladi, shuningdek, tariximizni haqqoniy va to‘la yozilishiga imkon beradi. Tarixiy-tanqidiylik ilmiy usul tamoyili tariximizda qadimdan muarrixlar tomonidan qo‘llanib kelingan eng qulay usul hisoblanadi. Bu usul tarixiy voqea va hodisalaming nechog‘liq to‘g‘ri hamda noto‘g‘riligini aniqlashga, tarixni haqqoniy va to‘g‘ri yozilishiga yaqindan yordam beradi. Istiqlol tufayli o‘z tariximizni o'zimiz yozish va tarix fani metodologiyasini ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ldik. O‘tgan davr ichida O'zbekistonning yangi tarixi yozildi va tarix fani tez rivojlandi. Butunlay yangi ruh va mazmundagi ilmiy qarash (konsepsiya)lar paydo bo'ldi, o‘quv qo‘llanma va darsliklar, tarixiy asarlar chop etildi. Bu o‘rinda yuqoridagi metodologik ilmiy-nazariy asos va ularning ahamiyati katta bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alimova D.A. va b. O‘zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). -T.s “Sharq“, 2000.

2. Alimova D. A., Golovanov A.A. O‘zbekiston mustabid sovet tuzumi davrida: siyosiy va mafkuraviy tazyiq oqibatlari.-T., “O‘zbekiston”, 2000.

3. www.ziyouz.com

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Назира Алеевна Махмудова
Учитель начальных классов школы № 22 г. Фергана
https://doi.org/10.5281/zenodo.6954560

Аннотация: Данная статья посвящена проблеме использования современных образовательных технологий в обучении русскому языку в начальной школе. Современные педагогические технологии в сочетании с современными информационными технологиями позволяют значительно повысить эффективность образовательного процесса, решить задачи, стоящие перед образовательным учреждением по воспитанию всесторонне развитой, творчески свободной личности.

Ключевые слова: технологии, педагогические технологии, технология критического мышления, школа.

Следуя новым тенденциям развития науки и образования, перед лингвистами и методистами была поставлена задача совершенствования методических рекомендаций в области обучения русскому языку с опорой на культурную принадлежность учащегося. Таким образом, это помогает студенту правильно адаптироваться к иностранному языку и его культурной среде, не выходя за рамки привычных условий обучения. В основном преподаватели в Узбекистане, особенно курсы русского языка как иностранного, сталкиваются с общими трудностями, такими как отсутствие знакомства, недостаточное время для занятий, практики, занятий и разница в уровне изучающих корейский язык [1].

В XXI веке значительно изменились социально-педагогические условия преподавания русского языка в Узбекистане: во-первых, значительно увеличилось количество школ с русским языком обучения, а в школах с нерусским языком обучения растет число поликультурных классов, что настоятельно требует от учителя владения методикой преподавания русского языка как неродного, которая значительно отличается от методики преподавания родного языка; во-вторых, вводятся новые федеральные государственные образовательные стандарты для школ, новые формы итоговой аттестации и средства оценивания качества обучения, успешное внедрение которых зависит от скорейшей адаптации к ним учителей; в-третьих, бурное развитие новых информационных технологий, повышенный интерес к ним школьников открывают большие перспективы использования ИКТ в

образовательном процессе, однако многие учителя еще не готовы к активному их включению в практику преподавания.

Школа является важным элементом в этом процессе. Основными задачами современной школы являются раскрытие способностей каждого ученика, воспитание порядочного и патриотичного человека, человека, готового к жизни в высокотехнологичном, конкурентном мире. Воспитание должно быть построено таким образом, чтобы они могли самостоятельно ставить перед собой серьезные цели и достигать их, умело реагировать на разные жизненные ситуации.

Ведущей педагогической идеей является использование современных образовательных технологий с целью развития интереса к русскому языку и литературе и, как следствие, повышения эффективности образования.

На своих уроках я стремлюсь создать систему оптимального сочетания элементов современных образовательных технологий и индивидуализации обучения, не забывая при этом о физическом и психическом здоровье учащихся. А использование ИКТ на уроках русского языка и литературы повышает интенсивность и эффективность учебного процесса. При компьютерном обучении усваивается гораздо больший объем учебного материала, чем это происходило за то же время в традиционных условиях обучения. Использование компьютера благотворно влияет на качество обучения учащихся.

С 2016 года работаю над методической проблемой «Современные технологии на уроках русского языка и литературы как средство повышения качества образования». В своей работе опираюсь на методические рекомендации, практические материалы, методические пособия.

XXI век называют веком технологий, ведь без высоких технологий сегодня не обходится ни одна конкурентная сфера человеческой жизни. Особенно это актуально в сфере образования.

Современные образовательные технологии должны иметь определенные характеристики:

• Человечность: технологии должны улучшать качество жизни людей, например, качество образования;

Fundamentally, popular songs touch the lives of learners, and are connected with their various interests and everyday experiences. Almost all popular songs are related to the same topic of friendship, love, dream, sorrow, and the rest which are the common feelings of people. Since most young people nowadays are interested in a wide range of cultural forms outside classes, songs may be a really motivating and unique teaching tool. Experiencing with films, television, computer games and popular music seems to be highly motivating. Accordingly, more time and concentration to popular music in English foreign language classroom would surely increase learners’ motivation as classroom tasks would reflect on their knowledge, their music and the vocabulary they already know from the songs (Baoan 2008). Although motivation is absolutely important in learning all school subjects, this is studying a foreign language that makes motivation play a huge role. Dorneyi points out that learning a language is a long-term process and learners are in charge of their learning at length. The students need to support their efforts for a long time, very often against numerous failures and difficulties. Songs play a meaningful role in life. Music can be heard almost in every place around the world. Such kind of entertainment as music may be applicable for students’ to learn, efficiently and enjoyably.

Used literatures:

1.Arevalo, Edgar Alberto Reina, 2010. “The use of songs as a tool to work on listening and culture in EFL classes” Last access: 17.12.2015.

2.Carter, Ronald – Michael McCarthy, 1988. Vocabulary and Language Teaching. Harlow: Longman Group UK Limited.

3.Siek-Piskozub, Teresa – Wach, Aleksandra, 2006. Muzyka i słowa: rola piosenki w procesie przyswajania języka obcego. Poznań: Wydawnictwo Naukowe Uniwersytetu im. Adama Mickiewicza.

ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯДАН ФОЙДАЛАНА БИЛИШИ

Дилбар Жумаева
Навоий вилояти Навбаҳор тумани
14-ИТФЧЎИДУМ рус тили фани ўқитувчиси
https://doi.org/10.5281/zenodo.6969857

Аннотация: Ушбу мақолада ёш авлодни шакллантиришда ўқитувчиларнинг педагогик технологиялардан фойдалана билиши ва ушбу технологияларни ўқувчилар билим олишида тутган ўрни ҳақида маълумот берилган.

Калит сўзлар: Замонавий ўқитувчи, педагогик технологиялар, педагогик инновацион технологиялар.

Жадал суръатлар билан ривожланиб бораётган жамиятимизда комил инсонни тарбиялаш,уларни илмли,касб-хунарли бўлишларига эътибор қаратиш ўта долзарб вазифадир. Бундан 15-20 йил илгариги ўқувчи билан ҳозирги сиз-у биздан анча илгарилаб, дунёқарашлари тез ривожланиб бораётган ёшлар ўртасида бирмунча фарқ бор. Ҳозирги замон ёшларини тўғри йўлга солиш, Ватанга садоқатли,фидойи, ўз мустақил фикрига эга бўлган ҳақиқий баркамол авлод қилиб тарбиялаш учун биз ўқитувчилардан ҳам замон билан ҳамнафас бўлиш, ўз устимизда тинимсиз ишлаш,таълим -тарбия жараёнида инновацион педагогик технологияларни жорий эта билиш талаб қилинмоқда. Нар бир замонавий педагог ўқувчидан талаб қилишдан олдин, аввалambор, ўзи одоб-ахлоқ қоидаларига мунтазам равишда риоя қилиши, кийиниш маданиятига эътиборли бўлиши, дид-фаросатли, ўз фани бўйича яхши касбий маҳоратга эга бўлиши, устоз сифатида ўқувчилар ҳавас қиладиган даражада намуна бўла олиши, дарс ўтиш жараёнида педагогик ахборот-коммуникация технологияларидан унумли фойдалана олиши, ўтаётган дарсига қўйилган мақсадларга эриша олиши, ҳар бир дарсга доимий равишда масъулият би ёндашиб,пухта тайёргарлик кўрган ҳолда вақтдан унумли фойдаланиб ўз дарсини ўтиши, замон талаби бўлган техника воситасидан фойдалана билиши керак. Бундан ташқари, ҳозирги кундаги ҳар бир замонавий ўқитувчи ўз фанини мукаммал билиши билан бир қаторда ҳар бир ўқувчини чин қалбдан сева олиши,болаларнинг жуда тезлик билан ўзгариб бораётган психологиясини яхши билиши, шунингдек,давлатимиз сиёсатининг асосий йўналишларидан хабардор бўлиши, уни таълим жараёнига тадбиқ эта олиши ва ўқувчилар қалбига миллий мафкурани сингдира билиши шарт деб ўйлайман.

Ҳозирги кунда баркамол авлод тарбиясида ўқитувчи ниҳоятда катта рол ўйнайди. Қадимги юнон файласуфи Афлотун: “Агар косиб ёмон уста бўлса,бундан давлат жуда катта нарса йўқотмайди - фақат халқ ёмонроқ кийинади, холос. Аммо ёшлар тарбиячилари ўз вазифаларини ёмон бажаришса, у ҳолда мамлакатда нодон,жоҳил, билимсиз ва ахмоқлар тоифаси вужудга келади”, деганда нақадар хақ эди. Дарҳақиқат, ёш авлодни эркин фикрлайдиган,билимли ва комил инсон қилиб тарбиялаш педагогнинг маҳоратига боғлик. Чунки таълим -тарбия тизими орқали замон талабига жавоб берувчи баркамол авлодни вояга етказиш кўп жиҳатдан фан ўқитувчиси ва педагогларнинг ўқув жараёнини педагогик технологиялар ва унинг таркибий қисми бўлган модулли ўқитиш технология тамойиллари асосида дарс ўтиш усуллари ва технологияларидан самарали ва унумли фойдалана олишларига боғликдир. Зеро, Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти Ислом Каримов айтганидек:”Муаллим –миллатнинг юзи, Ватан истиқболининг асл бунёдкоридир”. Шундай экан, ҳар биримиз ўзимизга юклатилган вазифани чин дилдан адо этмоғимиз керак деб ўйлайман.

Ҳозирги кунда ёш авлодни тарбиялашда инновацион педагогик технологияларни илмий- назарий асосларини ўрганиш ва уларни таълим – тарбия жараёнларига тадбиқ этиш зарурияти шундай долзарб масалаларга айланмоқдаки, биз педагоглардан ҳар бир дарсимизга пухта тайёргарлик кўриб педагогик технологиялардан унумли фойдаланган ҳолда дарс ўтишимиз талаб этилмоқда.

Замонавий ўқитувчиларнинг таълим-тарбия амалиётида педагогик технологияларнинг хилма- хил ва кўплаб туридан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.Айни дамда ёш авлодга таълим беришда самарали технологиялардан баъзиларини келтириш мумкин:

Компютерли – ахборот технологияси,мультимедияли технология, интерфаол усулли технология,педагогик ҳамкорлик ва педагогик уйин технологияси ва бошқалар.

Демак,замонавий ўқитувчи-педагог фаолиятини инновацион таълим технологиялари тизимида оддий кузатувчи сифатида қараши ноўриндир. Замонавий ўқитувчининг ижодий педагогик фаолияти орқали ўқувчининг онги ва хулқини шакллантиришда асосий ўрин эгаллайди. Шундай экан, у педагогик технология ҳақида тушунчага эга булиши,унинг моҳиятини тўлиқ англаб етиши, доимий равишда изланишда бўлиб, ўз устида ишлаб бориши мақсадга мувофиқдир.

Айни дамда ҳар бир ўқитувчи яхши ишлаши учун барча -барча имкониятлар мавжуд,шундай экан биз ана шу имкониятлардан унумли фойдаланган ҳолда, зиммамизга юклатилган вазифаларни барчасини чин

дилдан адо этмоғимиз зарурдир. Буюк бобокалонимиз Алишер Навоий ёшларга чуқур билим беришда муаллимнинг, мударрислар, ҳамда устоз-мураббийларнинг ўзлари ҳам билимли, тарбияли бўлиши зарурлигини уқтиради. У нодон, мутаассиб, жоҳил домлаларни танқид қилади ва устоз ўқитиш йўлларини билиши зарур дейди.Бундай муаллимлар шогирдлари ёнида юзлари ёруғ бўлиб, доимо иззатда бўладилар деб таъкидлайди.

Шундай экан, биз таълим - тарбия бераётган ўқувчиларимиз келгусида комил инсон бўлиб етишишлари учун, Ватан равнақига ўз ҳиссаларини қўшишлари учун, билимлар синови,фан олимпиадаларидан юқори натижаларга эришиши учун фақат ва фақат тинимсиз меҳнат қилишимиз керак.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати:

1.И.А.Каримов “Юксак маънавият – енгилмас куч” –Т. Маънавият. 2008

2. Махмудов Т.Камолиддинов М.” Инновацион педагогик технология асослари ва уни таълим-тарбия жараёнида қўллаш:услубий қўлланма / Т. “Талқин” 2012.

3. М.Абдуллаева “Замонавий инновацион педагогик технологиялардан фойдаланишда таълим-тарбиянинг психологик масалалари”, “Мактаб ва ҳаёт” журнали № 8. 2015- йил

LEKSEMALARGA XOS NAZARIY QARASHLAR

Sabohat Sa'dullayevna Jumayeva
Navoiy viloyati Navbahor tumanidagi 27- umumiy o'rta ta'lim maktabining
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6969854

Annotatsiya: Leksema haqida fikr bildirishdan oldin uning lug‘aviy ma’nosiga e’tibor qaratish lozim. Leksema (yun. lexis — so‘z, ifoda) — til qurilishining leksik ma’no anglatuvchi lug‘aviy birligi. Leksema bildiradigan ma’no so‘zning material qismi: ma’lum tovush kompleksini ma’lum ob’yektiv voqelikka bog‘lash bilan kishi ongida yuzaga keladigan mazmun-mundarija.

Kalit so‘zlar: Leksema, grammatik ma’no, tovush, lisoniy birlik, morfema.

Leksema so‘zning grammatik ma’no bildiruvchi qo'shimchalarsiz qismi; tilning lug‘at tarkibiga xos birlik. Leksema anglatadigan ma’no, ma'lum tovushlar majmuini muayyan obyektiv voqelikka bog‘lash bilan kishi ongida yuzaga keladigan mazmun, ya’ni undan anglashiladigan narsa-buyum, voqea-hodisa, belgi-xususiyat leksik ma’no (lug‘aviy ma’no) deb ataladi. Masalan, *suvdon so‘zi «qushlarga suv beriladigan idish»,suvchi so‘zi «ekinlarni, xususan g‘o‘zalarni sug‘oruvchi dehqon,sug'orish bo'yicha mutaxassis»* lug‘aviy ma'nolarni anglatadi.Ilmiy manbalarda leksik ma’no semema deb ham yuritiladi. Leksik ma’no, ya’ni semema semalardan tarkib topadi.Sema leksik ma’no (semema)ni hosil qiluvchi ma'no bo‘laklaridir Masalan:*tun* leksemasining ma’nosi - *sutkaning kunbotishidan kun chiqqungacha, oqshomdan tong olar vaqtigachabo'lgan qismi. Mazkur semema «qorongi», «vaqt»,* kabi semalardan tarkib topgan. Ilmiy manbalarda leksik ma’no quyidagi nuqtai nazarlardan turlarga ajratiladi:

1) yasalish munosabatiga ko‘ra;
2) obyektni ifoda etishiga ko‘ra;
3) nutqda voqelashishiga ko‘ra.

Yasalish (hosil bo‘lish) munosabatiga ko‘ra leksik ma’no ikki turli bo‘ladi:

a) asos ma’no; b) yasama ma'no.

Leksemamng boshqa ma’nolarini kelib chiqishiga asos bo‘lib xizmat qiladigan ma'nosi asos ma’no hisoblanadi. Masalan, boshso'zining tananing bo'yindanyuqorigi, oldingi qismi; kalla ma’nosi uning asos ma'nosidir.

Leksemaning yasama ma’nosi hosila ma’no deb ham ataladi. Masalan, *bosh so'zining aql-hush, miya tog ‘ning ko ‘rki tosh bilan,odamning ko'rki bosh bilan. Maqol: boshliq, rahbar (Yaxshiyigit —davraning boshi. Maqol); lavozim, mansab jihatdan katta (bosh vrash qabulida bo'ldim); ulkan, katta, asosi (Shaharning*

*boshdarvozasi shu):, eng muhim, asosiy, yetakchi*kabi o‘nlab ma'nolari uning hosila ma'nolaridir.

Albatta, asos ma'no va yasama ma’no ko‘p ma'noli so'zlar uchun xos.Obyektni ifoda etishiga ko‘ra ham leksik ma'no ikki turli bo'ladi

1) nominativ ma'no,

2) figuial ma’no.

Leksemaning voqelik bilan bevosita bogdanadigan, narsa-buyum, belgi, harakatning norm bo‘hb xizmat qiladigan ma'nosi nominativ ma’no deyiladi. Masalan, ko‘z leksemasining ko‘risha'zosi, nichka leksemasining yozuv quroii ma'nosi nominativ ma'nodir.

Leksemaning voqelik bilan bevosita bogianmagan, narsa-buyum, belgi, harakatning nomiga aylanmagan ma’nosi figural ma'nodir.

Bechora xotinlar bo'lsa, erlaridan bekitib yurganpullarini da'vo qilolmay, damlari ichlariga tushib, kuyib qolaberdilar. (P Tursun. 0 ‘qituvchi*) O'zi bilmaydi-yu, mengao'rgatganiga kuyaman!*(A. Qahhor.)

Gaplarda *kuy* leksemasi *yo ‘nalish, kuymoq* so‘zi *ajrab qolmoq, alam qilmoq* kabi figural ma'nolarda qo‘llangan.

Nutqda voqea tashishiga ko‘ra leksik ma’no ikki turga bo‘linadi:

a) erkin ma'no,

b) bog‘li ma’no.

Erkin ma’no narsa-buyum, belgi, harakat bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, uning voqelashgan majmui so'zlar qurshovi shart emas. Leksemaning erkin ma’nosi u alohida olinganda anglashilaveradi. Masalan, *do ‘ppi leksemasining milliy bosh kiyim,og'iz so‘zining ovqat hazm qilish a 'zosi* ma ‘nolari erkin ma’no.

Demak, leksemaning erkin rna'nosi boshqa so zlar yoki so‘zlar qurshovi (kontekst)ga bog‘liq bo‘lmaydi. Xusussan Shavkat Rahmatullayevning “Hozirgi o‘zbekadabiy tili” darsligida leksemaga quyidagicha ta’rif berilgan: Leksema bildiradigan ma’no so‘zning material qismi: ma’lum tovush kompleksini ma’lum ob’yektiv voqelikka bog‘lash bilan kishi ongida yuzaga keladigan mazmun-mundarija. Har qanday Leksema o‘zining fonelshlari ifodalagan ma’nosi va grammatik xususiyatlari birligidan iborat. Bunday birlik so‘z va iboralarda mavjud. Ularga nisbatan glossema, lug‘aviy morfema atamalari ham ishlatiladi.

Leksema lisoniy birlik sifatida miyaning til xotirasi qismidagi ramzga teng; leksemadan foydalanishda ana shu ramzdan nusxa olinadi. Nutqda leksemaning o‘zi mustaqil namoyon bo‘lmaydi, chunki u butunga emas, qismga teng holatda bo‘ladi, sintaktik belgi-xususiyat qo‘shilganidan keyin butunga aylanadi. Leksemaning ana shunday qism holatida bo‘lishi oxiriga chiziqcha yozib ko‘rsatiladi: *nok-, pish-, shirin-, sekin-* kabi. Masalan, *nok* leksemasini talaffuz birligi sifatida *nok* tarzida yozsak, leksemani emas, balki

leksemashaklni ("leksema + birlik son ko‘rsatkichi + bosh kelishik ko‘rsatkichi"ni) yozgan bo‘lamiz. Demak, leksema til xotirasida lisoniy birlik sifatida mavjud bo‘ladi, nutqda sintaktik tavsif olib qatnashadi. Til birligi sifatida leksema ikki jihatning – ifoda jihatining va mazmun jihatining bir butunligidan iborat. Bu ikki jihat ajralmas bir butunni tashkil etishiga qaramay nisbiy mustaqillikka ega: har biri o‘z taraqqiyot qonunlari asosida o‘zgaradi. Shunga ko‘ra leksemaning ifoda jihati va mazmun jihati mustaqil bayon qilinadi.

Leksemaning ifoda jihati. Leksemaning ifoda jihati deganda avvalo qaysi til tovushlarining qanday tartibdagi qatori bilan ifodalanishi tushuniladi. Leksemaning (shuningdek morfemaning ham) ifoda jihati bo‘lish vazifasini bajarishi bilan til tovushi fonema mavqeiga ega bo‘ladi. Demak, til tovushi – tilning tovushlar tizimiga mansub birlik; fonema – til birligi (leksema, morfema) tarkibida birlamchi qurilish ashyosi vazifasini bajaradigan til tovushi. Fonema – til birligining ifoda jihati bo‘lib xizmat qiladigan va shu orqali til birliklarining o‘zaro farqlanishini ham ta'minlaydigan til tovushi. Fonema til qurilishidagi alohida bir hodisa, alohida birlik emas, balki til qurilishiga mansub tovushlarning ijtimoiy vazifa bajarish holati xolos: til tovushiga ijtimoiy vazifasiga ko‘ra fonema nomi berilgan. Afsuski, fonema nazariyasi rivojlangan sari til tovushiga xos artikulyatsion belgi-xususiyatlar ham fonemaga tortib olinib, til tovushi tilning qurilish birligi sifatida umuman gapirilmaydigan, til birligi deb to‘g‘ridan to‘g‘ri fonema aytiladigan bo‘ldi’ "til tovushi" tushunchasi go‘yo "fonema" tushunchasiga singdirildi. Aslida til qurilishiga xos birliklar (birlamchi qurilish birliklari) sifatida avvalo til tovushlari tasvirlanadi, keyin-gina shu til tovushlari ijtimoiy vazifasiga ko‘ra fonema sifatida o‘rganiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ulupov N. Tilshunoslik nazariyasi. O‘quv qo‘llanma –T.:Barkamol fayz media. 2016
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G.,Qurbonova M., va boshqalar Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: 2009
3. www.ziyouz.com

АУДИТОРЛИК ТЕКШИРУВИНИ ЎТКАЗИШ БЎЙИЧА КОМПИЛЯЦИЯ ХИЗМАТЛАРИНИНГ МОҲИЯТИ

А.Н. Тўраев
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
“Молиявий таҳлил ва аудит” кафедраси профессори
Турабоев Темур Турабаевич
Стандартлаштириш, сертификатлаштириш ва техник жихатдан тартибга солиш илмий-тадқиқот институти, Стандартларни сотиш ва маркетинг тадқиқотлар бўлими 1-тоифали мутахассиси
https://doi.org/10.5281/zenodo.6979984

Аннотатция: Ушбу мақолада аудиторлар таклиф этадиган аудитнинг янги турдош хизматларининг номи, моҳияти, аудиторлик текширувидан фарқи, хизмат нархига таъсир кўрсатадиган омиллар тўғрисида маълумотлар берилади.
Калит сўзлар: Корхона, бизнес, аудитор, молиявий ҳисобот, сармоядорлар, бизнес – режалар.

Республикамиз аудиторлари Аудитнинг халқаро стандартлари асосида фаолият юритишга ўтганларидан кейин хўжалик субъектларига халқаро стандартларда кўрсатилган аудитнинг янги хизматларини таклиф этиш имконияти пайдо бўлди.

Корхонангиз доимо ўзгариб ва мураккаблашиб бораётган бизнес муҳитида фаолият юритади. Ушбу ҳолатда ўзингиз учун мақбул йўлни танлашга сизга хизмат кўрсатадиган аудиторлар ёрдамидан фойдаланиш мумкин.

Сизнинг ишончли маслаҳатчингиз ва бизнес ҳамкорингиз бўлган аудиторлар ихтисослашган хизматларни, тавсияларни ва эксперт маслаҳатларини тақдим этадилар, сизнинг корхонангизни ривожланишини таъминлашда асосий ўрин тутиб, амалдаги қонунчилик талаблари асосида фаолият кўрсатишингизга кўмаклашадилар.

Бугунги кунда сизнинг мақсад ва вазифаларингиздан келиб чиқиб, молиявий ҳисоботлар билан боғлиқ бўлган кўплаб турдаги хизматлардан фойдаланиш имконияти мавжуд.

Айни қайси бир хизмат тури сизга тўғри келишини билмаслигингиз мумкин. Ушбу мақолада, аудиторлар томонидан халқаро стандартлар асосида бажариладиган, аудиторлик текшируви, шарҳлаш, компиляция ва келишилган тартиблар номли хизматларнинг моҳияти, алоҳида жиҳатлари тўғрисида сўз боради.

Аудиторлар таклиф этадиган хизмат турини танлашда қуйидаги омилларга эътибор беринг:

- сизда айни қандай муаммо бор;
- амалда бўлган қонунчилик талаблари;
- корхонангизнинг таркиби, ҳажми ва мураккаблиги;
- молиялаштириш бўйича талаблар;
- келгуси бизнес – режалар.

Корхонанингизнинг молиявий ҳисоботларидан фойдаланувчилар (йирик акциядорлар, кузатув кенгаши аъзолари, йирик кредиторлар) билан ҳам маслаҳатлашиш ортиқча бўлмайди.

Аудиторлар таклиф этадиган ҳар бир хизматнинг нархи турлича бўлади, сабаби хизматлар нархи юқорида келтириб ўтилган омиллардан келиб чиқиб шаклланади.

Аудит нархи сиз танлаган хизмат турига боғлиқ бўлиб, ўзаро келишув асосида белгиланади.

1. АУДИТОРЛИК ТЕКШИРУВИ

Аудиторлик текшируви нима дегани?

Республикамизда аудиторнинг ушбу хизмат тури кенг тарқалган ва кўпчиликка маълум. Аудиторлик текшируви текшириладиган молиявий ҳисоботнинг ҳамда у билан боғлиқ молиявий ахборотнинг ишончлилигини ва бухгалтерия ҳисоби тўғрисидаги қонунчиликка мувофиқлигини аниқлаш мақсадида ўтказилади.

Ишончлилик деганда молиявий ҳисобот маълумотларининг аниқлик даражаси тушунилиб, у ушбу ҳисобот асосида хўжалик юритувчи субъектнинг молиявий аҳволи ва молиявий-хўжалик фаолияти натижалари тўғрисида холис хулосалар чиқариш имконини беради.

Аудиторлик текшируви натижасида аудитор текширилган молиявий ҳисобот, молиявий ҳисоботни тайёрлаш асосининг барча муҳим жиҳатларига мувофиқ келиши тўғрисидаги фикрни ўз ичига олган ҳисоботни тайёрлайди.

Агар моливий ҳисоботга ижобий фикр билдириш мумкин бўлмаса, аудитор аниқланган камчиликларга мувофиқ равишда ўз фикрини ўзгартиради.

Аудитнинг халқаро стандартлари, абсолют бўлмасада, лекин юқори даражадаги ишонч билан фикр билдиришга асос бўладиган, етарли ва ишончли бўлган аудиторлик далилларини тўплаш учун турли аудиторлик ҳаракатларини бажаришни аудитордан талаб қилади.

Аудиторлик текшируви хизмати қачон керак бўлади?

1. Амалдаги қонунчилик талабларига асосан ҳар йили мажбурий аудиторлик текширувидан ўтадиган корхоналар учун:

- акциядорлик жамиятлари;

•банклар ва бошқа кредит ташкилотлари;

•суғурта ташкилотлари;

•инвестиция фондлари ҳамда юридик ва жисмоний шахсларнинг маблағларини жамловчи бошқа фондлар ҳамда уларнинг инвестиция активларини ишончли бошқарувчилари;

•манбалари юридик ва жисмоний шахсларнинг ажратмаларидан иборат бўлган хайрия, жамоат фондлари ва бошқа фондлар;

•устав фондида (устав капиталида) давлатга тегишли улушга эга бўлган хўжалик юритувчи субъектлар ва давлат унитар корхоналари;

•фонд ва товар биржалари;

•ҳисобот йили якунларига кўра қуйидаги шартлардан бир вақтнинг ўзида иккитасига жавоб берган тижорат ташкилотлари:

- активларининг баланс қиймати базавий ҳисоблаш миқдорининг юз минг баравари миқдоридан ортиқ;

- маҳсулотларни (ишларни, хизматларни) реализация қилишдан олинган тушуми базавий ҳисоблаш миқдорининг икки юз минг баравари миқдоридан ортиқ;

- ходимларининг ўртача йиллик сони юз нафардан ортиқ бўлса.

Асос: Ўзбекистон Республикасини “Аудиторлик фаолияти тўғрисида”ги Қонунининг 35–моддаси.

Ихтиёрий аудиторлик текширувлари:

2. Молиявий ҳисоботдан фойдаланувчиларнинг ҳоҳишига қараб (масалан, инвесторлар, акциядорлар, таъсисчилар, ижроия органи раҳбарлари) молиявий ҳисоботни текшириш учун аудиторлик текшируви белгиланиши мумкин;

3. Молиявий ҳисоботнинг ташқи фойдаланувчилари (масалан, кредиторлар, банклар, сотиладиган корхонанинг харидорлари) тақдим этилган молиявий ҳисоботни ишончли эканлигини тасдиқлатиш учун аудиторлик текшируви белгиланиши мумкин.

Аудиторлик текширувнинг афзаллиги нимада?

Аудит молиявий ҳисоботдаги маълумотларга бўлган ишончни мустаҳкамлайди.

Ички назорат тизимида аниқланган камчиликлар бизнесга хос бўлган қалтисликларни моҳиятини тушунишга кўмаклашади. Аудитор берган тавсиялар эса камчиликларни тузатишга ёрдам беради.

Фирибгарлик ёки хато туфайли вужудга келган, молиявий ҳисоботдаги нотўғри маълумотлар текширув мобайнида корхона томонидан аниқланиши, кўриб чиқилиши ва тузатилиши мумкин.

2. УМУМИЙ ТЕКШИРУВ

Умумий текширув нима дегани?

Молиявий ҳисоботни умумий текширишда ёки шарҳлашда аудитор, аудиторлик текширувидан фарқ қиладиган, таҳлилий ҳаракатлар ўтказади ва сўровномалар юборади.

Текширилаётган молиявий ҳисобот жиддий хатолардан ҳоли эканлиги тўғрисида чекланган ишонч билдириш учун аудитор маълум бир аудиторлик ҳаракатларини амалга оширади.

Яъни, умумий текширувда, аудиторлик текширувидан фарқи ўлароқ, аудитор молиявий ҳисоботнинг мутлоқ ишончлиги тўғрисида фикр билдирмайди. Молиявий ҳисоботни шарҳлашда аудитор ўзи текширган молиявий ҳисоботда жиддий камчиликлар бор ёки йўқлиги тўғрисида фикр билдиради.

Қачон молиявий ҳисоботни шарҳлаш хизмати керак бўлади?

Корхона мажбурий аудиторлик текширувидан ўтувчи корхоналар гуруҳига кирмайди, лекин корхона таъсисчиларини талаби билан молиявий ҳисоботни ишончлигини текшириш зарур бўлиб қолади.

Шарҳлаш хизмати қўшимча назорат функцияларини бажариш орқали корхона раҳбариятига бизнесни бошқаришга кўмаклашади.

Корхонанинг таркибига кирувчи кичик шўъба корхоналари тайёрлаган молиявий ҳисоботларни нисбатан ишончли эканлиги тўғрисида аудиторнинг фикрини олиш учун.

Корхона томонидан меъёрий ҳужжатлар ёки шартнома талабларига амал қилинишини шарҳлаш керак бўлганда.

Шарҳлаш хизматининг қандай фойдаси бор?

Шарҳлаш ўсиб бораётган бизнесни аудиторлик текширувларига тайёрлайди.

Шарҳлаш хизмати бизнесга молиялавий маблағларни жалб этишга, янги сармоядорлар топишга ёки бизнесни сотишга кўмаклашиши мумкин.

Шарҳлаш хизмати мосланувчан ва йўналтирилган бўлиб, аудитор молиявий ҳисоботнинг мураккаблиги ва бизнеснинг хусусиятларига қараб муҳим аҳамиятга эга бўлган масалаларга эътибор қаратиши мумкин.

Аудитор ўзининг малакавий фикрига кўра раҳбарият эътиборини жалб этишга молик бўлган даражадаги муҳим бўлган барча масалалар тўғрисида ҳисобот бериши шарт.

3. КЕЛИШИЛГАН ҲАРАКАТЛАР ХИЗМАТИ

Келишилган ҳаракатлар нима?

Корхона бухгалтери раҳбарияти билан олдиндан келишилган муайян тартиб-қоидаларни бажариб, ҳосил бўлган маълумотлар асосида молиявий ҳисобот тайёрлайди. Лекин, бухгалтер тайёрлаган молиявий ҳисоботда бирон бир хатолик йўқлиги тўғрисида ҳеч қандай ишонч, хулоса ва фикр

билдирилмайди. Сабаби, ўзи тайёрлаган молиявий ҳисоботга ўзи фикр билдириши ўринсиздир.

Шу билан биргаликда молиявий ҳисобот оммавий равишда тарқатишни (масалан, корпоратив сайтга жойлаштириш) келишилган томонлар (масалан, таъсисчилар, инвесторлар) тақиқлаган бўлиши мумкин.

Бундай ҳолатларда аудитор корхонанинг молиявий ҳисоботининг айни қайси соҳаларини текшириш ва текширишдаги муайян ҳаракатларини корхона билан олдиндан муҳокама қилиб, ўзаро келишади.

Молиявий ҳисоботнинг аудиторлик текшируви фақат корхона билан олдиндан келишилган, корхона учун муҳим, соҳаларга нисбатан ва келишилган муайян ҳаракатлар асосида ўтказилади.

Қачон келишилган ҳаракатлар хизматидан фойдаланиш ўринли бўлади?

Корхона, ташқи фойдаланувчиларнинг талабини қондириш учун, молиявий ҳисоботини эмас, балки фақат товар-моддий заҳиралар қолдиғи, кредиторлик қарзлари қолдиғи, пул маблағлари қолдиғи, корпоратив харидларни ўтказиш амалиёти ёки олинган грант маблағларидан мақсадли фойдаланишни текширишни режалаштирганда.

Корхонанинг молиявий маълумотларини ошкор қилиш тартиби амалдаги стандартларнинг махсус талабларига мувофиқлигини кўрсатиш керак бўлган ҳолларда.

Келишилган ҳаракатлар хизматининг афзаллик томонлари

Келишилган ҳаракатлар хизмати аудиторлик текширувининг мосланувчанликни таъминлайди, чунки ушбу хизмат турли ҳолатларга мослаштирилиши ва молиявий маълумотларнинг муайян элементларини текширишга бағишланиши мумкин.

Корхона аудитордан бажариши керак бўлган муайян тартиб-қоидаларни талаб қилиши, шунингдек, ўзига керакли ҳисобот шаклини белгилаши мумкин.

Корхона танлаган ҳисобот шаклида, молиявий ҳисоботни тайёрлаш жараёнлари ва унинг устидан ўрнатилган назоратнинг самарадорлиги бўйича аниқланган маълумотларни акс эттириши мумкин.

Келишилган тартиблар хизмати бўйича шаклланган корхонанинг йиллик ҳисоботи, молиявий ҳисоботга қўшимча сифатида, тақдим этилиши мумкин, бу эса корхона раҳбарияти ва ходимларига бўлган ишончни оширади.

Корхонанинг молиявий ҳисоботини келишилган ҳаракатлар хизмати орқали текширишни инвесторлар, кредиторлар ёки харидорлар талаб қилиши мумкин.

4. КОМПИЛЦИЯ ХИЗМАТИ

Компиляция хизматининг моҳияти

Аудитор бухгалтерия ҳисоби ва молиявий ҳисобот бўйича ўз билимларини қўллаган ҳолда, молиявий ҳисобот тизимига мувофиқ корхонанинг молиявий ҳисоботини тайёрлаш ва тақдим этишда раҳбариятга ёрдам беради. Компиляция хизмати молиявий ҳисоботнинг ишончли эканлигига кафолат бериш хизмати эмас, лекин ташқи фойдаланувчилар (масалан, кредиторлар, суғурта компаниялари ёки мижозлар) кўпинча молиявий ҳисоботларни тайёрлашга малакали аудитор жалб этилганини қадрлашади.

Компиляция хизмати қачон керак бўлади?

Корхона раҳбарияти молиявий ҳисобот бўйича аниқ билимларга эга бўлмаслиги мумкин ва молиявий ҳисоботни тайёрлаш учун аудиторни жалб қилишни афзал билишади. Масалан, Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида корхона ўзининг молиявий ҳисоботини тайёрлашга аудиторни таклиф этгани каби.

Корхонанинг молиявий ҳисоботидан фойдаланувчилар молиявий ҳисоботни тайёрлаш ва тақдим этишда малакали аудитор иштирок этганлигини билишса, ушбу ҳисоботга бўлган ишонч даражаси ошади.

Шунингдек, малакали тайёрланган молиявий ҳисобот корхонанинг ички мақсадлари учун ҳам керак бўлиши мумкин.

Компиляция хизматининг афзаллик томонлари

Компиляция хизматини кўрсатаётган аудитор нотўғри фикр шакллантирадиган жиддий хатолар ёки ёлғон маълумотларни ўз ичига олган ҳужжатлар ёки бошқа ҳисоботларни яширишдан манфаатдор эмас, сабаби ушбу маълумотларни аудитор тайёрламаган.

Корхона муҳим қарорлар қабул қилишда ёки техник муаммоларни ҳал қилишда аудитрдан компиляция хизмати орқали ёрдам олиши мумкин.

Аудитор ўзининг малакавий фикрига кўра раҳбарият эътиборини жалб этишга молик бўлган даражадаги муҳим бўлган барча масалалар тўғрисида ҳисобот бериши шарт.

5. АУДИТОРНИНГ ХИЗМАТЛАРИ ЎРТАСИДАГИ МУҲИМ ФАРҚЛАР

Аудиторлик текшируви, умумий текширув, компиляция ва келишилган ҳаракатлар номли аудиторлик хизматларининг ўртасидаги муҳим фарқлар қуйидагилардан иборат:

АУДИТОРЛИК ХИЗМАТЛАРИНИНГ ТУРИ			
Аудиторлик текшируви	**Умумий текшириш (шарҳлаш)**	**Компиляция**	**Келишилган ҳаракатлар**
Хизматларни кўрсатишга норматив асос бўладиган ҳужжатлар			

Халқаро аудит стандартлари	ТМҲТ (ISRE) 2400 (қайта кўриб чиқилган)	КБВ (ISRS) 4410 (қайта кўриб чиқилган)	КҲБВ (ISRS) 4400
Аудитор ишончининг даражаси			
Оқилона	Чекланган	Фикр билдирилмайди	Фикр билдирилмайди
Аудитор бажарадиган иш ҳажми			
Хавф-хатарни баҳолаш ва аниқланган хавф-хатар бўйича аудиторлик ҳаракатлари	Одатда таҳлилий ҳаракатлар ва сўровлар ўтказилади	Корхонага молиявий ҳисобот тайёрлашга ёрдам беради	Ҳақиқий маълумотларни тасдиқловчи далилларни тўплаш
Ҳисоботнинг тури			
Фикр билдириш (ижобий)	Хулоса чиқариш (салбий ишонч)	Компиляция бўйича келишувнинг моҳияти тўғрисида, аудиторнинг масъулияти ва ўрни ҳақида хабар берадиган ҳисобот (фикр билдирилмайди)	Ҳисобот чекланган тарзда ишлатилади (ҳақиқий маълумотлар тўғрисида ҳисобот)

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. http://uza.uz

2. Қўзиев И.Н. Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида аудиторлик ҳисоботини тузиш ва умумлаштириш методологиясини такомиллаштириш: и.ф.д. илмий даражасини олиш учун дис. автореф.. - Т.: 2017. -70 б.

3. Воронина Л.И. Аудит: теория и практика: учебник для бакалавров. – 3-е изд. перераб. –М.: Издательство “Омега-Л”, 2014. -566 с. 57-бетдан.

4. Варламова Е.Н. Этапы профедения аудиторской проверки: особенности аудита организаций оптовой торговли. // Международный бухгалтерский учет, № 4 (202)-2012. 56-бет.

5. Аудит ва сифат назоратининг халқаро стандартлари. 2012. 1 қисм, 3-жилд. -Т.: ЎБАМА, 2014.-1502 б.

GEOGRAFIYA TA’LIMINING MAQSADI VA VAZIFALARI

Sarvinoz Tuychi qizi Suvonova
Navoiy viloyati Navbahor tumani 27-umumiy o‘rta ta’lim maktabining geografiya fani o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6992407

Annotatsiya: Geografiya ta’limi deganda o‘quvchilarga tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy komplekslarning tuzilishi va asosiy qonuniyatlari haqida bilimlar beradigan geografiya fanlari tizimiga aytiladi. Geografiya ta’limi metodikasi esa maktablarda va kasb-hunar kollejlarida tabiiy geografiya, iqtisodiy geografiya va boshqa maxsus geografiya fanlarini o‘qitish jarayonini o‘rganadigan va pedagogika fanlari tizimiga kiradigan fandir.

Kalit so‘zlar: Iqtisodiy, ekologik, politexnik, geosiyosiy bilimlar, amaliy geografiya, tabiiy geografiya, ijtimoiy geografiya, metodologik muammolar, didaktika va tarbiya nazariyasi.

Geografiya ta’limi metodikasi umumiy didaktika va tarbiya nazariyasi bilan chambarchas bog‘langan. Didaktika fani ta’lim berish va tarbiya jarayonini umumiy qonuniyatlarini, ta’lim mazmunini tatqiq qiladigan nazariy fandir. Didaktika fani aniq o‘quv fanlarini o‘qitish metodikasi bilan shug‘ullanmaydi. Ayni vaqtda har bir o‘quv fani o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ularning ayrimlarini maqsadi nazariy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish (geografiya, biologiya, kimyo), ayrimlari faqat ko‘nikmalarni (chet tillar), boshqalari esa borliqqa estetik munosabatda bo‘lishni shakillantiradi (tasviriy san’at). Shuning uchun alohida fanlarni o‘qitish metodikasi bilan xususiy didaktika fanlari shug‘ullanadi. Mazkur fanlar qatoriga «Geografiya o‘qitish metodikasi» fani ham kiradi. Geografiya o‘qitish metodikasining nazariy va amaliy jihatlari mavjud. Geografiya o‘qitish metodikasi fani quyidagi nazariy va amaliy metodologik muammolarni tadqiq qiladi: a) geografiya o‘qitish metodikasining predmeti, tatqiqot usullari, rivojlanish tarixi; b) geografiya o‘qitish metodikasining maqsad va vazifalarini umuman va alohida predmetlar bo‘yicha aniqlash; v) ta’lim va tarbiyaning birligi; Nazariy tatqiqotlarning natijalari amaliy tatqiqotlar uchun asos bo‘lib hisoblanadi. Mazkur tatqiqotlarda geografiya ta’limining amaliy muammolari hal qilinadi. Geografiya o‘qitish metodikasining amaliy jixatlari o‘qituvchini o‘qitish faoliyatini, o‘quvchini o‘qish faoliyatini aks ettiradigan metodlarni ishlab chiqishdan iborat. Geografiya o‘qitish metodikasi ikkita katta qismdan iborat. Umumiy va xususiy geografiya o‘qitish metodikasi. Umumiy geografiya o‘qitish metodikasi, bu geografiyaning didaktikasi hisoblanadi. U geografiya o‘qitish jarayonini o‘ziga xos xususiyatini o‘rganadi. Geografiya

o‘qitishning umumiy metodikasi nazariy va metodik masalalarni ishlab chiqadi, ya’ni predmetni o‘zini tatqiqot usullarini o‘rganadi, bunda asosiy e’tiborni o‘quv-tarbiyaviy maqsadlarni ishlab chiqishga qaratiladi. Aniqlangan o‘quv-tarbiyaviy maqsadlar asosida geografiya ta’limini mazmuni ishlab chiqiladi. Umumiy metodika ikki qismga bo‘linadi: -tabiiy geografiyani o‘qitish metodikasi; -iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani o‘qitish metodikasi. Xususiy geografiya o‘qitish metodikasi tabiiy hamda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kurslarini alohida predmetlari bo‘yicha o‘quv tarbiyaviy jarayonlarni o‘ziga xos xususiyatlarini ishlab chiqadi. Xususiy o‘qitish metodikasi alohida geografiya fanlarini mazmuni uchun umumiy metodikaning nazariy ishlanmalarini aniqlashtiradi, har bir sinf geografiya kursini mazmuni va tuzilishi, geografik tushunchalarni shakllantirish, o‘quv ishlari usullarini, o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tahlil qilish muammolarini ishlab chiqadi. Geografiya o‘qitish metodikasining umumiy vazifalariga quyidagilar kiradi: -maktab geografiyasining ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantirish imkoniyatlarini ochib berish; -maktab geografiyasining mazmunini zamon talablariga mos ravishda yanada takomillashtirish; -maktab geografiyasi mazmuni va tuzilishida zamonaviy fan yutuqlarini aks ettirish; -o‘qitish materiallarini qo‘llashni optimal sharoitlarini asoslash; -o‘qitish vositalarini ishlab chiqish; -geografiya darslarini tuzilishi, o‘lchamlari va turlarini yanada takomillashtirish; -geografiya o‘qitishni yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va amalda qo‘llash; -geografik ekskursiyalar, tatqiqotlar o‘tkazish texnologiyasini yanada takomillashtirish; -o‘quvchilarda amaliy geografik ko‘nikmalarni shakllantirish texnologiyasini takomillashtirish; Geografiya o‘qitish metodikasi o‘qituvchilarni, o‘quvchilarni o‘qitish nazariyasi va tarbiyasi bilan qurollantiradi. Geografiya fanini maqsad va vazifalari turli davrlarda o‘zgarib va qaytadan shakllanib turgan. O‘qitishni maqsadini aniqlash qadimdan didaktika va o‘qitish metodikasining eng muhim muammolaridan hisoblanib kelmoqda. Ushbu muammoni qanday yechish bilan maktab geografiyasining tuzilishi, mazmunini va o‘qitish metodlarini turlari bog‘liq. Oxirgi davrlarda, asosan XX-asr davomida o‘qitish maqsadini ishlab chiqish muammosiga katta e’tibor berildi. Hozirgi davrda ham geografiya ta’limining mazmunini o‘zgarishi munosabati bilan mazkur muammoga yanada ko‘proq e’tibor berilmoqda. Geografiya o‘qituvchisi har bir sinf geografiya kursini maqsadlarini bilishi lozim. Geografiya ta’limining maqsadlarini uch guruhga bo‘lish mumkin: ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi. Ta’limiy maqsadlar quyidagilardan iborat: -o‘quvchiga tabiiy geografiya, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya hamda amaliy geografiya asoslari bo‘yicha mustahkam bilimlar berish. Tabiatdan foydalanishni va uni muhofaza qilishni ilmiy,texnik,iqtisodiy asoslarini ochib berish; -umumta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarini iqtisodiy, ekologik, politexnik, geosiyosiy bilimlarni egallashlariga imkon yaratish: - tabiiy

geografiya va iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, amaliy geografiya va boshqa maxsus geografik fanlarni yirik xalq xo‘jaligi muammolarini yechishdagi o‘rni va ahamiyatini ochib berish. Masalan, Orol muammosini yechimini, Sibir daryolari oqimini bir qismini O‘rta Osiyoga oqizishni, O‘zbekistonning buyuk davlat bo‘lishini geografik asoslarini ishlab chiqish; - o‘quvchilarni geografik borliq va hodisalarni o‘rganish usullari bilan qurollantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdug‘aniyev O. Geografiya darslarida texnika vositalaridan foydalanish. Toshkent “O‘qituvchi” 1995

2. Vaxobov X., Abdunazarov O‘., Zaynutdinov A. Geografiya ta’limida darsliklar yaratish muammosi. O‘zbekiston geografiya jamiyati axboroti. T. 2000

3. www.ziyouz.com

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	ПОРА БЕРИШ ВА ПОРА ОЛИШ-БЕРИШДА ВОСИТАЧИЛИК ҚИЛИШНИНГ ЖАЗОНИ ОҒИРЛАШТИРУВЧИ БЕЛГИЛАРИ Жумабоев Сапабой Максудбекович	4
2.	SUV EROZIYASI VA UNGA QARSHI KURASHISH Axmedov Murodjon Inomjon o`g`li	9
3.	MEN SEVGAN ADIB Mehriniso Baxtiyorova Qahramon qizi	18
4.	ТЕРРАКОТОВАЯ АРМИЯ- ВОСЬМОЕ ЧУДО СВЕТА Бурова Наталья Исмаиловна	20
5.	МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ НА ПРИМЕРЕ УРОКА ДИСПУТА Х.А.Валиева	28
6.	O‘QUVCHILARDA NUTQIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH Mehrangiz Abrayeva	33
7.	ELEKTR TA’MINOTINI IQTISOD QILISHDA “AQLLI” TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH Bositxon Murodjon o‘g‘li Sidiqov	36
8.	XV ASR OXIRI- XVI ASRNING BIRINCHI YARMIDAGI O‘ZBEK NASRINING TIL XUSUSIYATLARI (“BOBURNOMA” ASARI ASOSIDA) Buviniso Abdayeva	47
9.	INSON HUQUQLARINI TA’MINLASH – BOSH MAQSADIMIZ Bekzod Ablakimov	51
10.	LABOR MARKET AND ENSURING THE BALANCE OF LABOR RESOURCES AS AN IMPORTANT FACTOR OF ECONOMIC DEVELOPMENT Makhliyo Kholmirzaeva	56
11.	BOSHLANG'ICH TA'LIMDA DIDAKTIK O’YINLARDAN FOYDALANISH Diyora Tuxtarova Abduxamitovna	60
12.	MAPLE MATEMATIK PAKETIDA FUNKSIYALARNI TEYLOR QATORIGA YOYISHGA OID MISOLLARNI YECHISH Jumagul Vohobjon qizi Mirzaahmedova	62
13.	SABZAVOTLARNING INSON HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI VA RESPUBLIKAMIZDA AGRAR SOHADAGI ISLOHATLAR Munavvar Abdusamad qizi Almasova	67
14.	INTERFAOL METODLAR DARSNING JON TOMIRI Mohinur Saidovna Saidova	70
15.	AMARANTH LOCAL CLIMATE SUPERVISION AUTHORITY UZBEKISTAN CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT AND DEVELOPMENT OF PHENOLOGICAL RESEARCH A.S. Fatuxullaev, Sh.A.Ishniyazova, S.U.Khalilova, Z.A.Jabborova	73
16.	THE IMPORTANCE OF MODERN TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH IN SCHOOLS FOR THE BVI IN UZBEKISTAN Nasim Khusanbayevich Sadikov	79
17.	THE ROLE OF DIGITALIZATION IN THE DEVELOPMENT OF THE INSURANCE SYSTEM Zarinabonu Faxriddin qizi Faxriddinova	83
18.	БИОТЕХНОЛОГИЯ ПРИМЕНЕНИЯ ЛЕКАРСТВЕННЫХ РАСТЕНИЙ ПРИ ОНКОЛОГИЧЕСКИХ ЗАБОЛЕВАНИЯХ Гульноза Икрамидиновна Акбарова, Махмуджон Давыдов	88
19.	ҒЎЗА ТУНЛАМИ (КЎСАК ҚУРТИ)ГА ҚАРШИ БИОЛОГИК КУРАШНИ САМАРАДОРЛИГИ	92

	Ахаджон Жамолов, Бахром Эшонқулов, Аброр Эргашев	
20.	“АВЕСТО” КИТОБИ – ХАЛҚИМИЗНИНГ МАЪНАВИЙ ВА МАЪРИФИЙ МЕРОСИ Собир Сапарбаевич Ўразов, Жамшид Инамжанович Абдуллаев	97
21.	ФАН-ТЕХНИКА ТАРАҚҚИЁТИ ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ СИФАТИДА М.З.Холмирзаева, Пазлиддин Зукурович Хашимов	101
22.	ОТАЛИКНИ БЕЛГИЛАШ - БОЛА ҲУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯЛАШ ДЕМАКДИР Мавсума Йўлдошева	106
23.	ДИФФЕРЕНЦИРОВАННЫЕ ЗАДАНИЯ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ Муяссар Мавжудовна Комилова	108
24.	СТУДЕНЧЕСКОЕ ОДИНОЧЕСТВО КАК СОЦИАЛЬНО-СИХОЛОГИЧЕСКИЙ ФЕНОМЕН Зулайхо Саминжонова	117
25.	SOCIAL ANALYSIS OF ISAJON SULTAN'S NOVEL "ALISHER NAVOI" Manzura Tulaganovna Narmatova	124
26.	BOLALAR JAMOASIGA IJTIMOIY TARBIYA VA PEDAGOGIK TA’SIR KO‘RSATISH Yulduz Qosimjonovna Abdullayeva	128
27.	ОРГАНИК ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ ДАВЛАТ ТОМОНИДАН ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ М.З.Холмирзаева	132
28.	АЛЛЕРГИК КАСАЛЛИКЛАРНИНГ ТАРҚАЛГАНЛИГИ ТУРЛАРИ ВА ОЛДИНИ ОЛИШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ Мухидинова Гулзода Адхамовна, Балтаева Махфуза Анваровна	143
29.	Farog'at Axadjonovna Rahmonova AYRIM HARAKATGA DOIR MASALALARNI YECHISH	149
30.	ADABIYOT DARSLARIDA KO‘RGAZMALILIKDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI Dinora Ibadullayeva	154
31.	XORAZM VOHASI IQLIM SHAROITIDA EKILADIGAN QOVUN NAVLARI Muxayyo Erkinovna Ro’zieva	157
32.	PROMILLEE VA UNING QO‘LLANILISHI Farog'at Axadjonovna Rahmonova	161
33.	MAHALLIY XOMASHYOLAR ASOSIDA OLINGAN SORBENTLARNING Ca2+ IONLARI BO‘YICHA SORBSIYALANISH KINETIKASI Shonazarova Nargiza Ulug‘bek qizi, F.S.To‘xtayev	165
34.	“QOBUSNOMA” ASARIDAGI OILA BOSHQARUVI VA SHAXSIY MUNOSABATLAR XUSUSIDA Nilufar Laziz qizi Maratova, Mo‘minmirzo Zokir o‘g‘li Xolmo‘minov	168
35.	FIZIKA FANI RIVOJLANISH TARIXINI O‘RGANISHNING DIDAKTIK JIHATLARI Muydinova Madina Alisherovna, Abdunabiyeva Maftunaxon Solijon qizi Qosimjonova Xamidaxon Botirjon qizi	172
36.	O‘QUVCHILARNI FIZIKADAN MANTIQIY MASALALAR YECHISHGA O‘RGATISH Abdunabiyeva Maftunaxon Solijon qizi, Qosimjonova Xamidaxon Botirjon qizi	178
37.	BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA DARSLARI ORQALI O‘QUVCHILARNI KASB – HUNAR TANLASHGA TO‘G‘RI YO‘NALTIRISH Marg`uba Abdujalilovna Tursunova	182
38.	TOG`RAYHON (ORIGANUM TYTTANTHUM) O`SIMLIGINING O`ZIGA XOS	185

	XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI Salmonbek Murodali o`g`li Abdullayev, Muxlisa Muxiddinqizi Muxiddinova	
39.	TA’LIM TEXNOLOGIYASINING AMALIY ASOSI Muqaddam Ixtiyor qizi Boltayeva	187
40.	XALQ HUNARMANDCHILIGI TEXNOLOGIYASI BO‘LIMINI O‘QITISHNI TASHKIL QILISH Gulmira Dilmurodovna Farmonova	190
41.	DAVRIYLIK - FIZIKA TA’LIMINING PEDAGOGIK QONUNIYATI SIFATIDA Shahzod Sayfiddin o‘g‘li Isroilov	193
42.	TARBIYA JARAYONINING ASOSIY QONUNIYATLARI Gulruh Zaynitdinovna Mirzayeva	196
43.	ZAMONAVIY ORGANIK KIMYONING RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI Nasiba Normamatovna Mirzayeva	199
44.	O‘RTA UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA O‘QITISHNING MAQSADI Feruza Farhod qizi Nazarova	202
45.	MAKTABDA ONA TILI O‘QITISHNING UMUMIY ASOSLARI Ozoda Normuratovna Niyazova	205
46.	O‘ZBEKISTONDA FAN VA MAORIFNI DUNYO STANDARTIGA KO‘TARISHDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASH DIDAKTIKASI Mamura Islomovna Sanaqulova	208
47.	ONA TILI — BOSHLANGMCH SINFLARDA O‘QUV PREDMETI SIFATIDA Sharipova Xolida Boymurod qizi	2011
48.	GRAMMATIK QURILISHNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI Baxor Bekmuratovna Toshova	214
49.	TARIXI FANINING METODOLOGIK ILMIY-NAZARIY ASOSIARI VA USULLARI Sarvinoz Raimovna Xasanova	217
50.	СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ Назира Алеевна Махмудова	220
51.	1-SINF ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLIGIDA KELTIRILGAN YASAMA SO‘ZLARNING YASALISHI HAQIDA METODIK TAVSIYALAR Go‘zal Baxodir qizi Mirsaitova	225
52.	MEVALI BOG`LARNI KARANTIN BEGONA O‘T – ZARPECHAK (CUSCUTA L.) DAN HIMOYA QILAYLIK Xuriyatxon Zafarbekovna Abdullayeva, Lochinbek To‘lanboy o‘g‘li Ro‘ziyev Dostonbek Rustamjon o‘g‘li Zokirov	228
53.	MUSTAQILLIK YILLARIDAGI TASVIRIY SAN’ATNI O‘QITILISHI Sarvinoz Uyg‘un qizi Esonova	231
54.	TIL O‘RGANAYOTGAN O‘QUVCHI YOSHLARGA SO‘Z YODLASHNING ILMIY ASOSLARI Maftuna Naim qizi Dushanova	234
55.	TEACHING ENGLISH VOCABULARY EFFECTIVELY AND EFFICIENTLY Nurali Safarovich Berdiyev	236
56.	THE IMPORTANCE OF TEACHING VOCABULARY Zarina Abduganiyevna Imomova	239
57.	TEACHING ENGLISH THROUGH SONGS Lobar Abdusattorovna Khasanova	242
58.	ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯДАН ФОЙДАЛАНА	245

	БИЛИШИ Дилбар Жумаева	
59.	LEKSEMALARGA XOS NAZARIY QARASHLAR Jumayeva Sabohat Sa'dullayevna	248
60.	АУДИТОРЛИК ТЕКШИРУВИНИ ЎТКАЗИШ БЎЙИЧА КОМПИЛЯЦИЯ ХИЗМАТЛАРИНИНГ МОҲИЯТИ А.Н. Тўраев Турабоев Темур Турабаевич	251
61.	GEOGRAFIYA TA’LIMINING MAQSADI VA VAZIFALARI Suvonova Sarvinoz Tuychi qizi	258

Eslatma! “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnaliga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

Bosh muharrir

Abdumannonov Islomjon Ikromjon o‘g‘li

Mas’ul muharrir

Isroilov Ozodbek Saydullajon o‘g‘li

Nashrga tayyorlovchi

Abdullayev Ravshanjon Inomjon o‘g‘li

“Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnali, 2022-yil. 265 bet.
© Talqin va tadqiqotlar, 2022
© Mualliflar jamoasi, 2022